


# QALAMTASVIR

DARSLIK

X.X.Muratov



**‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**X.X. Muratov**

# **QALAMTASVIR**

*darslik*

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
tomonidan 60111200 - “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”  
ta’lim y ‘nalishi 1 - kurs talabalari uchun darslik sifatida tavsiya  
etilgan*

**TOSHKENT**

**2023**

**UDK: 76,0(075)**

**BBK: 85.15 72**

**ISBN 978-9910-9660-1-9**

**Muratov, X. X.**

**Qalamtasvir** [Matn]: darslik/ **X.X. Muratov.** - Toshkent:  
2023.-153.

**Mas’ul muharrir:**

*X.E. Sultanov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat Pedagogika instituti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi mudiri, O‘zbekiston Badiiy Ijodkorlar uyushmasi a’zosi, dotsent, f.f.d (PhD).*

**Taqrizchilar:**

**K.S.Nishanova** – K. Behzod nomidagi MRDI, San’atshunoslik fakul’teti, Muzeyshunoslik kafedrasi dotsenti, s.f.f.d, (PhD).

**B.B.Baymetov** - ChDPU, San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi p.f.n. professor. O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi.

Mazkur darslik bugungi kun talablarini hisobga olingan holda xorij adabiyotlari asosida yozildi. Darslik talabalarini “Qalamtasvir” fanining nazariy hamda amaliy asoslari bilan chuqur tanishtiradi. U olib boriladigan mashg‘ulotlarning mavzusi va mazmunini to‘liq o‘z ichiga qamrab olgan. Darsikda qalamtasvirda tasvirlashning qonunlari, tasvirlash qoidalarini chuqur o‘rganish ko‘zda tutilgan. Dastur asosida rejalashtirilgan dars soatlari bo‘yicha amaliy ishlar vazifalari oddiydan murakkabga qarab tamoyili tarzida ishlanmasi ishlab chiqilgan hamda foydalanish uchun mahalliy va xorij adabiyotlari berilgan.

Ushbu darslikdan turdosh oliy ta’lim muassasalarining 60111200-Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bakalavriat bosqichi 1-kurs talabarlari, o‘qituvchilar, metodistlar, san’at sohasi mutaxassislari va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari va o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29 - maydagi 232 - sonli ( Guvohnoma raqami 232-601) buyrug‘i bilan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

© **X.X. Muratov., 2023**

© **“LESSON PRESS”**

**nashriyoti, 2023**

## KIRISH

Yoshlarni tasviriy san'at sohasida barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san'atga oid fanlar, xususan "Qalamtasvir" fani alohida ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etadi.

Jamiyat va davlat o'zligini anglagan, vatanparvarlik tuyg'usi bilan millat, xalq manfaatlari, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun ma'suliyatli, ilmiy bilim, mehnat va kasb-kor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallagan, ruhiy sog'lom, jismonan yetuk, umuminsoniy va milliy xulq-atvor normalarini o'z ongi va faoliyatida mujassam etgan ma'naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan manfaatdordir.

Hozirgi zamon talabi avvalo, rivojlanib borayotgan ilm-fan taraqqiyoti va tajribalari hamda amaliy natijalarini chuqur o'rganib, ilm fanga dolzarb va o'ta ahamiyatli tomonlarini tatbiq etishni taqozo etmoqda. Ta'limda har doimgidek uzluksizlik va uzviylikni ta'minlab, millionlab axborotlar ichidan asosli va natijaviy nazariy hamda amaliy ma'lumotlarni olib kirish fanning taraqqiyotini belgilaydi. Shunday muhim jihatlarni inobatga olgan holda 60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalariga "Qalamtasvir" fanini o'rgatishda bugungi kun talabi asosida, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida, xususan "Qalamtasvir" fanining o'qitilishi va uning bugungi ahamiyatini o'rgangan holda darslik yaratishni maqsad qildik.

Jamiyatda umuman hayotda har bir faoliyat aniq bir maqsadlar va natijalarga qaratiladi. Shunday ekan "Qalamtasvir" fani tasviriy san'atda qanday o'rin tutadi, fan o'z oldiga qanday vazifa va maqsadlar qo'yadi kabi dolzarb va o'rinli savolga asosli javob topish zarur.

Yangilangan pedagogik tafakkur va oliy ta'lim muassasalarida Qalamtasvir fanini o'qitishning badiiy ijodiy asoslari "Qalamtasvir"

fanining talablari asosida ta'lim jarayonida ro'y bergan, berayotgan va bo'lishi muqarrar o'zgarishlarning asosiy xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirishga ehtiyoj tug'iladi. Tasviriy san'at talabalarning ma'naviyatini, tafakkur dunyosini, badiiy didini va tasavvur olamini shakllantiradi. "Qalamtasvir" fani esa tasviriy san'atning asosi hisoblanadi. Fanning nazariy tomonlarini o'rganish, ushbu ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosi hisoblanadi. Qalamtasvirda tasvirlash qonun qoidalarini mukammal egallagan talaba amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. Ayniqsa, qalamtasvir mashg'ulotlarida nazariya amaliyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi.

Pedagogik tadbirlar, tarbiyashunoslikka doir qarashlar faqat milliy asoslarga tayanilgandagina, ta'lim-tarbiya obyektlari va subyektlarining milliy xususiyatlarini hisobga olib ish ko'ra bilgandagina o'z oldiga qo'ygan natijalarga erishishi mumkin. Chunki pedagogik tadbir umuman odamlarga emas, balki muayyan millatga mansub odamlarga tatbiq etiladi. Muayyan millat dunyoga bugun kelgani yo'q va o'zining tarixiy umri davomida o'ziga xos ijtimoiy tajriba to'plagan, ma'naviy qadriyatlarini, joylashgan o'rni, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sharoitga muvofiq ruhiyatlar tizimiga ega. Pedagogika singdirmoqchi bo'lgan sifatlarni ana shu tajribalar, qadriyatlar, psixologiyadagi o'ziga xosliklar ustiga qursagina biror ijobiy natijaga erishadi.

Mazkur darslik ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari hamda amaliy mashg'ulotlarda xalqaro tajribalar asosida o'qitish texnologiyalaridan tarkib topgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarining 60111200 – "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi 1-kurs uchun tayyorlangan "Malaka talablari", o'quv rejalari, fan dasturlariga muvofiq hamda qalamtasvir mashg'ulotlaridan to'plangan ko'p yillik amaliy tajribalar, olimlarimiz va xorij olimlari tomonidan yaratilgan o'quv adabiyotlari, mashxur rassomlarning qalamtasvir to'g'risidagi fikr-mulohazalari asosida tayyorlandi.

## Qalamtasvirning rivojlanish tarixi

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va uzoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichni hamma xalq va elatlar o'z boshidan kechirdilar. Ana shu uzoq davom etgan taraqqiyot jarayonida hozirgi zamon odami tipi paydo bo'ldi, odamlar jamoasi yuzaga keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining zaifligi odamlarni jamoa bo'lib yashash va mehnat qilishga da'vat etdi. Ular qudrat birlikda ekanligini hayotning ilk bosqichidayoq bildilar. Bu qudrat ularni tabiat sirlarini o'rganishga boshladi. Madaniyat va san'at ravnaqiga zamin yaratdi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi san'ati tarixi, odamzod tafakkuri, his-tuyg'ularining paydo bo'lishi va rivojlanishidan boshlab, yer yuzida birinchi davlatlarning yuzaga kelishigacha bo'lgan davr san'atini o'z ichiga oladi, o'rganadi va tahlil etadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar – mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbayi hisoblanadi (1–2-rasmlar). Bulardan tashqari, etno-



*1-rasm*

grafiya, tarix sohasidagi fan yutuqlari, antropologiya, lingvistika, geologiya, xalq og'zaki ijodi, saqlanib qolgan turli afsonalar, fizika, kimyo fanlarining yutuqlari ham shu davr tarixi va san'ati haqidagi tushunchalarning oydinlashishiga xizmat qiladi.



*2-rasm*

San'at qadim-qadimdan kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Odamlar mehnat jarayonida shakl tuyg'usini his etib, ritm, simmetriya tushunchalarini o'zlashtira boshladilar. Ular mehnat jarayonida tabiat kuchlarini o'zlariga bo'ysundirdilar. Ishlatilayotgan buyumlarning shakli bajarayotgan mehnatlarini osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkinligini tushundilar. Qulay mehnat quollarining unumi ularda o'z quollariga nisbatan mehr tuyg'ularini uyg'ota bordi. Ular o'z quollariga bezak berish orqali o'z mehrlarini izhor etishga harakat qila boshladilar. Odamlarda qulaylik va foydalilik tushunchalarining yuzaga kelishi voqelikdagi, hayotdagi go'zallik va xunukliklarni his etish imkoniyatini rivojlantira boshladi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'ydi. San'atning yuzaga kelishi insonning obyektiv voqelik to'g'risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z avlodi tajribalaridan bahramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da'vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

Qalamning ilk ko'rinishlari ham qalamtasvirning paydo bo'lish tarixi ham aynan iptidoiy jamoa davridan boshlanadi desak hato

qilmaymiz. Iptidoiy odamlar kuydirilgan daraxt shoxlarining qoramtir ranglarida, turli qotishmalardan iborat toshlarda o'zlari yashagan makonlaridagi g'orlarga, tog' qoyalariga, turli jonzotlarning terilariga har xil mavzularda: ov qilish jarayonlari, ov qurollari va ularning yasalishlari hamda turlari, dehqonchilik bilan shug'illanayotgan odamlar, hokimiyatning yuqori lavozimdagi shaxslari tasviri, urf odatlar va boshqa belgilarni tasvirlashgan. Bu tasvirlar olimlar tomonidan nutiqning ilk ko'rinishi sifatida ham e'tirof etilgan. Yana shuni ta'kidlash lozimki, tasvirlash yoki homaki rasm (qoralama) lar ishlash insonning tafakkurini rivojlantirib, fikrlash doirasini kengaytirib yangiliklar yaratishga, kashfiyotlar qilishiga asos bo'lib xizmat qilar ekan. Fikrimizning isboti sifatida yuqorida ta'kidlangan iptidoiy odamlarning kashfiotlarini yoki uyg'onish davrining buyuk olimi va rassomi Leonardo da Vinchining ko'plab kashfiyotlari-yu, ixtrolarini asos sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Bunday asoslarni millionlab qonuniyatlar va kashfiyotlarda ko'rsatishimiz mumkin, ammo o'zingiz o'ylab ko'ring: oddiy ishlab chiqarilayotgan mashinaning barcha qismlari qo'lda chizib chiqilgan emasmi, chizmachilik, muhandislik, aviasozlik, tibbiyot kabi bir qator fanlarning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishida qlamtasvirning o'zni va ahamiyati beqiyosdir.

Ranglar va bo'yoqlar kashf etgunga qadar qalamtasvir rivojlanib bordi. Bo'yoq olish texnologiyalari rivojlangan bugungi kunda ham qlamtasvirning ahamiyati o'z o'rnini saqlab, turli yo'nalishda, alohida fanlar sifatida rivojlanib bormoqda.

Qalamtasvir juda qadim zamonlarda mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi: aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb edi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining spetsifik xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning

ideologiyasini targʻib etuvchi kuchli gʻoyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan isteʼdodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning goʻzallik va xudbinlik, olijanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, urf-odatlarini, yutuq va magʻlubiyatlari ularning asarlarida oʻz ifodasini topdi (**3-rasm**). Har bir davrda mavjud boʻlgan ana shunday sanʼat hayot goʻzalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilish yoʻlidagi kurashga daʼvat etdi.



3-rasm

Insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar faqat oʻtmish kishilaridan qolgan yoki yaratilayotgan boyliklar boʻlib qolmay, balki oʻzida inson aql-zakovati, hayot toʻgʻrisidagi fikr-oʻylarini aks ettiruvchi koʻzgu hamdir. Jahon sanʼati tarixini oʻrganish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish oʻtmish odamlarining his-tuygʻu, hayotiy tajribalarini oʻrganish gʻoyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bi-

lish demakdir. Bu soʻzsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi.

Tasviriy sanʼatning barcha turlarining asosi boʻlgan qalamtasvir hisoblanadi. «Qalamtasvir» XVIII asrdan boshlab chiziqlar yordamida obraz yaratish sifatida tasvirni belgilovchi atama boʻlib kelgan. U barcha sanʼat turlaridagi shakli, oʻlchami, tuzulishi va xarakterini belgilab beruvchi muhim xususiyatlari bilan tanishtiradi.

Tasviriy sanʼat turlarining asosi – qalamtasvirni chizmachilik bilan taqqoslasak, uning xususiyatlari yanada yaqqol ayon boʻladi.

Birinchiidan, rassom tasvirni koʻz bilan chamalab, oʻz qoʻli bilan qisqa vaqtda tasvirlab koʻrsata oladi. Ikkinchiidan, rassom tasvirda buyumning tashqi asosiy belgilari, uning materialligi, hajmi, yorugʻligi, fazoviy joylashuvi va hokazolarni koʻrsatadi. Uchinchiidan, qalamtasvirda nafaqat buyumning tashqi turli belgilari tasvirlanadi, balki buyumning ichki mazmuni ham ifodalanib, kuzatuvchida muayyan fikr va hissiyot uygʻotadi.

Qalamtasvir xususiyatlarini chuqurroq oʻrganish uchun tasvirlash shartli ravishda bir necha turga boʻlinadi.

Qalamtasvirning tasvirlash vositalari ishlatilishi boʻyicha tasvir chiziqli va tusli turlarga boʻlinadi. Chiziqli rasm qoidaga koʻra och rangli va umumlashtirilgan boʻladi. Chiziqlar orqali badiiy obraz yaratiladi. Jadvallar, shartli chizmalar va doskadagi tasvirlar shular jumlasidandir.

Tusli tasvirlar muhitdagi buyumning hajmliligi, yorugʻligi, fakturasi va fazoviy munosabatlarining toʻliq taʼrifini beradi. Bunday rasmlar yorugʻ-soyali va tusli rasmlar deb ataladi.

Ayrim buyumlar sharpasi va tashqi koʻrinishi orqali xarakterlidir. Shuning uchun bunday koʻrinishlarni tasvirlashda ayrim hollarda tusli tasvirning oddiy turi tanlanadi, bu esa siluet deb nomlanadi, yaʼni bir xil tekis tus bilan qoplanib, tashqi koʻrinish chizigʻi orqali bajariladigan tasvir.

Qalamtasvir bajarish uslubiga koʻra **asl nusxa** (original) va **bosma** turlarga boʻlinadi. Asl nusxa rasm – rassom tomonidan oʻz qoʻli bilan yaratilgan yagona namuna hisoblanadi. Bosma rasm esa qogʻoz yuzasiga qolipdan tushirilgan rasmdir, u **estamp** deb yuritiladi. Estampning bir necha koʻrinishi mavjud: gravyura, lino gravyura, litografika.

Qalamtasvir ishlatilishiga koʻra akademik va ijodiy tasvirlarga boʻlinadi. Akademik qalamtasvir bu – uzoq vaqt davomida tasvirlashga oʻrgatish, turli shakl va belgilarni oʻrganish hamda tasvirlash usullarini oʻzlashtirish maqsadida bajariladigan rasm.

**Ijodiy qalam tasvir bu** – rassomning fikri, hissiyoti va dunyoqarashini obrazli ifodalovchi tasviriy sanʼat asari.

O'quv va ijodiy ishlarda qoralama, etyud, eskiz kabi atamalar keng qo'llaniladi. Qoralama deb qisqa vaqtli tasvirga aytiladi. Buyum tasviri yoki uning qismlarining mukammal o'rganilishi etyud orqali amalga oshiriladi. Etyud va qoralamalarda chuqur o'rganilib yig'ilgan haqiqiy materiallar ijodiy rasm yoki asarlar yaratilishi mobaynida foydalanishga mo'ljallangan dastlabki chizgilar eskiz deb yuritiladi.

Tasvirlash jarayonini 4 bosqichga ajratish mumkin.

**1-bosqich.** Qo'yilmaning tuzilishiga qarab qog'oz varag'i tik (vertikal) yoki yotiq (gorizontal) holatda bo'lishi aniqlab olinadi. Narsaning tashqi shakllari kuzatilib, bu shakllar qo'shimcha chiziqlar yordamida geometrik shakllar tarzida belgilanadi hamda amalda qanday maqsadlarda ishlatilishi tahlil qilinadi. Narsalar bo'yining eniga nisbatining solishtirilishi bilan aniqlanadi. Narsaning tashqi ko'rinishida joylashgan umumiy belgilari ko'rsatiladi.

**2-bosqich.** Narsaning umumiy shakli va tasvirning nisbati o'lchami hisobga olinib, qog'ozda uning joylanishi (kompozitsiyasi) aniqlanadi. Narsaning asosiy nisbatlari, uning o'lchami m $\phi$  chiziqli (konstruktiv) qurilishi perspektiv qisqarish qoidalariga rioya qilingan holda tasvirlanadi.

**3-bosqich.** Narsaning asosiy qismi va mayda bo'laklarining o'zaro joylashuvi aniqlanadi. Tasvirlashda qo'llanilgan yordamchi chiziqlar o'chirib tashlanadi va qo'yilmadagi narsalar bilan chizilgan rasm taqqoslab ko'riladi. Rasmdagi narsalarning yorug' – soyasi shtrixlanib, och-to'qligi aniqlanadi. Tasvirlangan narsadagi yorug', uning yarim soyasi, shaxsiy soyasi, refleks shu'la qismlari oxiriga yetkaziladi. Buyumlarning har bir shakli va qismlari alohida ishlanadi.

**4-bosqich.** Shakllarning xarakteri va fakturasi ko'rsatiladi hamda ish butun bir yaxlitlikka keltirilgan holda tugallanadi.

### **Qalamtasvir mashg'ulotida zarur qurollar va jihozlar**

Qalamtasvir fanini o'rganishda bizga birinchidan ish qurollari va jihozlar kerak bo'ladi. Ular quyidagilardir: konstruktiv qalamlar, sangina, pastel, ko'mir tayoqchalari, maxsus moslamalar, planshet

va malbertlar kiradi. Ularning o'ziga xos spetsifik xususiyatlari mavjud bo'lib, ushbu bo'limda ana shu materiallar bilan yaqindan tanishtiramiz. Ushbu materiallarni bilmasdan turib, kerakli maqsadga erishish qiyin albatta.

**Qog'oz** tasviriy san'atda tasvir chizish uchun ishlatiladigan materiallardan biridir.

Qog'ozning turlari quyidagicha: vatman, poluvatman va torshun qog'ozlari bo'lib, bular eng yaxshi navli qog'ozlardir. Vatman va poluvatman qog'ozlarida qalamtasvir, grafik ishlar bajarish yaxshi samara beradi.


Tarshun qog'ozu yuzi g'adir-budur bo'lib unda akvarel bo'yoqlari uchun juda qulay bo'lib tasvirlangan asar yoki amaliy ishlar juda ham sifatli bo'ladi (**5-rasm**). Bu qog'ozlarning tarkibiy qismi, juda zich bo'lganligi tufayli tasviriy san'at darslarida juda unumli foydalaniladi. Qog'ozlarning rangli turlari mavjud bo'lib, ular bilan sanginada, pastel hamda akvarelda etyudlar va eskizlar chizish mumkin.



4-rasm

**Qalam.** Tariximizga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy davrda odamlar g'orlarga, tog'u-toshlarga turli xil tasvirlarni ishlab qoldirishgan. Ular daraxt shoxlari (yongan qismlari va po'stloqlari)

yoki biron-bir qattiqroq (turli qotishmalardan iborat yoki qirrali tosh unsurlar) narsalar bilan g'orlarning devorlariga tinalib, turli xil shakllarni tasvirlashgan.



5-rasm

bo'lgan qo'rg'oshinli, kumush shtiftlardan foydalanib kelingan. XIII asrdan boshlab, rassomlar maxsus g'ilofda saqlanadigan ingichka kumush quymasini bandga kavsharlab yopishtirilgan qalamlarda ishlay boshlashgan. Bunday qalamlar “kumush qalam” deb atalgan. Bu asbob bilan chizilgan chiziqlarni o'chirib bo'lmasligi sababli rassomdan katta mahorat talab qilinardi.

Uning yana o'ziga xos tomonlaridan biri vaqt o'tishi bilan bu qalamda chizilgan suratlar jigarrang tusga kirib qoladi. Ingichka shtrixlar hosil bo'lishi kumush va qo'rg'oshin qalamlarda bajarilgan ishlarga xos xususiyat hisoblanadi. Bunday qalamlardan mashhur nemis rassomi **Dyurer** ko'p foydalangan.

XV asrdan qora va tuproqsimon slonetsdan tabiiy (qora bo'r), qora saja va oq tuproqdan sun'iy ravishda tayyorlanadigan italyan qalamlari qo'llanila boshlandi.

Qalam – (Turkiy tildan olingan bo'lib “kara” – qora, tas yoki das – tosh ma'nosini bildiradi) tasvirlash materiali bo'lib, ishlashga qulay bo'lishi uchun ko'mir, qo'rg'oshin, grafit, quruq bo'yoq preslangan holda, yog'och yoki metall g'ilof ichiga joylashtirilgan chizish asbobi.

Eng qadimgi quruq holda chizish materialiga ko'mir hamda antik davrlardan ma'lum



6-rasm

Hozirgi vaqtda italyan qalamlari kuydirilgan suyakning o‘simlikdan olinadigan yelimlar bilan aralashtirilib tayyorlanadi. Eski usulda tayyorlanganlari kulrang tusga ega, zamonaviylari esa to‘q qora tusdagi baxmalsimon fakturali shtrixlar hosil qiladi. Shunisi qiziqki, hozirda ham rassomlar ma‘lum bir natijaga erishish uchun ba‘zan kumushli, qo‘rg‘oshinli va italyan qalamlaridan foydalanishadi.

XVI asrdan grafitli qalamlar keng yoyila boshladi, undan hosil bo‘lgan chiziqlar yengil och qora rangda ekanligi va yengil yaltirab turish xususiyatiga ega edi. XVIII–XIX asrlarda grafit kukunini tuproq bilan aralashtirib yog‘och g‘iloflarga joylashtirilgan grafitli qalam turlari paydo bo‘la boshladi.

Yuqorida aytib o‘tilganlardan tashqari bu davrda rangli tabiiy yoki sun‘iy bo‘yoq kukunlari va kaolindan tayyorlanadigan rangli qalamlar ham paydo bo‘la boshladi. Kukunlarni birlashtirish uchun har xil yelimlar qo‘shib ishlatilgan. Yumshoqligiga erishish uchun yog‘li aralashmalar qo‘shilgan. Grafitdan yasalgan qalamlar qo‘lni iflos qilmasligi uchun qalam sirtlarini turli xil tasmachalar bilan o‘rab ishlatishdi. Keyinchalik esa daraxt shoxlarini ikki bo‘lakka ajratishib o‘rtasiga qalamchalarni joylash natijasida, ikkiga ajratilgan bo‘lakchalarni bir-biriga yelimlash tufayli hozirgi kunda ishlatib kelayotgan qalamlarimizga asos solingan. Qalam bilan tasvir chizganda, uni asosan uch barmoq bilan ushlanadi. Qalamni ushlagan vaqtda erkin ushlashga qo‘lni o‘rgatish kerak. Qalamni qattiqroq yoki bo‘shroq bosish natijasida har xil chiziqlarni chizish mumkin. Tasvir chizganda qalamni bo‘shroq ushlash maqsadga muvofiqdir. Qalam uchini tasvir chizishga tayyorlanganda, uning grafit qismini 5–6 mm, yog‘och qismini esa 15–30 mm gacha yo‘nish mumkin. Chunki bunday yo‘nilgan qalamlar, tasvir chizayotganda chiziqlarning aniq ravshan ko‘rinishiga yordam beradi.



7-rasm



8-rasm

Kerakli darajadagi mustahkamligini oshirish maqsadida zamonaviy qalamlar grifeliga polimerlar qoʻshiladi, bu unga kerakli darajadagi mustahkamlik, egiluvchanlik, mexanik qalamlar uchun juda ingichka (0,3 mm. gacha) grifellar tayyorlash imkonini beradi. XIX asrda yumaloq shakldagi qalamlar bilan notekis yuzali qogʻozlarga ishlashda barmoqlar orasida sirgʻalib ketishini bartaraf qilish maqsadida graf Lotar fon Faberkastl qalamlarning oltiqirrali shaklini taklif qildi.

Yogʻoch gʻilofli qalamni archilish paytidagi isrofgarchilikni kamaytirish maqsadida amerikalik Alonso Taunsenda Kross ichiga grafitli tayoqchani metall qalam ichiga joylashtirib mexanik qalamni oʻylab topdi va 1879-yili patentlashtirdi. Bu hozirgi vaqtda biz bilgan va keng qoʻllanilayotgan turli-tuman mexanik qalamlarning paydo boʻlishiga turtki boʻldi.

Oddiy tugmachani bosish bilan kerakli uzunlikda chiqarib olish mumkin boʻlgan bu qalamlar ishlatish uchun mutlaqo qulay boʻlib, uni archilash shart emas. Unda ishlaganda har xil qalinlikdagi sterjenlardan foydalanish mumkin (0,3 mm, 0,5 mm, 0,7 mm, 0,9 mm, 1 mm).

Bu qalamning afzallik tomoni u bilan ishlaganda chiziqlar tez qorayib ketmaydi, aksincha undan yengil yaltiroq kumushrang tuslar hosil boʻladi.


Rivojlanish jarayonida tasvir ishlarining turli xil asbob-uskunalarini takomillashib bordi. Shunday narsalarning turkumiga chizgʻi oddiy qora qalamlar ham kiradi. XVI asrda Angliyada Grafit konining topilishi qalamlarni ommalashib ketishiga sabab boʻldi.




9-rasm

Oddiy qora qalamning yumshoq va qattiq turlari bor. Qalamning farqini unga yozilgan nishoni belgilaydi. Qattiq qalamlarga T, 2T yoki V, 2V, H, 2H, yumshoq qalamlarga M, 2M, 3M yoki N, 2N, 3N, B, 2B kabi nishonlar qo'yiladi. TM, VN va HB belgisi qo'yilgan qalamlar o'rtacha yumshoqlikda bo'ladi (5-6-7-8 rasmlar). Qalam bilan tasvir chizganda, uni asosan uch barmoq bilan ushlanadi. Qalamni ushlagan vaqtda erkin ushlashga qo'lni o'rgatish kerak. Qalamni qattiqroq yoki bo'shroq bosish natijasida har xil chiziqlarni chizish mumkin. Tasvir chizganda qalamni bo'shroq ushlash maqsadga muvofiqdir. Qalam uchini tasvir chizishga tayyorlanganda, uning grafit qismini 5–6 mm, yog'och qismini esa 15–30 mm gacha yo'nish mumkin. Chunki bunday yo'nilgan qalamlar, tasvir chizayotganda chiziqlarning aniq ravshan ko'rinishiga yordam beradi (10-rasm).

Oddiy qalamning imkoniyati haqida gap ketar ekan, dastgohli rangtasvir, grafika, mahobatli rangtasvir va hatto haykaltaroshlik sohasida ijod qilayotgan ijodkorlar har biri oddiy qalamning badiiy va texnik imkoniyatlarining kengligini har kim o'zicha ta'riflaydi. Qoralama, qalamchizgi va eskizlar aynan shu oddiy qalam yordamida bajariladi. San'at tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak qalamda ham juda ko'p buyuk asarlar yaratilganligiga guvoh bo'lamiz.




10-rasm




11-rasm

Ijod jarayonining ko‘proq vaqtini aynan qalamtasvirda ishlashga sarflay olish bu rassom uchun oddiy ish emas. Buning uchun xilma-xil bo‘yoqlar, kishining havasini keltirib jilvalanib turgan ranglar ohanrabosini yengib o‘tib, oddiy kumushrang yoki qora tasvirlar yordamida aniq tasvirlar qurilishi va tuslar yordamida rangtasvir ishlashga o‘zida qiziqish, ishonch va kuch topa olishi kerak bo‘ladi. Agar bunga ahd qilindimi demak birinchi muhim qadam tashlandi. Qachonki rassom faqatgina bo‘yoqlar yordamida emas, balki oddiy qalam bilan ham ajoyib asarlar yarata olishi mumkinligini tushunib yetish bu – ikkinchi g‘alaba. Bunday durdona asarlarga jahon va milliy o‘zbek tasviriy san’ati tarixida misollar juda ko‘p.




12-rasm

Bu asarlar sirasiga Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, A. Dyurer, Golbeyn, Rembrant, Vrubel, V.Serov, O‘.Tansiqboyev, R.Ahmedov va B.Jalolovlarning qalamda ishlagan suratlari yorqin misol bo‘la oladi. Rangtasvir kompozitsiyasi ular ijodlarining cho‘qqisi deb hisoblangan, qalamtasvir bu cho‘qqining asosidir.



13-rasm

Rassom ijodida qalamtasvir dastgohli va mahobatli rangtasvir, estampda asarlar yaratish yoʻlida qoralama, qalamchizgi, eskizlar bajarishda katta koʻmakchi vazifasini bajaradi. Bu juda kerakli va maʼsuliyatli vazifa hisoblanadi. Rassomda oʻylangan fikrni uzil-kesil va toʻla ifodalagan mustaqil qalamtasvirlarda qalamning yuqori darajadagi imkoniyatlarini koʻrish mumkin.



14-rasm

Qalamda chizish mashgʻuloti juda qiziqarli boʻlib, atrof-muhitdagi koʻplab noyob hodisalarni uchratish mumkin boʻlgan ijodiy safarlarda, tabiat qoʻyniga chiqqanda vaqt tigʻiz paytlarda manzaralar ishlash uchun juda qulay boʻlib, unda ishlash jarayonida yoʻl qoʻyilgan xatoni tezda bartaraf qilish mumkin. Unda rassom kishini toʻlqinlantiradigan holatlar, kerakli tasvir boʻlaklarini tez va yengil oʻz albom varagʻida tasvirlash imkoniniyatiga ega.

Rassom manzara ishlashga chiqqanda, uning uchun eng qulay material bu qalam hisoblanadi, chunki uni olib yurish uchun maxsus etyudniklar kerak emas, tez oʻzgarib turadigan plener sharoitida ishlashga juda qulay. Qalam bilan yilning har qanday faslida, har qanday sharoitda, hatto yomgʻir yogʻayotgan, shamol turayotgan paytda ham sal panaroq joydan turib bemalol ishlasa boʻladi.

**Koʻmir tayoqchalari** xomaki tasvirlar chizishda koʻproq ishlatiladi. Koʻmir tayoqchalarini uy sharoitida ham tayyorlasa boʻladi. Misol uchun: koʻmir tayoqchalarini tayyorlashning oddiy usulini oʻrganamiz. Buning uchun uzum tokini yoki atir gul novdasini qizarib yaxshi pishgan novdasidan 5–10 ta boʻlakchalaridan, boʻyiga 10–12 santimetr, eniga 8–9 millimetr boʻlganlarini tanlab olamiz. Biron bir mahsulotlardan boʻshagan temir (banka)ni olib yaxshilab ichini tozalab, quritib qoʻyamiz. Bu idish ichiga tok novdalarini tik holatda joylab, qum bilan idishni toʻldiramiz. Ogʻzini qalinroq qilib loy bilan

suvab qo‘yamiz. Ammo shu narsani esdan chiqarmasligimiz kerakki, loy bilan suvaganda og‘zidan kichikroq bir teshikcha qoldirishimiz shart. Keyin tandirda yoki o‘choqda olovga qo‘yib qizdiramiz. Cho‘g‘ga bo‘yi barobar ko‘mib qo‘ysak ham bo‘ladi. Temir idishning qizishi tufayli biz qoldirgan teshikchadan ko‘kish olovsimon tutun chiqa boshlaydi. Ko‘kish olovsimon tutun tugashi bilan idishni olovdan (cho‘g‘dan) olish kerak. Chunki ko‘mir qalamcha tayyor bo‘ladi. Tayyorlangan qalamchalar bilan qog‘oz yuzalariga tasvirlar ishlashimiz mumkin. Ishlangan tasvirimiz uchib ketmasligi uchun ozgina shakarni eritib qog‘ozga tasvir ustiga yengil pufkanadi, natijada chizilgan rasmlar uchib ketmaydi. Shu narsani unutmangki, uzum tokining qalamchalari bir-biriga juda zich holda joylashishi kerak. Yoki hammasini bir-biriga zich qilib bog‘lab chiqsa ham bo‘ladi. Otabobolarimiz bunday ishlarda kulolchilik idishlaridan foydalanishgan. Rossiyada esa oq qayin daraxtining shoxchalaridan foydalanishadi. Zavodlarda esa 300<sup>0</sup> issiqlikda havosiz joyda 3 soatdan 5 soatgacha qizdirish usulida ko‘mir qalamchalari tayyorlanadi (15-rasm).



*15-rasm*

**O‘chirg‘ichlar** ikki xil bo‘lib, ko‘kimtir va oq tusdagilar tasvir chizganda ishlatiladi. Qizg‘ish tusdagi o‘chirg‘ichlardan tasvir chizganda foydalanilmaydi, chunki uning tarkibida «qum oyna» parchalari bo‘lib qog‘ozni titib yuboradi (16-rasm). Keraksiz chiziqqlarni o‘chirishda o‘chirg‘ichni qattiq bosmasdan, iloji boricha

o'chirg'ichdan kamroq foydalanishga odatlanish lozim. Birinchidan qog'ozning ortiqcha titilib ketishidan saqlansa, ikkinchidan, har bir chiziqni o'ylab va fikr yuritib chizishga kishi odatlanib boradi. O'chirg'ichni ishlatib bo'lgandan so'ng, uni qo'lda ushlab turish yaramaydi. Aks holda qo'l terlab o'chirg'ichni namlash natijasida u ishga yaroqsiz bo'lib qoladi.



16-rasm

**Tagliklar** har xil tuzilishda bo'lib, tasvir chizilishi lozim bo'lgan narsa, kerakli natura uning ustiga qo'yiladi, mashq bajaruvchi o'zining didiga qarab kompozitsiya tuzishi mumkin.

**Yoritgichlardan** naturaning aniqligi, xususiyatini, shakli va hajmini ko'rsatish maqsadida foydalaniladi. Yoritgich yordamida narsaning soya, yorug', yarim soya va shu'lalarni tasvirlash mumkin. Narsalarga ko'pincha yoritgich nuri chap tomondan yo'naltiriladi.

**Pastel** rangli qalamchalar bo'lib, pastelda ko'pincha homaki tasvirlar (nabroska va zarisavka)lar bajarish mumkin (*atrof muhit*).

Pastelda tog‘ manzaralari, portret, qush va hayvonlarning tasvirini chizishda ko‘proq ishlatiladi.



*17-rasm*

**Sangina** qalamtasvirlarni ishlashda qo‘llanilishi ham foydali. U bilan har qanday tasvirni tez va ifodali qilib chiqarsa bo‘ladi, faqat buning uchun uning texnikasini egallash kerak bo‘ladi (*18-rasm*).

Ma‘lumki, sanginaning to‘q jigarrang hamda qizg‘imtir jigarrang turlari bo‘ladi. Ularni ham tus berilgan oxrasimon rangli qog‘ozlarda unumli qo‘llash mumkin. Sanginani surkatib soyalarning katta-katta qismlarini yopish imkoniyati ham borligi ish rivojini tezlashtiradi.



*18-rasm*

Yuqorida keltirib o‘tilgan barcha tasvirlash vositalarini uzoq muddatda bajariladigan hamda tezkorlik bilan ishlanadigan qalamtasvirlarda birdek muvaffaqiyat bilan qo‘llash mumkin.

**Sous** – ma’lumki, sousni suvga qorib mo‘yqalamda qog‘ozga surtib tus berilsa, so‘ngra tasvirni retush qalamida ishlansa, o‘chirg‘ichdan ham unumli bilib foydalanilsa har qanday o‘quv-mashq vazifani namunali va chiroyli qilib chiqarish mumkin (19-rasm).



19-rasm


Tasvirning eng yorug‘ qismlarini o‘chirg‘ich yordamida ustalik bilan o‘chirib bo‘rttirilsa, eng to‘q soyalarning sathi qora sous bilan bo‘yab yopilsa, ish hajm tomondan juda fazoviylik kasb etadi.

**Pichoq (qalam chiqarish uchun maxsus pichoq)** – qalam archish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, oddiy bolalar uchun mo‘ljallangan qalam chiqarish uskunasi akademik tasvir ishlash uchun ishlatilmaydi. Zamonaviy pichoqlarda qalam chiqarishda o‘ta ehtiyotkor bo‘lish kerak, chunki uning tig‘lari juda o‘tkir. Pichoq tig‘lari o‘tmas bo‘lib qolganda unga yangi tig‘ qo‘yish tavsiya etiladi (20-rasm).



20-rasm

**Qum qog‘oz** – qalam archib chiqarilgandan so‘ng uning uchini o‘tkirlash uchun (tasvirlashda shtrix chiziqlari ravon va chiroyli ko‘rinishi uchun qalam uchi o‘tkirlanadi.) ishlatiladi. Tasvirlash (shtrixlash) jarayonida tez-tez qalam uchini qum qog‘ozga ishqalab o‘tkirlash tavsiya etiladi. Qum qog‘ozning qumlari hajmiga ko‘ra turi ko‘p bo‘lib, talabalarga 0,1mm li qum qog‘oz tavsiya etiladi (*21-rasm*).



*21-rasm.*

### **Xomaki rasmlar va ularni bajarish usullari**

Ta‘lim jarayonida xomaki rasmlarni bajarish ham davomli o‘quv rasmini chizishdagi kabi tasviriy san‘atning asosidan bo‘lgan «Umumiylikdan xususiylikka va xususiylikka umumiylikka» tasvirlash usuli bilan bosqichlarda amalga oshiriladi.

Tasvirlanayotgan predmet shaklini umulashtirilishining so‘nggi yakuniy bosqichi – qog‘ozga tushirilgan narsani yaxlit birlikka yig‘ish va birlashtirishdan butun rasm bo‘ylab aniqlik kiritish va nur-soya nisbatlarini bitta yaxlitlikka keltirish, ya‘ni tasvirlanayotgan shakl va ana shu shakl turgan kenglikni tutashtirishdan iboratdir.

Naturadan uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan qisqagina xomaki rasm chizib olish asosan tez ko‘rish va idrok qila bilish qobiliyatlarini o‘stirish uchun mo‘ljallanadi.

Kuzatish, idrok qilish va xomaki rasmni ijro etishlar ko‘p hollarda bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladi. Shuning uchun xomaki rasm ustida

ishlashning yakuniy bosqichi sifatida umumlashtirish haqida alohida gapirishga to'g'ri kelmaydi.

Xomaki rasmlar chizishda foydalaniladigan usullarni farqlashning quyidagi oltita turini belgilab olish imkonini beradi.

1. Naturani kuzatgan holda undan boshidan oxirigacha bevosita ijro etiladigan xomaki rasmlar.

2. Kombinatsiya usulida (dastlab naturadan kuzatib, keyinchalik naturasiz – xotira bo'yicha) tasvirlanadigan xomaki rasmlar.

3. Faqat xotiradan bajariladigan, ya'ni kuzatishdan keyin biror vaqt o'tgandan so'ng, ongda ko'rish qobiliyati musthkamlanganidan keyin chiziladigan xomaki rasmlar.

4. Insonning avval ongida qabul qilingan ba'zi predmetlar, tirik obyektlar va atrof-borliq hodisalar haqidagi tasavvurlarni jonlantirish qobiliyati bilan bog'liq tasavvurlar bo'yicha xomaki rasmlar.

5. Kompleks usul bilan, ya'ni yuqorida ko'rsatib o'tilgan hamma ish usullarini, jumladan tasavvur bo'yicha usullarini qo'llagan holda bajariladigan xomaki rasmlar.

6. Hayolga keltirish bo'yicha – biror-bir ijodiy fikr yoki badiiy obraz, mavzu, syujet va hokazo predmet va hodisalar haqida o'z tasavvurlarini jonlantirib tiklash asosida tasvirning umumlashgan xomaki rasmlarini chizish.

Xomaki rasmlarning ikkinchi, uchinchi va beshinchi turlari bitta umumiy alomatlar bilan birlashadi, chunonchi: xomaki rasm chizish bilan bir vaqtda sodir bo'ladigan yoki xomaki rasm chizishdan sal oldin (uning yakunlanishi endi naturasiz, xotiradan yoki tasavvurda kechadi) bo'ladigan naturani ancha yuzaki va tez kuzatish bilan yuzaga keladigan majburiy alomat bilan.

Agar bunda ijro vaqti cheklanmasa, u holda bunday naturadan chiziladigan xomaki rasm chizg'ga aylanib qolishi mumkin.

Xomaki rasmlar o'quv vazifasini bajarishda, bir vaqtning o'zida tasvirlanadigan obyektning holati, soni va murakkabligi (xotirjam holat yoki harakatda), boshqacha aytganda, xomaki rasmning o'z mazmunidan, shuningdek amalda duch keladigan obyektiv shart-sharoitlar.

Bu shart-sharoitlardan bittasi–naturani kuzatish va xomaki rasm ijrosi uchun vaqtning cheklanganligi yoki cheklanmaganligidir. Bu o‘z navbatida naturaning qo‘zg‘almasligi yoki qo‘zg‘alish darajasi (harakat tezligiga)ga bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, xomaki rasm chizish usuliga eng avvalo ikkita omil ta‘sir qiladi: vaqt va naturaning holati.

Bu o‘zaro bir-biriga bog‘liq omillardan tashqari ijrochi va uning ishlash qobiliyati (binobarin, xomaki rasmdagi tasvir xarakteri va sifati)ga shuningdek tashqi obyektiv shart-sharoitlar ham ta‘sir qiladiki, ularga rasm chizuvchi moslashishi kerak bo‘ladi (sinf, xona yoki ko‘cha, ishlab chiqarish yoki transport, jamoa joyi, sport maydonchasi, yo‘lka, sayilgoh va hokazolar).

Naturadan kuzatish bo‘yicha xomaki rasm chizish faqat bitta shart bilangina, ya’ni natura umuman qo‘zg‘almas, harakatsiz turgandagina boshidan oxirigacha bajarilishi mumkin.

Bunday natura eng avvalo, jonsiz predmet (masalan, san’at asarlari, haykaltaroshlik asarlari, me’morchilik inshootlari, bezaklar, sabzavot, meva, gul, daraxtlar, tog‘u tosh va ba’zi peyzaj turlari, shuningdek maxsus qiyofa uchun turgan model (inson ham) bo‘lishi mumkin.

Xomaki rasmning maqsadi naturani to‘liqsiz umumlashtirilgan ko‘rinishini aks ettirishdan iborat bo‘lgani uchun rassom nisbatan ancha bamaylixotir ishlaydi. Agar maqsad amalga oshgan bo‘lsa-yu natura hali qimirlamay turgan bo‘lsa, u holda xomakilikdan chizgi (lavha)ga o‘tish mumkin. Bunda hatto qog‘oz chetiga qo‘shimcha, ba’zi bo‘laklarning batafsilroq chizgilarini ham amalga oshirsa bo‘ladi.

Agar naturaning qo‘zg‘almasligi shartli va tasodif bo‘lsa, ba’zi hollarda u vaqtinchalik bo‘lsa, ya’ni natura istalgan paytda, rasm chizuvchi uchun noma’lum bir soniyada o‘z holatini, yuz qiyofasini, imo-ishorasini o‘zgartirib qolsa va hatto nuqtayi nazardan umuman yo‘qolib qolsa, u holda naturadan xomaki rasm chizishda ish xarakteri jiddiy tarzda o‘zgaradi. Bunday holat tasodifda tirik modelning (saylgoh o‘rindig‘ida o‘tirgan yoki o‘rnidan turib ketsa va hokazo) xomaki rasmini chizayotganda sodir bo‘lishi mumkin.

## Qalamtasvir tasviriy san'atning asosi sifatida

Qalamtasvir tasviriy san'atning barcha turlari asosi hisoblanadi. Rassom, hunarmand, haykaltarosh, dizayner hamda san'atga aloqador kasb egalarining barchasi ijodiy asar yaratishida qalamtasvir, qoramalar va eskizlarga asoslanadi. Misol uchun rassom, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda qoralama va eskizlardan boshlaydi. San'at asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan qalamchizgilar rassomga asosiy manbaalar bo'lib xizmat qiladi<sup>1</sup>.

Rassom ijodiy asar yaratishni qalamdan boshlaydi. Keyingi bosqichlarda ushbu san'at asari ranglar jilosi orqali tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi yoki qalamning o'zida tugallaydi. Boshqacha aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi a'zolarini shakllantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir. Asosi qalam bo'lgan sangina, pastel, sous bilan bajarilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan va mutaxassislar tomonidan yuqori baho berilgan.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinching «Rangtasvir qonunlari» nomli asarida jumladan shunday degan edi: «*Yoshlar o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir*».

Qalamtasvir mashg'ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Qalamtasvir darslari talabalarga I–IV kurslarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar bo'lajak mutaxassislarga ularning keyingi pedagogik, ijodiy va ilmiy faoliyatlarida muhimdir.

Borliqni realistik tasvirlash talabalarga nafaqat amaliy bilimlarni beribgina qolmay, balki ularning umumiy dunyoqarashlarini o'sti-

---

<sup>1</sup> P.Tomas, A.Taylor Drawing London-2011, 3-bet

rishda katta ahamiyatga ega. Realistik tasvirlash san'ati, shuningdek yoshlarda borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratlarini rivojlantiradi.

Rasm chizishni o'rganish talabalarga atrofda jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini ham o'stirishda katta ahamiyatga ega. Rasm chizish asoslarini o'rganish, narsaning o'ziga qarab bosqichma-bosqich tarzda tasvirlash asosiga qurilgan. Tabiatga muhabbat va kuzatuvchanlik, buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar har bir tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan talabalarga xos bo'lmog'i kerak.

Tasviriy san'at o'qituvchisining yetuk malakaga ega bo'lishida nafaqat amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi, balki tasvirlash san'ati sohasida nazariy tayyorgarligining puxtaligiga ham bog'liq. Chunki amaliyot nazariyadan kelib chiqadi va ular bir biri bilan uzviy bog'lanadi.

Pedagog-rassom kadrlarni tayyorlashda, buyuk rassom va tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

Qalamtasvir mashg'ulotlari Tasviriy san'at mutaxassisligi o'quv fanlarining asosi sifatida talabalarga quyidagi asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

1. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.
2. Buyumlarning o'zaro nisbatlari.
3. Tasviriy san'atda perspektiva qonunlari.
4. Tasviriy san'atda kompozitsiya asoslari.
5. Shakllarda yorug' va soya qonuniyatlari.
6. Tasvirni metodik ketma-ketlikda «analiz» va «sintez» qilib to'g'ri bajarish.

Bilim, ko'nikma va malakalar talabalarining oliy o'quv yurtida ta'lim va tarbiyaning barcha bosqichlari davomida bilim olish vaqtida o'quv mashqlarini bajarish orqali rivojlanadi va takomillashib boradi. Mazkur malakalar bo'lajak rassom-o'qituvchining oliygohni tugatgandan so'ng, pedagogik jarayonda va ijodiy ishlarida ham muhimdir.


## Qalamtasvirda tasvir ishlash qonun-qoidalari

**Perspektiva qonuni.** Yosh rassomlarni narsani o‘ziga qarab, xotira va tasvvurdan rasm chizishga o‘rgatishda realistik tasviriy san‘at qonun-qoidalarini nazariy asoslarini bilishlari katta ahamiyatga ega. Buyum tekisligida jismni haqqoniy tasvirlash uchun, uning bizga ko‘rinib turgan qismi, undagi xos bo‘lgan quyidagi barcha xarakterli jihatlari va xususiyatlarini tasavvur etish lozim:

1. Konstruksiya jihatdan tuzilishi
2. Nisbati.
3. Hajmi.
4. Qanday materialga ega ekanligi.
5. Fazoda joylashuvi.

Bizni o‘rab turgan atrofimizdagi barcha buyumlar tasviriy san‘atning asosiy qonunlaridan biri bo‘lgan perspektiv qisqarishga ega. Tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyumning qaysi tomonidan tasvirlanishidan qat‘iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to‘g‘ri yoki chekkadan), chizuvchiga perspektiv o‘zgarib ko‘rinadi (*22-rasm*).

Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlarini chizuvchiga perspektiv o‘zgarib ko‘rinishini kuzatamiz. Masalan, temiryo‘llar, simyog‘ochlar va kenglikdagi boshqa shakllarning bizdan uzoqlashgan sari kichrayib, bir nuqtada tutashishini ko‘rishimiz mumkin. Hayotda, garchi, bu o‘zaro parallel bo‘lgan relslar hech qachon uchrashmasada, perspektiva qonuniga binoan, ular bizdan uzoqlashgan sari, bu holatni ko‘ramiz.



22-rasm

Bu perspektiva qonuniga asosan sodir bo‘ladi (**23-rasm**).


## Frontal perspektiva yoki tasvirning to‘g‘ridan ko‘rinish perspektivasi.

Ushbu perspektiva parallel narsalarning to‘g‘risidan (Frontal tomoni) tasvirlashda qo‘llaniladi. Natyura tasvirni qog‘ozga joylashtirilganda gorizont chizg‘i qog‘ozning markazidan pastroq yoki balandroqda ekanligi bilan xarakterlanadi. Rasm chizganda frontal perspektivani tasvirlashda ko‘rsatish muammosini hal qilish uchun uning nazariy qonuniyatlarini bilish va havo perspektivasi bilan bog‘liq holda tasvirlash zarurdir<sup>1</sup>.

Qog‘oz markazida joylashgan to‘g‘ridan ko‘rinishning chiziqli perspektivasi tasvirida uzoqlik aks etilgan, ammo tugallangan rasmda uning qisqarib ko‘rinishi ko‘proq aks etganligini ko‘rishimiz mumkin<sup>2</sup>.

Izometrik perspektivaning frontal perspektivadan farqi, u  $120^{\circ}$  o‘qlar atrofida quriladi. Bazi qurish tahlillarida ushbu perspektiva afzal hisoblanib, uni “haqiqiy” ma’nosida ishlatadi. Bu arxitektura interierlarida xarakterli ekanini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda kamyuter dasturlari ilmida keng foydalanilmoqda<sup>3</sup>.

Sanoat injinerligida va mexanika diagrammalarida izometrik tasvirlashning qismlari<sup>4</sup>.



23-rasm

<sup>1</sup> P.Tomas, A.Taylor Drawing London-2011 291-bet

<sup>2</sup> P.Tomas, A.Taylor Drawing London-2011 291-bet

<sup>3</sup> P.Tomas, A.Taylor Drawing London-2011 291-bet

<sup>4</sup> P.Tomas, A.Taylor Drawing London-2011 291-bet

Ko‘chaning o‘rtasidan keta turib, derazalar, yo‘l chetidagi daraxtlarga qararak, ular xuddi qisqarib borayotgandek. Aslida esa, ularning o‘lchami o‘zgaraydi. Uzoq masofalarda juda katta hajmdagi jismlar ham kichrayib, noaniq belgilar, chiziqlar va bo‘laklar shaklida ko‘rinadi. Jismlarning bunday o‘zgarishi ma‘lum qonunlarga bo‘ysunadi. Ushbu qonunlar insonning ko‘rish qobiliyatiga, jismlarning masofa o‘zgarishi, qisqarishi natijasida vujudga keladi. Bularni tasviriy san‘atda *perspektiva qonuni* deb ataladi. Bizning jism haqidagi tasavvurlarimiz, o‘sha jismlarni kuzatayotgan paytimizdagi shart-sharoitlar (masofa, hajm, havo o‘zgarishi, yil fasli va boshq.) asosida o‘zgaradi. Jismlar shaklining ko‘z o‘ngimizda o‘zgarishi – perspektiva qonunlariga bo‘ysunadi. Olisdagi jismlar shaklining perspektiv qisqarishi qadimdan ma‘lum bo‘lib, Uyg‘onish davridayoq, buyuk tasviriy san‘at namoyandalaridan Leonardo da Vinchi o‘zining «Surat haqida uch kitob» asarida chiziqli hamda fazoviy perspektiva qonunlari to‘g‘risida fikr bildirib o‘tgan edi. Ushbu qonunning nazariy jihatdan rivojlanishi nemis rassomi va nazariyotchisi Albrext Dyurer nomi bilan ham bog‘liq.

Masofa, jism, masshtabining o‘zgarishi, jismning ko‘zdan uzoqlashishi bilan faqatgina uning kengligi va balandligi emas, balki chuqurligi ham o‘zgaradi. Shuningdek, jism balandligi va hajmi ham kenglikning o‘zgarishi natijasida kichrayadi. Shuning uchun olisdagi jism hajmi yaqindagi jism hajmiga nisbatan noaniq bo‘lib ko‘rinadi. Ko‘zdan juda ham olislashib ketganida jismlar umuman kichrayib ufq chizig‘ida bir chiziq holda tekis bo‘lib ko‘rinadi. Jismlar kichrayishi bilan ular o‘rtasidagi masofa ham kamayadi. Uzoqdagi narsalar xuddi yaqinlashib qolgandek va ularni ajratib turgan bo‘shliq – masofa g‘oyib bo‘lgandek tuyuladi. Jismlar va ko‘z o‘rtasidagi masofa yanada ortganida, jismlar bir-birlari bilan bir nuqtaga birlashib ketadi.

*Ufq chizig‘i* deb, ko‘zimiz balandligida o‘tadigan nurga aytiladi. Buni aniqlash uchun qog‘ozni olib, uni gorizontol holatda ko‘zimiz darajasigacha ko‘tarib ufq chizig‘ini aniqlashimiz mumkin. Buyum chizuvchiga uch holatda ko‘rinishi mumkin:

- ufq chizig‘idan yuqorida;
- ufq chizig‘idan pastda;
- ko‘zimiz nuri balandligida (ufq chizig‘i balandligi darajasida).

Shuni yodda saqlash kerakki, insonning bo‘yiga nisbatan tasvirlanayotgan buyum yuzasi ko‘p yoki kamroq ko‘rinishi mumkin, buni ish jarayonida chuqur kuzatish va tahlil qilish orqali anglab tasvirlash zarurdir).

Tabiatdagi barcha shakllarning rasmini chizishda, ularning ufq chizig‘iga nisbatan joylashuvini aniqlash muhimdir. Ufq chizig‘i kuzatuvchi ko‘zi darajasida joylashadi, shuning uchun rassomning holati o‘zgargach, ufq chizig‘ining joylashuvi ham o‘zgaradi (tik turib, o‘tirib va h.k.). Jism ufq chizig‘i hisobga olingan holda tasvirlanganda, jismning ko‘rinadigan qismi o‘zgarib turadi: ufq chizig‘idan yuqorida joylashgan jismlar kuzatilganda, ularning pastki qismi, gorizontdan pastda joylashganlarining esa yuqori qismi ko‘rinadi.

Hajmdor jismlarni qog‘ozda to‘g‘ri tasvirlash uchun, avvalambor, geometrik shakllarning perspektiv tuzilishini o‘rganib chiqish lozim. Bunda asosiy geometrik shakllar – kub, silindr, shar, prizma va boshqa shakllar asos bo‘lib xizmat qilgan holda eng oddiy shakllar hisoblanadi. Eng murakkab jismlarning konstruksiyasi ham oddiy jismlarning tuzilishidan vujudga keladi. Sodda shakllar misolida jismlarning perspektiv tuzilishi qonunini osonlik bilan o‘zlashtirish mumkin. Oddiy geometrik shakllarni perspektiv qoida asosida chizishni to‘liq o‘zlashtirish, tabiatdagi har qanday jismni hech qanday qiyinchiliklarsiz chizish imkonini beradi. Ufq chizig‘i har doim ko‘zimiz nuri balandligidan o‘tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak, u biz bilan ko‘tariladi, pastga tushsak, ufq chizig‘i ham pastda kuzatiladi. Uch o‘lchamli jismni qog‘ozda tasvirlash tamoyillarini egallash uchun, turli jismlarni bir necha bor ufq chizig‘iga nisbatan har xil joylashtirib, shuningdek, rassomga nisbatan rasmlarni turli burchaklarda burib chizish muhim.

**Aylananing perspektiv ko‘rinishi.** Silindrni turli holatlarda to‘g‘ri ifodalash uchun, aylanani perspektiva qoidalari asosida tasvir-

lashni o'rganish kerak. Modelning old qismi holatini saqlagan holda, doirani gorizental diametri bo'ylab aylantiramiz. Ushbu holatda doiraning ko'rinib turuvchi qismlari ketma-ket o'zgaradi: *asl holati*, *o'rtta ellips* va *to'g'ri chiziq* ko'rinishida bo'ladi. Gorizental holatlardagi aylanalar tasvirlovchining ufq tekisligining holatiga qarab ellips shaklida ko'rinadi. Ufq chizig'iga yaqinlashgani sari, ellipsning kichik o'qi qisqaradi (shakl bir yuza bo'lib ko'rinadi) va ufq chizig'i bilan mos keluvchi doira yuzi (kvadrat kabi) to'g'ri gorizental chiziq ko'rinishida tasvirlanadi. Aylana ufq chizig'idan yuqorida yoki pastda joylashishiga qarab, ellips aylana shakliga o'tib boradi. Agar biron-bir aylana ufq chizig'idan yuqorida joylashsa, u holda uning pastki qismi, gorizontdan pastda joylashganida esa uning yuqori qismi ko'rinadi. Bunda doimo shuni yodda tutish kerakki, ellips qanchalik ingichka bo'lmasin, u katta o'qning ikki uchida sinmaydi, shuning uchun aylananing perspektiv tasvirini yaratish jarayonida turli radiusli yoylardan foydalanish yaxshi natija bermaydi. Bu amaliyotda isbotlangan va ushbu qoidaga rioya etilmasa, aylananing perspektivadagi to'g'ri tasviri hosil bo'lmaydi.

Rassom ellipsning kichik o'qiga e'tibor qaratganida, uning olisdagi radiusi yaqindagi radiusga nisbatan qisqaroq ekanligini payqaymiz. Naturadan rasm chizilganida, doimo ushbu holatni yodda tutish kerak. Bunda kichik o'qning rassomga yaqin turgan tarafi uzoqdagisi bilan taqqoslanishi va rasm tuzilishi e'tiborga olinishi lozim.

Yosh rassom aylana va ellipsni qiyinchiliklarsiz chiza olishi kerak. Bir-biriga perpendikular bo'lgan ikki chiziq – simmetriya o'qlari chiziladi. Ularning uchlaridan egrilik darajasi yuqori bo'lmagan yoylar chiziladi, keyin esa, yoy natijasida hosil bo'lgan burchaklarga to'g'ri chiziqlar tortiladi. Hosil bo'lgan burchaklar to'g'ri chiziqlar o'tkazish yo'li bilan yo'qotiladi. Natijada, doira hosil bo'ladi. Bu yerda egrilik darajasi butun aylana bo'yicha bir xil bo'lishi lozim. Ellipsni chizishda ham xuddi shu usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tasviriy san'at asoslari to'g'risida gap borganda, undagi bir qator qonun-qoidalarga murojaat qilishni taqozo etadi. Ular quyidagilardan iborat:

*Surat tekisligi* deb tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi. Fiziologik nuqtayi nazardan qaralganda, yorug'lik chizilayotgan buyumga tushib, rassomga u yoki bu qismining shakli ko'rinadi. Shundan keyingina, rassom uni idrok etib tasvirlashga o'tadi. *Surat tekisligi* – rassom bilan natura o'rtasidagi vosita bo'lib xizmat qiladi. *Buyum tekisligi* deb, tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi. Buyum tekisligi vazifasida stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama bo'lishi mumkin. *Ko'rish maydoni va ko'rish burchagi*, bu – chizuvchining tasvirlanayotgan buyumni ko'rish vaqtida qamrab olishdir. Rassom tasvirlanayotgan obyektдан qanchalik uzoqlashib borgan sari, uning ko'rish maydoni ham shunchalik kengayib boradi, bu esa, tasvirlanayotgan obyektning barcha qismlarini aniq ko'rish va tasvirlashga imkon yaratadi. Tasvirlanajak buyum (obyekt) dan juda katta masofada turib, undagi hamma bo'lak va qismlarni yaqqol tasvirlash mushkul. Aksincha, tasvirlanayotgan obyektga juda yaqin turib ham, undagi hamma qismlarni ko'z bilan ilg'ab olish qiyin. Shuning uchun har qanday tasvirni bajarayotganda chamalash orqali masofani to'g'ri tanlay olish, ko'rish maydonini to'g'ri belgilash rassomdan mahorat talab etadi. Ko'p hollarda rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligini uch hissa ko'paytirilganiga teng masofadaturibtasvirlashadi. Masalan, rassom insonqomatini to'laqonli tasvirlash uchun naturadan taxminan 5–5,5 metrlar masofada turishi kerak. Shundagina u tasvirni tolaqonli tasavvur etib vazifani aniq bajarishi mumkin.

*Fazoviy perspektiva* deb, buyumlarning fazo (bo'shliq) ta'sirida o'zgarib (qisqarib) ko'rinishiga aytiladi. Fazo – tiniq muhit bo'lib, uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, havo namligi, atmosfera bosimining o'zgarishi, havodagi chang-to'zonning ta'sirida havo bulutligi va boshqalar.

Shuning uchun tasvirlanayotgan obyektning fazo boʻshligʻida qay darajada chuqur joylashganiga qarab rang, nisbat, tus va undagi alohida boʻlaklarning (yaqqol yoki xira) koʻrinishlariga keskin taʼsir etadi. Fazo perspektivasi obyekt kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligiga (ertalab, kunduzi va kechqurun), yil fasllari (qish, bahor, yoz va kuz) hamda atmosfera oʻzgarishiga (quyosh yoki bulut) qarab ham oʻzgaradi.

Fazoviy perspektivaning bir necha asosiy qoidalari mavjud boʻlib, ular quyidagilardan iborat:

1. Bajarilayotgan tasvir rassomga yaqin boʻlgan buyumlar yaqqol, uzoqdagilar esa umumiy koʻrinadi. Tasvirda fazoni sezdirish uchun yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda tasvirlash kerak.

2. Fazo boʻshligʻi (kengligi)da joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan boʻlsa, shunchalik xira tusda koʻrinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani toʻgʻri koʻrsatish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni ozroq yengil, oldingi qatordagi buyumlarni esayaqqol tasvirlash kerak.

3. Yaqin masofada joylashgan buyumlar fazoda yaqqol hajmli boʻlib koʻrinadi, uzoqdagilari esa, xiraroq koʻrinadi. Tasvirlashda ham ushbu tartibga rioya qilish zarur.

4. Chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar, atmosfera bosimi taʼsirida siyohrang, havorang va och tusda koʻrinadi. Fazoviy perspektivani yanada kuchliroq koʻrsatish uchun yaqin masofadagi yaqqol koʻrinib turgan buyumlarni aniqroq chizgilar bilan uzoqdagilarni esa ochroq tusda tasvirlash mumkin.

5. Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy oʻz tusi (rangi) da, uzoqdagilari bir xil boʻlib koʻrinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomdan oldingi masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda xiraroq qilib tasvirlashni talab etadi.

Fazoviy perspektivaning ushbu qonun-qoidalariga rioya qilish oʻquvchi uchun muhimdir. Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan qoidalar oʻquvchining qanday vazifa bajarishidan qatʼiy nazar (portret, natyurmort, manzara va h.k.) kuzatiladi.

**Chizikli konstruktiv tuzilish.** Tasvirlash uchun buyum qanday sodda yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, u konstruktiv tuzilishga ega.

*Konstruksiya* so'zi – tuzilish (qurilish) ma'nosini anglatib, rassom buyumni tasvirlashda, ushbu qonunga amal qilishi shart. Buyumni haqqoniy qilib tasvirlash uchun uning tuzilishini chizikli konstruktiv tuzilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Chizikli konstruktiv ko'rish har qanday vazifani tasvirlashda amalga oshiriladi. Uy jihozlari metodik izchillikda tasvirlashda, chizikli konstruktiv usulni amalda qo'llab, naturani qanday yaxlitlikda bajarilishini ko'rishimiz mumkin. Buyumning konstruktiv tuzilishini uning asosiy qismlaridan va yordamchi chiziqlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Chizikli konstruktiv tuzilish orqali buyumni to'g'ri tasvirlashda perspektiv qonun-qoidalarga to'liq amal qilishni taqozo etadi. Buyumlar o'z hajmiga ega bo'lishdan tashqari nisbatlarda ham, balandligi va eniga egadir. Bu esa *buyumlarning nisbati* deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil etilgan qo'yilma o'z nisbatlaridan tashqari, o'zaro katta-kichikligiga qarab nisbatlari mavjud. Realistik tasvirlashda buyumlar nisbatini to'g'ri aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buyum nisbatlarini to'g'ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amalga oshiriladi. Masalan, gips shakllardan tashkil etilgan natyurmort qo'yilmasini olaylik.

Qo'yilma balandligini eniga nisbatan kattaligini aniqlash uchun qo'lga qalamni ushlab uzatgan holda uning kichik tomoni – enining o'lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab balandligiga qo'yib taqqoslaymiz. So'ngra ushbu topilgan nisbatni qog'ozda belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil etilgan natyurmort yoki boshqalarni o'zining hamda o'zaro nisbatlarini to'g'ri tasvirlash mumkin.

**Hajmlar.** Har bir buyum o'zining hajmiga ega. Uning hajmi qirralari, balandligi, bo'yi va enining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyuming hajmi to'g'ri to'rtburchaklardan iborat bo'lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir. Egri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, silindir va boshqalar) tekis yuzalilarga nisbatan ancha hajmdor hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan shakllar kontur chiziqlar vositasida amalga oshiriladi. Kontur chizig'ining buyum


shaklini namoyon etishda ahamiyati benihoyat katta. Buyumning tuzilishi, harakati, nisbatlari, uning qanday materialdan tuzilganligini va boshqalarni tasviriy ifodalashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi. Buyumning shakllari to‘g‘ri to‘rtburchaklardan iborat bo‘lsa (kub, piramida, prizma va boshq.), uning hajmlarini bajarish to‘g‘ri chiziqlar vositasida amalga oshiriladi.

Buyumlarni tasvirlashda yorug‘ va soyalar katta ahamiyatga ega naturaga qo‘yilgan buyumlarga yorug‘lik tik tushsa, ularning tasviri shunchalik yaqqol ko‘rinadi. Aksincha chetdan tushayotgan yorug‘lik buyumga umumiy tarzda tushib bajarilayotgan tasvirni xiraroq bo‘lishiga olib keladi. Yorug‘lik bir buyumdan urilib (sinib) ikkinchisi va uchinchisiga tushishi mumkin. Bu hol tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug‘ va soyalar majmuasini tashkil etadi.

### **Turli shakldagi ikki-uch geometrik sirtlardan tuzilgan natyurmortni tasvirlash**

Bazi sodda geometrik shakllarga prizmalar, slindirlar, kublar, sharlar va konus kabi shakllar kiradi. Ko‘plab murakkab qurilmalar ushbu sodda buyumlardan tashkil topgan. Ularning tasvirini ustalar tomonidan tahlil qilinib, qoidalar asosida chiziladi. Ushbu bitta sodda element tushunilgandan so‘ng bir necha ko‘plab elementlar tasvirlari bajariladi. Bu jarayon konstruksiya deb ataladi va keyinchalik natyurmort yoki boshqa vazifalarni muvaffaqiyatli tasvirlashda amaliy ko‘nikma bo‘lib xizmat qiladi<sup>1</sup>.


Gips geometrik shakllarning qalamtasvirini bajarish tasvirlashning eng sodda ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Buning uchun o‘quv dasturlarida belgilangandek gips geometrik shakllarni tasvirlash muhimdir. Bu shuning uchun zarurki, bizni o‘rab turgan predmetlar dunyosining barchasi geometrik



24-rasm

<sup>1</sup> 6.P.Tomas, A. Taylor Drawing London-2011. 271-bet

shakllarga ega (shar, kub, prizma, konus, silindr va hokazolar) (24-rasm). Shakllar tarkibining gipsdan bo'lishining asosiy sababi, ular aksariyat hollarda sun'iy yoritgichlar bilan yoritilib, o'quvmashq maqsadlarida qo'yiladi. Yorug' soya majmuasi (yorug', soya, yarimsoya, refleks, shaxsiy va tushuvchi soya, yaltiroqlik) oq buyumlarda yaqqol ko'rinadi (26-rasm).



25-rasm


etishi, undagi qismlar, burun – prizma ko'rinishida, ko'z – shar shakliga yaqinligi fikrimizning isbotidir.

Yuqorida keltirilgan barcha malakalar bilan bir qatorda, geometrik shakllar qalamtasvirini bajarish mashqlari asosida talaba buyumlarning kenglikdagi fazoviy holati, yorug' – soya munosabati va o'zaro nisbatlari kabilar haqida to'la ma'lumotga ega bo'ladi.

Gips geometrik shakllar rasmini chizish bilan parallel ravishda talaba ushbu shakllar nuxsasini simdan yasab olishi va buyum tekisligiga turli holatlarda

qo'yib, uning joylashini, konstruktiv tuzilishi, perspektiv qisqarishi, shakllning ko'rinar va ko'rinmas tomonlarini yaqqol tasavvur etishi

Bundan tashqari, oddiy qora qalam vositasida shakllarning tus munosabatlarni yechish orqali talabani tartib bilan ish yuritishga o'rgatadi. Eng muhimi dasturda ko'rsatilgan murakkab vazifalarni (me'morlik bo'lagi, gips naqsh elementi, inson portreti va gvdasi) oddiy geometrik shakllar, tekisliklar bilan tasvirlash uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Misol qilib inson boshini shar yoki sferik ko'rinish kasb




26-rasm

hamda o'zining bilimlarini yanada chuqurlashtirishi mumkin (25-rasm). Ayniqsa, bu guruh geometrik shakllarni tasvirlashda ushbu usul talabaga yengilik tug'diradi. Chunki, har bir shakl ikkinchi bir shaklni to'sib turganda, ularning joylashgan yeri, birlashgan joylari (burchaklari), o'zaro nisbatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Shunisi muhimki, auditoriyada ishlangan mashqlar bilan bir qatorda uyda ushbu geometrik shakllar namunasini vatman qog'ozidan yasab olib, ularni alohida va ikki, uch, to'rt buyum ishtirokida har xil rakursda turli kompozitsiyalar tuzib tasvirlash muhimdir. Shakllarni turli holatlarda qo'yish va yoritish orqali chizuvchining fazoviy hamda hajm borasidagi bilim va tasavvurlari rivojlanadi.

Quyida ufq chizig'idan pastroq joylashgan va yuqori old tomondan yoritilgan kubning 5 ta metodik bosqichlarda bajarilgan namunasini ko'rib chiqamiz (27-rasm).


**1-bosqich.** Talaba avvalo natyurani diqqat bilan uzoq vaqt kuzatishi zarurdir. Kuzatish shunchaki qarash bo'lishi kerak emas, balki kuzatish orqali natyurani chuqur ilmiy nazariy va amaliy tomondan (Jismlarning joylashishi, shakllari, bo'yining eniga nisbati, bir jismning ikkinchi jismga nisbati, soya-yorug' munosabatlari va jismlardagini tuslar nisbati) tahlil qilish lozim bo'ladi. Shaklning eng chekka tomonlari asosida uni qog'oz sirtida ko'rinar va ko'rinmas qirlarini tasavvur etgan holda joylashtirish hamda tomonlarining nisbatlari, balandligi, harakat holatiga qarab perspektiv ko'rinishining dastlabki belgilarini aniqlash.



27-rasm

**2-bosqich.** Shaklning konstruktiv tuzilishini yengil chiziqlar bilan tasvirlab, tutash nuqta orqali yon tomonlarining perspektiv qisqarishini ufq chizig'iga binoan aniqlash.

**3-bosqich.** Kub tomonlari nisbatlari va perspektiv ko'rinishlarini quyuqroq chiziqlar bilan aniqlash, uning buyum tekisligidagi tushuvchi soyasini belgilash.



28-rasm

tomonlari tus nisbatlarini aniqlab, refleks, yaltiroq qismlarini topib vazifani bir butun yaxlitlikka keltirish.


Quyida silindr, shar shakllarini tasvirlash ham kub shaklini tasvirlash bosqichlari asosida olib boriladi (28-rasm). Bunda ularning o'zaro munosabatlar, tasvirlashda yordamchi chiziqlar o'tkazib ish yuritish metodi, perspektiva qonunlariga asoslanish kabilarni ko'rishimiz mumkin.

Geometrik shakllarni tasvirlashda ularni oddiydan boshlash kerak, so'ngra sekin-asta murakkabroqlariga o'tiladi.


O'tilgan mavzularga qiyoslab talaba uyda mustaqil ko'plab xomaki rasm va qalamchizgilar bajarishi muhim ahamiyatga ega. Chunki auditoriyada bajarilgan har bir vazifa asosida parallel ravishda uyda ishlangan mashqlar talabanning o'qituvchi rahbarligida vazifalarning chiziqli konstruktiv tuzilishi, yorug'-soya munosabatlari, perspektiva qonuni, nisbatlarni to'g'ri belgilash va ayniqsa, tasvirlash malakalarini rivojlantiradi. Buning uchun uydagi turli shakllarga ega bo'lgan quti, kursi, yashik, ko'za, choynak, piyola, stakan va boshqa ko'plab uy jihoz va buyumlari kifoya.

**4-bosqich.** Shakldagi qayta yaxlit soyalar o'rmini belgilab, (shaxsiy, tushuvchi soyalar) buyum uchun qo'yilgan fonni tuslash. Bu jarayonda barcha qismlar parallel tuslanishi zarur. Chunki talaba jismda va fondagi to'q hamda och nisbatlarni adashmasdan, tahlillar bilan ko'rib boradi.


**5-bosqich.** Kub shaklining barcha yorug'-soya munosabatlarini belgilab,



29-rasm




*30-rasm*



*31-rasm*


## Sharning qalamtasviri

Gips geometrik shakllarning qalamtasviri ham oddiydan murakabga qarab amalga oshiriladi. Bunda, o'quv dasturlarida belgilangandek, gips geometrik shakllarni tasvirlash muhim. Bu shuning uchun zarurki, bizni o'rab turgan buyumlarning barchasi geometrik shaklga ega (shar, kub, prizma, konus, silindr va hokazolar). Shakllar tarkibining gipsdan bo'lishining asosiy sababi – ular aksariyat hollarda sun'iy yoritgichlar bilan yoritilib, o'quv-mashq maqsadlarida foydalaniladi. Yorug'-soya majmuasi (yorug', soya, yarim soya, refleks, shaxsiy va tushuvchi soya, yaltiroqlik) oq buyumlarda yaqqol ko'rinadi.



32-rasm

holati, yorug'-soya munosabati va o'zaro nisbatlari kabilar haqida to'la ma'lumotga ega bo'ladi.




33-rasm

Bundan tashqari, oddiy qora qalam vositasida shakllarning tus munosabatlarini topish talabani tartib bilan ishlashga o'rgatadi. Eng muhimi, dasturda ko'rsatilgan murakkab vazifalarni (me'morlik bo'lagi, gips naqsh elementi, inson portreti va gavdasi) bajarishda oddiy geometrik shakllar, tekisliklar zamin bo'lib xizmat qiladi.

Sharning qalamtasvirini bajarish mashqlari asosida talaba sferik sirtlardan tashkil topgan buyumlarning kenglikdagi fazoviy


Sharning rasmini chizish bilan parallel ravishda talaba ushbu shakllar nusxasini simdan yasab olishi va buyum tekisligida turli holatlarda qo'yib ko'rib, uning joylashish, konstruktiv tuzilishi, perspektiv qisqarishi, shaklning ko'rinar va ko'rinmas tomonlarini yaqqol tasavvur etishi hamda o'z bilimini yanada chuqurlashtirishi mumkin (**32-rasm**). Bu usul sharni tasvirlashda talabaga yengillik tug'diradi.

Chunki bir shakl ikkinchi shaklni to‘sib turganda ularning joylashgan yeri, birlashgan joy (burchak)lari, o‘zaro nisbatlari yaqqol ko‘rinadi. Auditoriya mashqlari bilan bir qatorda, uyda ushbu geometrik shakllar namunasini vatman qog‘ozidan yasab olib, ularni alohida va ikki, uch, to‘rt buyum ishtirokida turli kompozitsiyalar tuzib tasvirlash ham muhim. Sharning turli rakurslarda qo‘yish va yoritish orqali chizuvchining fazoviy va hajm borasidagi bilim hamda tasavvurlari rivojlanadi (33-34-rasmlar).



34-rasm


Rasmlardagi sharni tasvirlash 4-bosqichda metodik ketma-ketlikda olib boriladi. Bunda ularning o‘zaro munosabatlarini tasvirlashda yordamchi chiziqlar o‘tkazib, ish yuritish metodiga, perspektiva qonunlariga asoslanish kabilarni ko‘rishimiz mumkin. Geometrik shakllarni tasvirlashda ularni oddiydan boshlash kerak, so‘ngra sekin-asta murakkabroqlariga o‘tiladi.



35-rasm


Shar tuzilishining ahamiyatli, o‘ziga xos tarafi shundaki, uning yuzasidagi barcha nuqtalar bir nuqta – markazdan bir xil o‘lchamda tarqaladi. Bizni o‘rab turgan borliqdagi ko‘plab jismlar masalan,

*mevalar, sabzavotlar sport to‘plari va boshqalar shar yoki sharsimon shaklga ega. Odam boshining tepa qismi, miya qutisi ham sharsimon shaklga ega (35, 36-rasmlar).*



*36-rasm*

Boshning pastki qismi suyaklari esa mukammal shakllaridan tashkil topgan. Bunday shaklning tuzilishini idrok eta olish muhim hamiyatga ega. Sharining faqat bitta yuzasi bor va uning chegarasi mavjud emas; shar aylananing o‘z diametri – aylanish o‘qi bo‘yicha aylanishi natijasida hosil bo‘ladi, shuning uchun unga qaysi nuqtadan qaralmasin uning shakli, konturi va ko‘rinib turuvchi yuzasi o‘zgarmaydi va doimo aylana ko‘rinishida bo‘ladi. Sharining chiziqli tasviri faqatgina aylanani to‘g‘ri chizishdan iborat bolsada, shar shaklining hajmli modelini yorug‘-soya asosida tasvirlash eng qiyin vazifalardan biridir (37-rasm).




*37-rasm*

Shar chizishda yorug‘ va soya yordamida jismning hajmi qay darajada tasvirlash imkoniyati borligini bilish kerak. Rasmdagi yorug‘ joylar – yorug‘lik ko‘proq tushgan joylarni, to‘q joylari esa uning eng keng joyi – ekvatorida bo‘ladi. Ularning oralig‘ida esa, ya’ni yorug‘lik o‘tkir burchak ostida tushgan joylarda yarimsoya hosil bo‘ladi.

Bunda yorug‘lik ma’lum miqdorda qaytadi va soya hosil bo‘ladi. Ushbu soya jism yuzasining soyadagi qismi shaklini xarakterlaydi. Shuningdek, *tushuvchi soya* degan tushuncha ham mavjud. Shar shaklini yorug‘lik va soya munosabatlari asosida tasvirlash jarayonida yorug‘lik qayerdan va qanday tushayotganligini, jism yuzasining qaysi qismi yorug‘lik manbayiga eng yaqin joylashganini, o‘sha yuzani qay darajada yoritishini, yorug‘likning tugashi va soyaning boshlanish joylarini hamda soya hosil bo‘lish sabablarini tasavvur etish kerak. Shar shaklini yorug‘ soya vositasida amalga oshirish ham geometrik shakllar, masalan kub, trapetsiya shakllari asosida olib borilganda uning hajmliligini ko‘rsatish ancha yengillashadi.




38-rasm



39-rasm


Yorug‘ va soya munosabatlarining turlicha bo‘lishiga sabab shundaki, yorug‘lik eng yaqin yuzadan uzoqlashgani sari kamayadi va asta-sekin yorug‘likdan soyaga o‘tib boradi. Shu sababli ham shardagi yorug‘lik-soya munosabatlari murakkab va tasvirlash ham ancha mushkul. Shar shaklini chizishda ayniqsa shar yuzasiga yorug‘lik tushayotgan bo‘lsa, uning chegaralarini va orqa fonni tasvirlash murakkab ishdir. Bunday holatda shar yuzasining chegarasi ko‘rinmaydi va kontur ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi (**39-rasm**). Rasm chizishni boshlash uchun dastlab qog‘ozda uni kompozitsiya jihatdan qurib olinadi. Shuningdek, rasm chizish jarayonida metodik ketma-ketlikka rioya qilish kerak (*41-rasm*). Avval shaklni yengil soya tasviri bilan, so‘ngra esa butun shakl bo‘yicha aniq yorug‘ va soya

munosabatlarini to'g'ri taqsimlash orqali (yorug'lik tushuvchi yuzalarni taqqoslab) chizish lozim.



40-rasm

Ish davomida sharning yorug'lik tushmaydigan, ya'ni soya qismiga to'g'ri ishlov berilganda tasvir relyefi yanada to'qroq tusda bo'lishi mumkinligini yodda tutish kerak; bunda yorug'likning qaytish darajasi soyadan yorqinroq, ammo yorug'lik tushuvchi yuzadan to'qroq bo'lishi kerak. Sharga yorug'likning qaysi nuqtadan tushishiga qarab, u to'sib turgan yerlarida tushuvchi soyalar hosil bo'ladi. Mavzuni mustahkamlash uchun, kub va shar ishtirokida tuzilgan qo'yilmaning qalamtasvirini bajarish maqsadga muvofiq. Bunda orqa fonga uncha katta e'tibor berilmaydi.




41-rasm

### **Murakkab bo'lmagan shakldagi gips naqshli rozetkaning qalamtasviri**

Gips naqsh rozetkasini tasvirlashdan asosiy maqsad talabalarni yuqori kurslarda murakkab elementli obyektlarning shakllari va bo'rtma naqshlarini tasvirlay olishga o'rgatishning poydevori hisoblanadi. Qo'yilgan vazifani amalga oshirishda relyefli ornamentni bajarish

maqsadga muvofiq (42-rasm). Rozetkaning konstruktiv qurilishi va uni soya-yorug' tusini belgilash o'quvchilardan diqqat-e'tiborni talab etadi. Rozetka chizuvchilarga nisbatan ko'z balandligida och-kulrang fonda joylashtiriladi. Talaba rozetkani yon tomondan kuzatib, ayrim perspektiv qisqarishlarning tasvirini bajarishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Naqsh rozetkasining umumiy shaklini bajarish jarayonida uning asosiy nisbatlari bo'yining uzunligiga hamda eni va chuqurligiga nisbatan to'g'ri belgilab olinishi muhim. Ustki qism shaklini tasvirlashda o'quvchilar shakllarning bir xil emasligini ko'radi. Bu ularni yanada har bir bo'lakni diqqat e'tibor bilan tahlil etishga yo'naltiradi.

Haqqoniy tasvirlashning asosiy qonunlaridan biri geometrik yoki islimiy naqshni tahlil etib, uning xarakterli bo'laklari aniqlanib, bosqichma-bosqich tasvirlanadi.



42-rasm

Qog'oz yuzasida juda yengil chiziqlar bilan rozetka tomonlarining nisbatiga qarab qog'oz *tik* yoki *yotiq* holda qo'yiladi. Naqsh namunasining vertikal tekislikka nisbatan og'maligi, tomonlardan birining ikkinchisiga nisbati, perspektiv qisqarish va ufq chizig'ining qanday holda turishi chiziqli konstruktiv usulda bajariladi. Qurish bosqichini "Panjara" geometrik naqshli rozetka misolida ko'rib chiqamiz. Avvalo tasvirlangan ikki qismli *zanjir* elementi aniqlanadi. Buning uchun zanjiraning gips taxtasidagi eng yuqori va pastki qismi

hamda chekka nuqtalari belgilanadi. Ma'lumki, ushbu rozetkaning tomonlari, burchak graduslari bir-biriga teng va simmetrik. Shuning uchun uni teng ikkiga bo'lib o'tuvchi nuqtalardan gorizontaal va vertikal to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi, o'tkazilgan vertikal ikki chiziq bir-biriga parallel bo'lsa, gorizontaal chiziq ganch taxtasining yuqori va pastki gorizontaal qirralariga parallel bo'lmagan holda o'z holicha o'tadi. Chunki, bu ikki to'g'ri chiziq talaba qaysi nuqtadan turib tasvirlayotganiga qarab perspektiv qisqarib boradi va ma'lum masofaga borib bir nuqtada uchrashadi (kesishadi). So'ng panjaraning qalinliklari belgilanadi va ular to'g'ri chiziqlar orqali birlashtiriladi. Bu vazifaning 2-bosqichi hisoblanadi.



43-rasm

Keyingi bosqichlarda panjara tomonlarining burchaklari, tekisliklarning bir-biriga nisbatlari topiladi. So'ng rozetka bo'laklaridagi yorug' va soya, yarim soyalar yorug'lik manbayining tushishiga qarab qanday o'zgarishi aniqlanadi. Soya boshlang'ich bosqichda yengil shtrixlar asosida bajariladi. Rozetka bo'laklarining yorug' va soyalarini hech qachon alohida-alohida ishlash yaramaydi. Tasvirlanayotgan har bir bo'lakni bir-biriga taqqoslagan holda barobar olib borish, tugallanganligi jihatdan bir-biriga muvofiq bo'lishi kerak. Ushbu amalning to'g'ri bajarilishi ish jarayonida qilingan hato va kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatishga yordam beradi. Vazifada bosqichma-bosqich ish yuritish, ya'ni rozetkani qog'ozda

to‘g‘ri joylashtirish, har bir bo‘lakni konstruktiv chiziqli qurish va hajmlari ustida ish olib borish orqali biri ikkinchisini to‘ldirib boradi. Gips rozetkaning tasvirini to‘g‘ri bajarishda talabalar *quyidagi qonun va qoidalarga amal qilishlari zarur:*



44-rasm

1. Belgilangan ixtiyoriy qog‘oz sirtida tasvirlanayotgan naturaning chekka qirralarini belgilangan holda kompozitsion to‘g‘ri joylashtirish.


2. Naturadagi shakllarning asosiy tayanch nuqtalarini belgilab, ulardan birining ikkinchisiga bo‘lgan nisbatlarini perspektiv qonun-qoidalar asosida tasvirlash.

3. Shakllarni chiziqli konstruktiv ravishda qurish, naturada qo‘yilgan asosiy bo‘laklarni belgilash.

4. Tasvirlanayotgan shakllarning xarakterli xususiyatlaridagi tushuvchi shaxsiy soyalarni belgilash va alohida bo‘laklarga ishlov berish.

5. Naturadagi barcha buyumlarni tus jihatdan yana bir bor ko‘rib, qo‘yilmadagi shakllarning xarakterini aniqlash va soya, yarim soya, yorug‘, refleks joylarini aniqlash. Buyumni butun yaxlitlikka bo‘ysindirish va vazifaga yakun yasash.

## Matoning qalamtasviri



*45-rasm*

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, kiyimlar burmalardan tashkil topgan. Shuning uchun ham matoni chizish va unga shakl berish, bilish juda muhimdir. Shu maqsadda o‘quv jarayonida drapirovkaning turli ko‘rinishlarini chizish zarur hisoblanadi (*45-48-rasmlar*).

Matoning qalamtasvirini chizish tasviriy san‘atda juda muhim sanaladi. Chunki inson liboslarida, uy jihozlarining ayrimlarida va natyurmortlarning orqa fonlarida matodan foydalaniladi (*46-rasm*). Mato burmalarini tasvirlash murakkab bo‘lib, talabaga uning ortidagi buyumlarni shaklini ko‘rsata olishi ham talab etiladi. Bunda natyurmortdagi buyumlarning ustidagi mato burmalari qiyinchiliklar tug‘diradi. Qalamda bajarilgan mato burmalarining tasvirlarini o‘rganish, keyinchalik rangtasvir vazifalarida mato burmalarini tasvirlashda qo‘l keladi.

Bizgacha yetib kelgan eng qadimgi kiyimlar bu tunika va mantiya hisoblanadi. Ushbu kiyimlarni asosan Qadimgi Gretsiya, Qadimgi Rim va Qadimgi Misrda kiyishgan.



*46-rasm*



47-rasm



48-rasm

### **Mato va burmalar**

Matolar kuchli yorug'likda, shovqin va turli narsalarda foydalanilgan. Burmalar ham turli xil ko'rinishlarda bezaklarda foydalanib kelingan. Chunki yorug'lik va ovoz qaytarishlarda mato burmalari boshqa narsalardan kuchliroq samara bergan. Matoning yorug'lik va ovozga nisbatan qarshiligi kuchli bo'lganligi sababli ham liboslar oralariga mato burmalari foydalanilgan<sup>1</sup> (47-rasm).



49-rasm

---


<sup>1</sup> P.Tomas, A.Taylor Drawing London-2011. 271-bet

## **Uy-ro‘zg‘or buyumlarining konstruktiv qoralamalari (Uy jihozlari, duradgorlik ashyolarini chiziqli perspektiva asosida tasvirlash)**

Natyurmort tasviriy san‘atning o‘ziga xos mustaqil janri. “Natyurmort” – (*nature morte*) fransuzcha so‘z bo‘lib, “jonsiz tabiat” degan ma‘noni anglatadi va unda ko‘pincha mehnat qurollari, sabzavot va mevalar, gullar, parranda hamda mayda hayvonlar tasvirlanadi, ya‘ni natyurmort san‘atda insonning maishiy hayotini aks ettiradi. Natyurmort XVII asrning boshlarida Gollandiyada paydo bo‘ldi. Keyinchalik ko‘plab mamlakatlarga tarqalib, ayniqsa XVIII asrning o‘rtalariga kelib tasviriy san‘atda mustaqil janrga aylandi. Rangtasvir san‘atining tengsiz ustasi – fransiyalik rassom Jan Batist Simeon Shardenning “San‘at atributlari” asarini kuztganimizda, unda oddiy buyumlarning yuksak badiiy tasviri aks etganligining guvohi bo‘lamiz. N. Kashina, Z. Kovalevskaya, Y. Yelizarov, R. Ahmedov, G‘. Abdurahmonov, N. Ten, A. Yunusov, A. Mirzayev va A. Ikromjonov kabi ko‘plab natyurmort janrining ustalari va umidli yosh rassomlar tabiat yaratgan noz-ne‘matlarga bo‘lgan mehrlarini o‘z asarlarida ifodalaganlar. Natyurmort tasviriy san‘atning alohida janri hisoblanadi. Natyurmortda shakli, mazmuniga qarab har bir buyumning tutgan o‘rnini yoritib berish lozim. Tasvirlanayotgan buyumlarning shakli, rangi, tuzilishi, fazoviy holati jihatdan bir-biridan farq qilishiga alohida ahamiyat berish kerak. Natyurmort mustaqil janr bo‘lishi bilan birga, mavzuli suratlardagi asarlarning mazmunini ochishga ko‘maklashuvchi, uni to‘ldiruvchi vosita bo‘lib ham xizmat qiladi. Taniqli rassom N.D.Ten ishlagan “Natyurmort”da meva va issiq nonlarda O‘zbekiston quyoshi nurlari jilvalanib turibdi. Mo‘yqalam sohibi asar mazmunini ustalik bilan yoritib bera olgan. Sarg‘ish-qizil mevalarni qizil, ko‘k, yashiltob kabi turli-tuman ranglar bilan uyg‘unlashtirib tasvirlashi tufayli suratning ta‘sirchan chiqishiga erishgan. Alohida mazmunli natyurmort asari yaratish haqidagi fikr rassom hayolida uzoq vaqt davom etgan kuzatishlar

yoki biror buyumdan ta'sirlanish oqibatida to'satdan paydo bo'lishi ham mumkin. Ijodkor ko'z o'ngida bo'lajak natyurmort yaxlitligicha gavdalanadi.

Unga mos buyumlar tanlab, e'tibor bilan joylashtirish haqida fikr yuritadi, xomaki eskizlar chizadi hamda shu eskizlar asosida kompozitsiya tuzadi. Natyurmortning qo'yilmasini tuzish. ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Bajardigan vazifasini nazarda tutib, natyurmortdagi buyumlar turli holatlarda qo'yiladi. Natyurmortda tasvirlanadigan buyumlarning o'lchamlari turlicha bo'lishi maqsadga muvofiq. Kichikroq buyumlar oldinroqda, yiriklari orqaroqda tasvirlanadi. Natyurmort tuzganda uning foniga ahamiyat




50-rasm

berish kerak. Qo'yilgan natyurmortning umumiy tusini hisobga olib, ochiq ranglardagi natyurmort qo'yilmalari uchun qoramtir fon va. aksincha, to'q ranglardan tuzilgan natyurmort qo'yilmalari uchun oqish fon tanlanadi. Natyurmort ufq chizig'idan pastroqqa joylashtiriladi. Shunda buyumlarning fazoviy holati va buyum tekisligi yaxshi ko'rinadi. Natyurmort to'g'ri qo'yilgandan so'ng u sinchiklab kuzatiladi. Natyurmort kompozitsiyasini qog'ozga to'g'ri joylashtirish maqsadida qog'ozdan yasalgan maxsus asbob (videoiskatel )dan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu asbob orqali topilgan kompozitsiyaning kichik o'lchamdagi to'la xomaki rasmi alohida qog'ozga chizib ko'riladi. Rasm kompozitsiyasi topilgandan so'ng asosiy ish – yangi qog'ozga buyumlar to'plamining tasvirini chizishga o'tiladi. Natyurmort chizganda undagi hamma buyumlarni bir yo'la tasvirlash lozim. Aks holda rasmda bir buyumning o'lchami kattaroq, ikkinchisniki kichikroq bo'lib, rasm kompozitsiyasi buziladi.



51-rasm

Buyumlarning umumiy balandligi va enini qog‘ozda yordamchi chiziqlar bilan belgilab olinadi. Natyurmortning kompozitsiyasi belgilangandan keyin qo‘yilmadagi har bir buyumning o‘lchami, shakli (tuzilishi, rangi va yorug‘-soyasi) aniqlashga o‘tiladi, ya’ni natyurmort chizishda umumiydan xususiyga va xususiydan yana umumiyga o‘tish tamoliga amal qilinadi. Misol uchun, ikki-uch buyumning tasvirini chizishda buyumlarning o‘lchami jihatidan o‘zaro farqi, oraliq‘idagi masofa, soya va yorug‘larning farqi ko‘z bilan chamalab topiladi. Natyurmort ish qog‘ozining o‘rtasiga joylashtiriladi.




52-rasm

Oldin katta – kichikligiga ahamiyat berilib, buyumlar solishtirib ko‘riladi, keyin qalam bosilmagan holda ularning tasviri turgan o‘rni belgilab olinadi. Tasvirning aniq shakli, ya’ni asar ko‘rinishi topilgandan so‘ng yorug‘lik manbayi ham aniqlanadi.

Tasvirning muvozanat holatda turishi undan tushib turgan soyaga ham bog‘liq.

Tushuvchi soya ham buyumlarning fazoviyligi va qanday materialdan ishlanganligini aniqlashga yordam beradi. Qalamda buyumlarning o‘z soyasi, o‘zidan tushib turgan soyasi uning shakllariga qarab qoralama chiziladi. Buyumlarning perspektiv qisqarishlari hisobga olinib, har bir buyumdagi yorug‘ va soya 25 qoidaga rioya qilingan holda tasvirlanadi. Keyin natura bilan fon o‘rtasidagi och – to‘qlikning farqi belgilanadi.



53-rasm

Uy-ro‘zg‘or buyumlari natyurmortini chizish rassom oldiga yangi, yanada **murakkabroq** vazifalarni qo‘yadi. Bunda jismlar turli xil shaklga ega bo‘lishi mumkin. Shu bilan birgalikda ushbu jismlarning istalgan birini geometrik shakllarga o‘xshatishimiz mumkin (**53-rasm**). Naturadan chiziladigan barcha amaliy mashqlarni bajarish jarayonida qo‘llaniladigan qonun-qoidalar ushbu natyurmortni naturadan chizish davomida ham qo‘llaniladi va kerakli bosqichlarda amalga oshiriladi. Uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tashkil etilgan natyurmortning rasmini chizish alohida va bir guruh geometrik shakllar rasmini chizishga nisbatan ancha mushkul. Bu yerda nafaqat jismlarning nisbatlari va tus munosabatini ko‘ra olish, balki shakl jihatdan turli bo‘lgan va rassomga nisbatan har xil joyda joylashgan jismlarning har birining

perspektiv ko‘rinishini aniqlay bilish ham katta ahamiyat kasb etadi. Natyurmortdagi har bir jism boshqalariga bog‘liq bo‘lishi kerak. Shunda qog‘oz yuzasida bir necha tuzilish tarxlari namoyon bo‘ladi Uy-ro‘zg‘or buyumlari natyurmortini chizishda turli materiallardan ishlangan jismlar yuzasidagi yorug‘-soya kuchini solishtirish kerak. Masalan, metall idishning yuzasini tasvirlash chog‘ida uning shakli va fakturasini to‘liqroq tasvirlash uchun boshqacha xarakterdagi shtrixlardan foydalanish lozim (*52-rasm*). Rasmda tus munosabatlarini to‘g‘ri belgilash orqali talaba, jism materialini tasvirlay oladi. Shisha, metall, sopol va yorug‘likni kuchli qaytaradigan buyumlar yuzasiga tushuvchi yorug‘lik o‘zining xususiyatiga ko‘ra juda tez o‘tishi bilan (yuzaning yorug‘likni aks ettirish xususiyati kuchli bo‘lganligi sababli) xarakterlanadi. Bunday o‘tish boshqa materialdan ishlangan jismlarda, masalan, gips, yog‘och va boshqalarda kamroq bo‘ladi. Bunday tasvirlarni ishlashda shtrixlash qoidalariga va tasvir bajarish ketma-ketlikka rioya qilish katta ahamiyatga ega.

Quyida natyurmort chizish jarayonini ko‘rib chiqamiz. Tasvirga qo‘yilgan shakllar hajmining dastlabki tahlili kompozitsiyaviy tuzilishini topish. Natyurmortni turli tomonlardan kuzatib yorug‘-soya munosabatlarini hisobga olgan holda, shakl ko‘rinishining eng ma‘qul joyi tanlanadi.




54-rasm

### 1-bosqich. Tasvirning qog‘ozda kompozitsion joylashuvi.

Ma’lum formatdagi qog‘ozda natyurmort shunday joylashtirilishi kerakki, unda qog‘ozning butun yuzasi naturani tasvirlashda faol ishtirok etsin. Agar tasvirlanayotgan jism (yoki jismlar guruhi) vertikal yo‘nalish bo‘yicha cho‘zilgan bo‘lsa, tabiiyki qog‘ozning uzun tarafini vertikal holatda joylashtirish kerak (54-rasm). Tasvirlanayotgan jismlar o‘lchami to‘g‘ri tanlanishi lozim. tasvir juda kichik yoki juda katta bo‘lmasligi hamda u bir burchakka taqalib qolmasligi kerak. Chizilayotgan rasm qog‘ozning taxminan o‘rtasida joylashtirilishi kerak. Har bir alohida holat uchun qog‘ozning hajmini hamda tasvirlanayotgan jismlar va umumiy tasvir maydonining o‘zaro munosabatini hisobga olgan holda, alohida kompozitsiya tanlashni talab etiladi. O‘quv mashg‘ulotlarida kompozitsiya ko‘rish maydonidagi tasvir asosida tanlanadi, qog‘oz formati aniqlanib (yoki berilgan formatdagi qog‘ozda), unga rasm joylashtiriladi. Tasvir kompozitsiyasini aniqlash (ayniqsa natyurmort chizish jarayonida) – uning joylashuvini, o‘lchamlari va fonini to‘g‘ri belgilashdan iborat. Yaxshi joylashtirilgan tasvirda, umumiy tasvirning butunligi va o‘zaro munosabatini buzmay turib, hech narsani o‘zgartirish yoki olib tashlash mumkin emas.

O‘quv rasmini sifatli ishlash uchun bir necha chizgilarni bajarish tavsiya etiladi. Tasvirni qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirishda kompozitsiyaviy ***tasvir izlash moslamasi*** yordam beradi. Ushbu moslamani yasash uchun karton yoki qalin qog‘ozning o‘rtasidan to‘g‘ri to‘rtburchakli darcha ochiladi va ushbu darcha qog‘oz yuzasiga proporsional bo‘lishi kerak. Moslamani chizilayotgan jismga qaratilgan ko‘z nuriga perpendikular holatda ushlab, uni jismga yaqinlashtiramiz, uzoqlashtiramiz va jism qirralarini moslama tomonlariga to‘g‘rilab jismning aniq joylashuvini




55-rasm

belgilab olamiz. O‘quv rasmini ishlash jarayonida qo‘yiladigan asosiy talab – qog‘ozda jismlar joylashuvini to‘g‘ri belgilashdan va har tomon (o‘ng, chap, yuqori va past tomonlar)dan bir xil bo‘sh joy qoldirishdan iborat. Bunda, shuningdek, jismlarning rangi va ular yasalgan material ham hisobga olinadi. Chunki, ular tasvirda tabiiy chiqishi kerak (**55-rasm**). Shu sababli ham natyurmortdagi eng katta jism hech qachon qog‘ozning o‘rtasiga joylashtirilmaydi, balki chap yoki o‘ng tomonda ifodalanishi lozim. Yaxshi joylashtirilgan tasvir hech qachon siqilib qolganga yoki qog‘ozda bo‘sh joy ortib qolganga o‘xshamaydi. Shuningdek, o‘quv natyurmortida jismlarning nisbatlar qog‘ozda to‘g‘ri belgilanishi kerak.

**2-bosqich. Shaklning konstruktiv tahlili va perspektiv tuzilishi.** Natyurmortdagi jismlar tasvirini ishlash chog‘ida, rassom o‘z joylashgan o‘rniga ko‘ra, ularning shakli, nisbatlari va perspektiv o‘zgarishidan kelib chiqishi kerak. Dastlab jismlarning umumiy ko‘rinishi yengil chizgilar orqali belgilab olinadi, chegara chiziqlari chiziladi va ushbu chiziqalar doirasida barcha jismlar tasvirlanadi. Jismlar joylashgan tekislik yuzasi ko‘rsatiladi. Shundan so‘ng bir-biriga bog‘liq ravishda barcha jismlar alohida belgilab chiqiladi. Har bir jismning o‘lchami, nisbati va joylashgan o‘rni aniqlanadi. Jismlar nisbatini aniqlash chog‘ida, albatta, solishtirish uchun o‘lchov birligini tanlash lozim. Balandlikni solishtirish uchun o‘rta yoki kichik jismning o‘lchamini olish qulay hisoblanadi. Jismlar konturini doimiy tarzda oydinlashtirish orqali jismlarning perspektiv ko‘rinishi sinchiklab kuzatiladi: jismlar bir-birini to‘smasligi va ular o‘zaro kesishmasligi lozim. Jismlar orasidagi masofa va gorizontaal yuzaga nisbatan jismlar asosining joylashuvi aniqlanadi. Buning uchun natyurmortni *yaqin masofadan, yon tarafdan, orqa tarafdan, tepasidan* kuzatish va jismlarning o‘zaro joylashuvini aniqlash kerak. Har bir jismni to‘g‘ri tasvirlash uchun, ularni proyeksiyalash, ya‘ni chizikli konstruktiv yoki shishasimon jism sifatida tasavvur etib chizish kerak. Jismlarning perspektiv ko‘rinishi va shaklining to‘g‘ri ishlanayotganligini kuzatib, uzluksiz ravishda jismlar nisbati aniqlab


boriladi. Bunda avvalo katta qismlarning, soʻngra esa kichikroq – yordamchi qismlarning oʻzaro munosabati oydinlashtiriladi. Talaba tasvirning haqqoniyligini tekshirish uchun molbertdan uzoqlashadi. Bunda oraliq masofa natura va chizilayotgan rasmni toʻliq solishtirish imkonini berishi lozim. Tekshirish davomida natura va rasmga ketma-ket qaraladi va mavjud xatolar oʻsha zahotiy oq tuzatiladi. Shuningdek, agar rassom turgan holda ishlayotgan boʻlsa, u molbertdan bir oz uzoqlashib tasvir va naturadagi jismni solishtirishi mumkin. Rasm chizishning soʻnggi bosqichida xatolarni aniqlab, soʻngra ularni tuzatishga koʻp vaqt sarflagandan koʻra, rasm chizish jarayonining har bir bosqichida uni boshqarib, tekshirib borish tavsiya etiladi.



56-rasm

**3-bosqich. Yorugʻ-soya munosabatlari yordamida jismlarning hajmini tasvirlash (56-rasm).** Jismlarning perspektiv tasvirini ishlash davomida, ularning hajmi, joylashuvi va tushayotgan yorugʻlik darajasini koʻrsata olish muhimdir. Bunga turli tus va qalam bosimidan

foydalanish orqali erishiladi. Naturaning tus munosabati to‘q, o‘rta va yorqin tuslarning rasmdagi o‘zaro munosabatini, ularning tahlilini ko‘zda tutadi. Bir seansli o‘quv rasmlarda tus munosabatlari yoritilgan va soyadagi yuzalarni tasvirlash hamda ushbu yuzalarning chegaralarini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Rasmda avvalo chegaralar, soya va yorug‘lik yengil tuslarda belgilab olinadi (57-rasm). Jismning yoritilmagan yuzasi konturining atrofiga boshqa yuzalarning (devor, mato va boshq.) aksi tushadi va bu joyga jismning o‘z soyasiga nisbatan yorqinroq tus beriladi. Bunda jismlar nisbatlari rasm va naturani yorqin va to‘q tuslar munosabatini solishtirish orqali aniqlanadi. Yorug‘lik va soya yordamida tasvirga tabiiylik bahsh etish mumkin.



57-rasm

**4-bosqich. Rasmni umumiy-lashtirish.** Ushbu bosqichda rasm deyarli tugatilgan bo‘ladi va endilikda rasmni natura bilan solishtirish, keraksiz detallarni olib tashlash, birinchi va ikkinchi darajali qismlarni umumiy lashtirish va ishdan umumiy taassurot olish kerak. Yosh rassom uchun natyurmort chizish katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Naturadan natyurmort chizish realistik rasmdagi jismlar joylashuvini to‘liq ochib berish, e‘tiborni asosan perspektiv tasvirga qaratish hamda chiziqli-konstruktiv rasm chizishning qonun-

qoidalarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Natyurmort ustida ish olib borish talabalarda yangi ijodiy qirralarining namoyon bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi Mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilar uyda turli shakllardan iborat buyumlarni tez konstruktiv qoramalarini tasvirlashi maqsadga muvofiqdir.


## Predmetga tushirilgan yorug‘lik

Yorug‘lik jismlarga tushganda jismlarning shakli paydo bo‘lib, jismlar to‘g‘risida tasavvur hosil qiladi. Jismning soya-yorug‘ qismlarida yorug‘lik har xil farqlanadi<sup>1</sup>.

Bu yerda yorug‘lik fonga nisbatan aniq ko‘rinadi. Nega deganda har bir shakl alohida tusga ega ekanligi ko‘rinib turibdi.<sup>2</sup>

Rangli qog‘ozda ishlanganda, buyumni tasvirlashda ochartiriladi. Yorug‘lik oq mel orqali ko‘rsatiladi<sup>3</sup>.

Boshlangich rasomlar uchun shakli murakkab simmetrik buyumlarning ko‘rinishidan, qog‘ozning chekka burchaklaridan diogonal chiziqlar o‘tkaziladi va dioganallar kesishgan nuqtadan formatga nisbatan parallel va perpendikularlar o‘tqaziladi va qog‘oz markazi aniqlanadi, qolgan qismlar shaklga qarab teng masofalarga ajratgan holda tasvirlanadi<sup>4</sup>.



58-rasm

---

<sup>1</sup> P.Tomas, A.Taylor. Drawing. London-2011.264-bet <sup>2</sup> P.Tomas, A.Taylor. Drawing. London-2011. 264-bet


<sup>2</sup>

<sup>3</sup> P.Tomas, A.Taylor. Drawing. London-2011.263-bet


<sup>4</sup> P.Tomas, A.Taylor. Drawing. London-2011.223-224-bet

## Kapitel va san'at ashyolari bilan tuzilgan natyurmortning qalamtasviri

Geometrik shakllar va gips rozetkalar rasmini chizish mashqlarini o'zlashtirgandan so'ng murakkab elementlarga o'tiladi. Me'mor dizaynerlar tayyorlovchi kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun ushbu vazifa juda muhim hisoblanadi. Chunki, mazkur vazifalar aynan me'morlik elementlarini tasvirlari bilan muhimdir. Tasvirlash uchun "klassik" uslubida ishlangan ustunning *kapiteli* (me'morlik bo'lagi) tanlab olinadi. Ushbu modelni tanlab olinishdan maqsad yoshlarga geometrik shakllar: *kub, shar, silindr* kabilarni bajarish davomida olgan chiziqli konstruktiv qurilish, perspektiva, yorug'-soya va tus, munosabatlari kabi tushunchalar haqidagi bilimlarni mustahkamlashdir. Kapitelning nozik va murakkab konstruksiyasini chizish talabalardan yuksak mahorat talab etadi. Kapitel stol ustiga tik holda qo'yiladi va unga qo'shimcha ravishda olti qirrali prizma, shar ishtirokida kompozitsiya tuziladi (ufq tekisligi tasvirlovchi ufq tekisligidan ancha balandda) (59-rasm).



59-rasm




60-rasm


Qo'yilma yuqori old tomonidan yoritilgan. Vazifani boshlashdan oldin talabalar turli nuqtalardan chizgilar bajarishlari va eng maqbul

joyini tanlab olishlari kerak. Aniq joyini tanlab olingandan so‘ng ishni tasvirlash bosqichlariga to‘la amal qilgan holda olib borishlari shart. Dastlab, kapitel va uning ustuni birlashtirilgan to‘g‘ri to‘rtburchak asosi taxtachasi qog‘oz sirtida kompozitsion to‘g‘ri joylashtirilib olinadi. Shundan so‘ng unga kapitel va uning pastki kesik silindrsimon ustuni chiziqli konstruktiv ravishda quriladi.

Shakl simmetrik bo‘lgani uchun uni tasvirlashda turli yordamchi chiziqlar bilan bir qatorda kapitel asosidan o‘tuvchi va shaklni teng ikkiga bo‘luvchi o‘q chizig‘ini belgilab olinadi. Vazifani metodik izchillikda bajarishda kompozitsiya asoslari, chiziqli konstruktiv tuzilish kabi tasvirlashning asosiy qonunlari, shuningdek, perspektiva qonuniga amal qilish lozim. Bu yerda to‘g‘ri to‘rtburchak, prizma, aylana shakllarining perspektiva jihatidan qanday ko‘rinishga ega bo‘lishini ko‘rish mumkin. Shuningdek, mashq davomida avval katta shakl, so‘ngra esa uning nozik va mayda bo‘laklari ustida ish olib borish kerak. Aks holda yetarli darajada muvaffaqiyatli amalga oshirilmaydi. Bizning misolimizda kapitel teng ikkiga bo‘lib turuvchi to‘g‘ri to‘rtburchak asosga ega. Aslida esa kapitel ustuni dumaloq.




*61-rasm*



62-rasm

Shuning uchun uni qurishda uning yaxlit bir aylana shaklga ega ekanligini hisobga olgan holda ish yuritish kerak (61-rasm). Faqat shu yoʻsinda tasvirlash orqaligina uning haqqoniy koʻrinishiga erishish mumkin. Natyurmortni naturadan chizish boʻyicha kerakli qonun qoidalarni bosqichma-bosqich egallash muhimdir. Kenglikdagi jismlarni kuzata turib, biz ularni koʻramiz va keyinchalik ularning uch oʻlchamli ekanligini tasavvur etamiz (62-rasm). Kenglikdagi jismlar rasmini qogʻozga tushirish jaryonida, insonning koʻrib idrok etish qobiliyatini hisobga olgan holda, perspektiv oʻzgarishlarni tasvirlash kerak. Istalgan rasmni ishlash chogʻida, uni bosqichlarga boʻlish metodik jihatdan katta ahamiyatga ega. Rasm chizishni bosqichlar boʻyicha qismlarga ajratish yoʻli bilan amalga oshirilgan taqdirda ham ular oʻrtasida oʻzaro uygʻunlik va bogʻliqlik doimo mavjud boʻlishi lozim. Dastavval shaklning umumiy chizgilari tushiriladi va alohida qismlari ajratiladi, boʻlaklar ustida ishlanadi, shuningdek, boʻlaklardan umumiy tasvirga qaytiladi. Bir guruh geometrik shakllarning rasmini chizish alohida shakllar rasmini chizishga nisbatan ancha mushkul. Bu yerda nafaqat jismlarning nisbatlari va tus munosabatini koʻra olish, balki shakl jihatdan turli xil boʻlgan va rassomga nisbatan har xil joyda joylashgan jismlarning har birining perspektiv koʻrinishini aniqlay bilish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Natyurmortdagi har bir jism boshqalariga bog‘liq bo‘lishi kerak. Shunda bitta rasmda bir necha tuzilish tarxlari namoyon bo‘ladi: to‘g‘ri parallel chiziqlarning har qaysisi o‘z birlashish nuqtasiga ega, turli burchaklar bo‘yicha aylanuvchi shakllar uchun esa aylana chizishning o‘ziga xos uslublari mavjud.





63-rasm



64-rasm

Ma‘lum bir nuqtada tutashuvchi ikkita parallel chiziq yo‘nalishi rasmning qay darajada to‘g‘ri ishlanayotganligini tahlil va nazorat qilish imkonini beradi. Ushbu bosqichda chiziqlar tasvirdagi jism shaklining to‘laligi va hajmliligini ko‘rsata olishi kerak. Jismning shakli va hajmini yanada to‘liqroq ko‘rsatish uchun yorug‘ – soyadan foydalaniladi (63-64-rasmlar). Geometrik shakllar guruhini chizishni yaxshi egallash uchun, bunday vazifalarni ko‘proq ishlash tavsiya etiladi. Bunda asosiy e‘tibor shakllarning konstruktiv tahlili va perspektiv ko‘rinishiga qaratiladi. Perspektivadagi jismlarning tuzilishi va shaklini tasvirlashning o‘ziga xos tarafi shundaki, bunda asosning gorizontal yuzasi, masalan, vertikal holatdagi kub yoki kvadratning asosi rasmda ham gorizontal bo‘lib ko‘rinishi kerak.

Shuningdek, naturada asosi bir gorizontal tekislikda yotuvchi jismlar rasmda ham xuddi shunday tekislikda yotgandek ko‘rinishi kerak.



Ushbu holatda jismlar guruhi ufq chizig‘idan yuqorida joylashgan va silindrning yuqori asosi yuqori asosga nisbatan ingichkaroq ellips ko‘rinishida bo‘ladi. Jismlar tuzilishining barcha tomonlari (ko‘rinmaydigan tomonlari ham) belgilanadi. Rasmning tuzilishini doimiy ravishda tekshirib, parallel chiziqlarni birlashish nuqtasi tomon uzaytiriladi, yorug‘lik yo‘nalishi aniqlanadi va asosiy soyalar belgilanadi.

Natijada rasm hajmli ko‘rinishga ega bo‘ladi. Jismlar nisbatlari ulardagi yorug‘lik-soya munosabatlari va ular joylashgan kenglikni hisobga olgan holda, rasmni natura bilan solishtirish orqali aniqlanadi. Bu esa ustun atrofidagi mayda vertikal qavariq bo‘laklar uning asosini tashkil etuvchi aylanalarning perspektiva qonuniga binoan ellips bo‘lib qisqargan shakllari va uning katta va kichik bo‘lagini yarim ko‘rinishda emas bir butun yaxlit deb


tasavvur etgan holda amalga oshiriladi. Kapitelnig nisbatlari yuqori darajada matematik hisoblari asosida qurilgan bo‘lib, ushbu nisbatlarning aniqligi unga ko‘rkamlik baxsh etadi.

Shuning uchun uni tasvirlashda juda ko‘plab yordamchi chiziqlar o‘tkazib aylana markazini to‘g‘ri belgilash va perspektiva qoidalariga to‘la rioya qilgan holda ifodalash hamda yorug‘-soya munosabatlarini yetarli darajada aniq tasvirlash lozim. Rasm chizishning so‘nggi


bosqichida shakllar hajmi oydinlashtiriladi va tus munosabatlari ajratib ko'rsatiladi. Bunda jismlar hajmi mayin shtrixlarda tasvirlanadi va qirrali hamda egri geometrik shakllar yuzasidagi yorug'-soyaning to'g'ri taqsimlanishiga alohida e'tibor beriladi. Masalan, sferik shar modelini chizishda chegaralarni emas, balki uning tus va yorug'-soya munosabatlarini (jilva, yorug'lik, nimsoya, jismning o'z soyasi va tushuvchi soyani) to'g'ri tasvirlash muhim hisoblanadi. Tus munosabatlari to'g'ri tanlanganida shar yuzasi osonlikcha, deyarli o'z-o'zidan hosil bo'ladi.

Jismlarning barcha yuzalariga shtrix chizish soya qismlardan boshlanadi. Dastlab yengil shtrix tortiladi, so'ngra esa u asta-sekin quyuqlashtiriladi va bir vaqtning o'zida tushuvchi soyani tasvirlab, nimsoyaga o'tiladi. Yorug'-soya qoidalarini geometrik shakllar rasmini chizishda yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi turli boshqa jismlarni (sopol, shisha, metall, yog'och va b.) qiyinchiliksiz tasvirlay olish imkonini beradi va boshqa jismlar hamda o'ta murakkab tus munosabatlarini ifodalay oladi.

Ushbu vazifani uzoq muddatli seansda bajargandan so'ng, sharq va g'arb klassik namunalari mansub me'morlik bo'laklarini me'morlik obidalarni plenerda qalamchizgi va uzoq muddatli mashqlardan so'ng bajarish mumkin. Mazkur toshiriqni guruhdagi o'quvchilarning qalamtasvir borasidagi malakalarining darajasiga qarab, bir muncha murakkablashtirish ham mumkin. Mazkur topshiriqqa qo'shimcha ravishda o'quvchilar kapitelnig turli xillaridan qalamchizgi mashqlarini bajaradilar. O'zbek milliy xalq me'morchiligida qo'llaniladigan "Morpech" bo'lagini o'ziga qarab mustaqil tasvirlanadi. Bunda talabalar yordamchi chiziqlardan foydalanib, simmetriya qonunlari, chiziq konstruktiv tuzilish, yorug' – soya munosabatlari, ba'zi bir elementlarni ritmik ravishda to'g'ri va hajmdor qilib ishlash malakalariga ega bo'ladilar.



*65-rasm*



*66-rasm*

## **Turli shakl va fakturali uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tashkil topgan murakkab bo‘lmagan natyurmortning qalamtasviri**

Bu qo‘yilmadan asosiy maqsad – turli buyumlarni tus vositalari orqali tasvirlash, buyumlar shakli, rangi, tuzilishi, fazoviy holati jihatidan bir-biridan farq qilishiga ahamiyat berish. Qo‘yilmadagi buyumlarning o‘lchovlari turlicha bo‘lishi maqsadga muvofiq. Kichikroq buyumlar oldinroqda, yiriklari orqaroqda tasvirlanadi. Natyurmort kompozitsiyasini to‘g‘ri topish maqsadida alohida kichik o‘lchamda xomaki tarzda chizib ko‘riladi. Rasm kompozitsiyasi topilgandan so‘ng, asosiy ishga o‘tiladi. Qo‘yilmani chizganda undagi hamma buyumlarni bir yo‘la tasvirlash lozim. Aks holda rasmda bir buyumning o‘lchovi kattaroq, ikkinchisniki esa kichikroq bo‘lib, rasm kompozitsiyasi buziladi. Shuning uchun qo‘yilmadagi barcha buyumlarning umumiy balandligi va eni qog‘ozda yordamchi chiziqlar bilan belgilab olinadi. So‘ng naturadagi har bir buyumning o‘lchov jihatdan o‘zaro farqi, oralaridagi masofa, soya va yorug‘larning farqi, ranglarini ko‘z bilan chamalab aniqlashga o‘tiladi. Qo‘yilma ufq chizig‘idan pastroqda joylashtirilgan. Avval uning gorizontal tekisligi aniqlanadi. Gipsli naqsh orqaroqda va balandlikda o‘rnatilgan, mis qumg‘on va sopol piyola oldingi planda joylashgan. Keyin sopol piyola va mis qumg‘onning umumiy shaklini bildiruvchi chiziqlar hamda simmetrik o‘qlar va naqshli gips modelining taxtacha asosi belgilab chiziladi. So‘ngra piyola va mis qumg‘onning ustki, pastki asoslari va naqshning yon tomon yo‘nalishlari perspektiva qonuniyatiga asoslanib belgilanadi. Naqsh gulining turgan joyini aniqlash uchun taxtacha asosi o‘rtasidan yordamchi profil chiziq yuritiladi. Mis qumg‘on simmetrik shakldagi buyum hisoblanib, u silindr va shar shakllaridan tashkil topgan. O‘tkazilgan simmetrik o‘qdan qumg‘onning balandligi va enining o‘lchami topiladi. Qumg‘on ufq chizig‘idan bir oz pastroqqa qo‘yilgani uchun uning ustki va ostki asoslari ellips shaklida ko‘rinadi. So‘ngra qumg‘on bo‘yi va enini belgilovchi chiziqlarni tutashtirish orqali umumiy

shakl topiladi. Milliy naqsh gulining shakli yirik yaxlit qismidan mayda bolaklariga tomon ketma-ketlikda bajariladi. Taqqoslash usuli orqali bo‘laklarning bir-biriga va umumiy nisbatlari aniqlab boriladi. Bu bosqichda buyumlarning ko‘rinmas chiziq-lari ham chiziladi. Bu usul buyumlarning fazodan o‘rin olib turganini ko‘rsatishda talabalarni yanglishtirmaydi. Buyumlarni chizish yorug‘lik va soya qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Albatta, naturadagi buyumlarning o‘rtasidagi och-to‘qlikning farqini saqlagan holda va materiallik fakturasini ko‘rsatib tasvirlash kerak. So‘ngra oldingi va orqa planda joylashtirilgan buyumlarning tus munosabatlari umumlashtiriladi.

Turli predmetlardan tashkil topgan natyurmort an’anaviy usulda qo‘yilgan. To‘g‘ri o‘rnatilgan yorug‘lik muhiti hosil qilinib, natyurmortdagi shakllarni ifodali ko‘rinishiga yordam beradi<sup>1</sup>.

Natyurmort ishlaganda undagi predmetlarning umumiy shakli chiziladi. Keyin kompozitsiyadagi buyumlar aniq detallar bilan ishlanadi<sup>2</sup>.

Sfera asosida qolgan buyumlarnin hajmi yasaladi. Sfera meridian kabi bo‘laklarga bo‘linib, qovoq shakli yasaladi<sup>3</sup>.

Chiziladigan fon ko‘mir kata-katta dog‘lar bilan yopiladi. Ish erkin, kerakli natijaga erishilmaguncha davom ettiriladi<sup>4</sup>.

Kontrastlikni kuchaytirish uchun tusning och qismi o‘chirg‘ich yordamida o‘chirilib, oq melda yorug‘ joylari tuslanadi. Natyurmort tasviri Barokko uslubida tugatilinadi.

---

1 P.Tomas, A.taylor Drawing, London-2011,


2 P.Tomas, A.taylor Drawing, London-2011,

3 P.Tomas, A.taylor Drawing, London-2011,

4 P.Tomas, A.taylor Drawing, London-2011,




67-rasm




68-rasm



*69-rasm*




*70-rasm*




*71-rasm*




72-rasm




73-rasm



74-rasm



75-rasm



76-rasm



77-rasm

### **DAVID HAYKALINING BOSH BO‘LAKLARI QALAMTASVIRI (burun, lab va quloq)**

Bosh shaklining bo‘laklarini chizish yuzning bosh qismlari – burun, ko‘z, quloq va lablarni tasvirlashning asosiy qoidalarini puxta bilishni talab etadi. Talabalar, odatda, boshning alohida bo‘laklari rasmini chizish muhimligiga e’tibor bermaydilar. Ular buni go‘yo bekorga vaqt sarflash, deb o‘ylaydilar. Ularning fikricha, gips boshni tasvirlashdan ko‘ra bosh bo‘laklarini chizish yetarli bo‘ladi. Lekin talaba bosh rasmini chizish paytida ko‘z, quloq, burun va lablarni tasvirlashning barcha nozik jihatlarini chuqur va maxsus o‘rganib chiqa olmaydi. Leonardo da Vinchi boshlovchi rassomlarga maslahat tariqasida shunday degan edi: *Agar sen narsalar shakli haqidagi bilimga ega bo‘lmoqchi bo‘lsang, u holda qismlardan boshla. Agar sen uning birinchisini xotirangda tutmagan va yetarli darajada o‘zlashtirib olmagan bo‘lsang – keyingisiga o‘tma. Agar sen o‘zga yo‘l tutadigan bo‘lsang – bekorga vaqtingni sarflaysan yoki, ochig‘ini aytganda, ta’lim olish jarayonini juda cho‘zib yuborasan. Men senga eslatib*

*qo'ymoqchiman – eng avvalo, qunt qilishni, keyin esa tez ishlashni o'rganib ol.* Qadimgi badiiy maktablarda bosh shaklini tasvirlash burun, ko'z, quloq va lab kabi detallar rasmini chizishdan boshlangan. Aka-uka Karachchilardan biri o'z akademiyasi tarbiyalanuvchilari uchun maxsus qo'llanma yaratgan edi. Bu qo'llanma “Butun inson tanasini chizishga o'rgatuvchi ajoyib maktab” deb nomlangan. Qo'llanmada bosh shaklini tasvirlash bo'laklar rasmini chizishdan boshlanishi aytib o'tilgan. Boshqa qo'llanmalarda ham bu masalaga jiddiy e'tibor berilgan. Masalan, I.Preysler o'zining “Rasm chizish bo'yicha qoida va qisqa amaliyot” deb nomlangan qo'llanmasida (1734) quloq shaklining qurilish qonuniyatlari bilan bir qatorda tasvir metodikasini ham yoritgan. Qo'llanmada yozilishicha, tasvir rasm chizuvchiga quloq holatini aniqlab olishga yordam beradigan o'q chiziqlarni aniqlashdan boshlanadi. Shundan so'ng quloq suprasining umumiy aylanasi va qismlarining proporsional nisbatlari belgilab olinadi. Undan keyin quloq jingalaklari, qarshi jingalaklari, qayiqsimon chuqurliklarni qanday tasvirlash kerakligi ko'rsatilgan.

Bosh qismlarini o'rganishni rasm o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan klassik gips namunalar (Dovud boshi) tahlili va tasviridan boshlaymiz. Bosh shakli bo'laklarini ishlash burun tasviridan boshlanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik talabalar portret ishlashda bosh bo'laklarini alohida o'rganishga uncha e'tibor bermaydilar va muvaffaqiyatga erishmaydilar. Yuqorida ta'kidlanganidek, **burun** shakli to'rtta yuzadan iborat bo'ladi – oldingi, ikki yon va pastki yuzalar. Erkak va ayollarning burni har xil bo'lishiga qaramay, burun shakli tuzilishi bir xil. Biz uni o'z sxemamizda ko'rib chiqamiz (79-rasm).



78-rasm




79-rasm

Burun prizmasining old yuzasi qosh usti yoylari chizig'idan to burun bukrisigacha trapetsiyasimon shaklda bo'ladi, qanshardan burun bukrisining o'rtasiga qadar yana bitta uzaytirilgan trapetsiya bo'ladi, undan bukri oxirigacha – uchinchi, lekin ag'darilgan ko'rinishdagi trapetsiya va, nihoyat, oxirgi trapetsiya – bodom bor. Individual xususiyatlarga ko'ra, burin shakllari qurilish sxemasi ko'rinishi o'zgaradi – puchuq, qirg'iy burun, to'g'ri burun. Lekin ularning qurilish qonuniyati o'zgarmay qolaveradi. Masalan, biz qirg'iy burun kishini chizyapmiz. Burun shakli tuzilishini tahlil qilib, biz ko'rsatib o'tgan sxema ancha


cho'zilganini qayd etamiz; bunday kishining qanshari ancha tor bo'lib, prizma burunning yon yuzasi qanshardan ko'z qorachig'igacha chuqur kirib ketadi; burun bukrisining eng do'ng qismi shakliga ko'ra cho'ziq, uchi pastga egilgan, bodom chiziqlari ko'rinmas boladi, ular yagona shaklga qo'shilib ketgandek tuyuladi (80-rasm). Puchuq burunli kishining qanshari keng, burun bukrisi botiqroq va kichik bodomlari keng bo'ladi, burun uchi yaxshi ko'rinib turadi, butun sxema esa ancha siqiq lekin, shuni alohida ta'kidlash kerakki, shakl xarakteri har xil bo'lishiga qaramay, burun sxemasi, tarkibi o'zgarmas, ya'ni to'rt qismdan iborat bo'lib qolaveradi. Burun shakli qurilishi qonuniyatlarini o'rganib, Leonardo da Vinchi yozgan ediki, o'rtasida bukri bo'lgan burun qismlari sakkiz usulda o'zgaradi, binobarin: ular bir xilda to'g'ri yoki bir xilda bukilgan, bir xilda bo'rtib chiqqan bo'ladi – bu birinchidan; ular bir xilda to'g'ri, bo'rtib chiqqan yoki bukilgan bo'ladi – bu ikkinchidan; ularning yuqori qismlari to'g'ri, pastki qismlari esa bukilgan bo'ladi – bu uchinchidan; yuqorisi to'g'ri,

pastkisi bo‘rtib chiqqan bo‘ladi – bu to‘rtinchidan; yuqorgisi bukilgan, pasti esa to‘g‘ri bo‘ladi – bu beshinchidan; yuqorgisi bukilgan, pastkisi bo‘rtib chiqqan bo‘ladi – bu oltinchidan; yuqoridagisi bo‘rtib chiqqan, pastkisi esa to‘g‘ri bo‘ladi -yettinchidan; yuqorgisi bo‘rtib chiqqan, pastkisi esa bukilgan bo‘ladi – bu sakkizinchidan.

Burun shaklining tashqi ko‘rinishi, asosan, burun suyagi va qoshlar o‘rtasi peshona qismi suyagining qurilish xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Puchuq burunlilarda peshona qismi oldinga ancha bo‘rtib chiqqan, burun suyagi esa ichiga kirib ketgan bo‘ladi. To‘g‘ri burunli kishilarda peshona suyagidan burun bukrisiga o‘tish bir tekisda bo‘ladi. Qirg‘iy burun kishilarda peshona suyagi biroz oldinga turtib chiqqan, burun suyaklari esa ancha oldinga chiqib, keskin pastga qaragan bo‘ladi. Burun kemirchagi va mushaklarning joylashish qonuniyati ham shunday. Buni tirik odamning boshi rasmini chizayotganda hisobga olish kerak.




79-rasm



80-rasm



81-rasm



83-rasm



84-rasm

Bu yerda biz burun shakli va uning plastik xarakteristikasi shaklini qurishning umumiy qonuniyatlarini o‘zlashtirib olishimiz kerak. Burun shakli qurilishining asosiy qonuniyati Dovud boshi nusxasida yaxshi ifoda etilgan. Shuning uchun barcha badiiy o‘quv yurtlarida bosh bo‘laklarini o‘rganishda Dovud boshining gips nusxasi tavsiya etiladi (81-82-rasmlar). Burun rasmini chizishga kirishar ekansiz, tasvirlashning uslubiy izchilligi – oddiydan murakkablikka, umumiylikdan xususiylikka o‘tilishiga rioya qiling. Eng

avvalo, burunning prizmatik shaklini belgilab olish zarur. Uning holatini va proporsional nisbatlarini kenglikda belgilab olamiz (perspektiva qonuniyatlariga muvofiq). Keyin burun prizmasining joylashishi va yuzalarining (oldingi, pastki va ko‘rinib turgan bo‘lsa – ikkala yon yuzalari) yo‘nalishini belgilab olamiz. Agar burun prizmasi biz tomon frontal turgan bo‘lsa, u holda oldingi yuza yaxshi ko‘rinadi, qolganlari esa perspektiv qisqarishda bo‘ladi; agar biz burun prizmasiga pastdan qaraydigan bo‘lsak, burunning pastki

yuzasi yoyilgan va yaxshi ko‘rinadigan, old va yon yuzalari esa prespektiv qisqarishda bo‘ladi.

Burun to‘rtidan-uch burilishda yoki profilda bo‘lsa, burun prizmasining bizga qaratilgan yon yuzasi yaxshi ko‘rinadi, uning qolgan yuzalari esa perspektiv qisqarishda bo‘ladi. Shuning uchun, eng avvalo, tasvirda prizma – burunning umumiy shaklini to‘g‘ri belgilab olish, uning holati kenglikda chiziqli perspektiva qonuniyatlariga ko‘ra to‘g‘ri turganligini aniqlab olishimiz va proporsional nisbatlarini tekshirib olishimiz lozim. Shundan so‘ng, bizning sxemamizga muvofiq, shakl strukturasi ochishni boshlaymiz. Eng avvalo, burun old yuzasining asosiy qismlari – qanshar, bukri va bodom-



85-rasm

larning joylashishini belgilaymiz. Shundan so‘ng qanshardan ko‘z yoshi qopchig‘igacha va bodomlardan burun teshiklari uchigacha bo‘lgan yon yuzalar chuqurligini, shuningdek, burunning pastki maydon xarakterini aniqlaymiz. Burunning old yuzasiga aniqlik kirita borib, bir vaqtning o‘zida o‘ng va chap tomonlarni tasvirlang. Masalan, o‘ng tomondan qansharni belgilab olib, darhol chap tomonini ham belgilang; burun bukrisini o‘ng tomondan belgilab, shu yerning o‘zida chap tomonni ham belgilab oling; bodomlar shakli xarakterini aniqlay turib, o‘ng va chap qismini bir vaqtning o‘zida tasvirlang. Agar rasm chizuvchida ko‘z bilan chamalash malakasi rivojlanmagan bo‘lsa, u dastlab yordamchi chiziqlardan foydalanishi kerak. Masalan, burun prizmasini belgilab olib, ko‘z yoshi qopchig‘i va burun qanotlari uchini to‘g‘ri chiziqlar bilan tutashtirish; burunning yuqori chetini belgilab, darhol uni boshqa tomondan ham to‘g‘ri chiziq bilan belgilash va bu to‘g‘ri chiziqni burun asosi chizig‘igacha davom ettirish lozim. Burun teshiklarini tasvirlashda teshiklar qalinligini (ayniqsa, soyada qolgan pastki yuzani bo‘rttirayotganingizda) belgilashni yodingizdan

chiqarmang. Tus berishda bitta shakldan ikkinchi shaklga o'tishda ehtiyot bo'ling, ularning chegaralarini juda qattiq bo'yab yubormang (ayniqsa, qanshar shaklidan burun bukrisiga, bukridan bodomlarga o'tish joylarini. Burunning pastki yuzasini ocha borib, burun uchi, burun teshiklarining yon chegaralari va burun teshiklarining qalinligiga salgina tus berish zarur. Pastki, yon va oldingi yuzalarga bitta umumiy tus berish noto'g'ri. O'zingizni tekshirib ko'rishingiz uchun quyidagi usuldan foydalanishingiz mumkin: nazaringizda rasmdagi hamma shakllar yaxshi ifodalangan bo'lsa, rasmni kaftlaringiz yoki bir bo'lak qog'oz bilan bekiting, bunda faqat rasmning kichkina bir 95 fragmenti ochiq qolsin. Endi shaklning uch o'lchamliligi lozim darajada yorqin ifodalanganmi yoki hammasi bo'yalib ketib, ushbu shakl rasmi faqat kontur chizig'ida o'z ifodasini topganmi – shuni tekshiring; agar shunday bo'lgan bo'lsa, shaklni modellashni va har bir yuzaning kenglikdagi yo'nalishini aniqlashni davom ettirish kerak. Tuslash qonunlarini to'g'ri hal etishga alohida e'tibor qaratish kerak. Chizishni prizma shaklidagi burunga yengilgina tus berishdan boshlaymiz.




86-rasm

Burunning oldingi (yoritilgan) va pastki (soyadagi) yuzasini ajratayotganda tus nisbatlari oxirigacha saqlanib qolishi kerakligini unut-mang. Ko'pchilik rasm chizuvchilar yarim soyada joylashgan burun teshiklarining yon yuzalarini xuddi burunning oldingi (yoritilgan) uchidagisi kabi yorqin tasvirleydilar. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, burun uchida ba'zan shu'la (refleks) paydo bo'ladi va bu eng kuchli yorug'likdan sustroq bo'ladi. Shundan keyin yorug'likda ham, soyada ham shaklning plastik xarakteristikasini ochishga kirishish kerak. Reflekslarni

yon yuzada joylashgan tusni kuchaytirish yordamida tuslang. Ushbu rasmni chizayotganda, o‘quv materialini o‘zlashtirib olish bilan birga ifodali rasm ishlash, gips materialini qog‘ozda aks ettirishga harakat qiling. Shuningdek, qadimgi rassom pedagoglarning mohirona bajargan ishlaridan nusxa ko‘chirish ham foydadan xoli emas. Tasvirning prinsip va uslublarini yaxshi o‘zlashtirib olish uchun turli holatlardagi haykallarning bir qancha rasmlarini chizish kerak. Bunda, albatta, burun shakli qurilishining alohida xarakterli xususiyatlarini ochishga harakat qiling.


**Lablar** ham odam boshini tasvirlashda kuzatish va o‘rganishning doimiy obyekti hisoblanadi. Shuning uchun bo‘lajak rassom lablar shaklining qurilish qonuniyatlarini ham, ularni yuzada tasvirlash qoidalarini ham yaxshi bilishi kerak. O‘q chizig‘i (profil) ga nisbatan yuqori va pastki lablarning hamma qismlari simmetrik joylashgan bo‘ladi (87-rasm). Shuning uchun yuqori lab ustidagi maydoncha, yuqori lab bantigi, chuqurchalar, lab burchaklar, pastki labning ikkita yarmi va dahanga tushib turgan pastki lab massasi bir yo‘la tasvirlanishi kerak.



87-rasm

Tasvir qurishning bu sxemasidan foydalanganda ko‘pchilik bu sxemani berilib ketgan, qalamni qog‘ozga bosgan holda qalin chiziq bilan chizadilar. Lablar bantigini yengilgina, qalamni qog‘ozga ozgina bosib chizish kerak. Chunki naturada ushbu chiziqlar o‘rnida yorug‘lik joylashgan, binobarin, lablar chetlarining eng shishib turgan qismi hisoblanadi. Boshlovchi rassom buni Dovud lablarining ganch nusxasini chizish amaliyotida tushunib, ilg‘ab oladi, bunda shakl plastikasi yaqqol “o‘qiladi”. Lablarning shakli va ularning joylashishi tishlarning shakli, katta-kichikligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Agar

tishlar bir-biriga bir tekis tegib tursa, lablar ham shunday joylashadi, yuqori va pastki lablar kengligi esa deyarli to‘g‘ri bo‘ladi. Agar pastki jag‘ tishlari oldinga turtib chiqqan bo‘lsa, pastki lab ham oldinga chiqibroq turadi, lablar kengligi esa quyidagicha o‘zgaradi: yuqori lab pastroq (ingichkaroq), pastki lab esa shishgan va qalin bo‘ladi. Agar pastki jag‘ tishlari yuqorigi jag‘ tishlari tagiga kirib ketsa, u holda yuqorgi lab oldinga turtib chiqadi, pastki lab esa orqaga tortiladi. Buni David lablarining gips namunasida diqqat bilan tahlil qilish mumkin (**88-rasm**).



88-rasm

Lab shakllariga tus berishda yorug‘likdan yarim soyaga va yarim soyadan soyaga sekin-asta o‘tishga harakat qiling. Shakl yuzasini buzib yuboradigan qo‘pol chizgilar qilmang. Chiziq shakl bo‘ylab tushishi kerak. Shakl yuzasi o‘ngga burilsa chizig‘i (shtrix) ham o‘ngga buriladi, yuza chapga ketsa, chizg‘ ham chapga buriladi. Chunki tomoshabin rasmdagi chizgilar yo‘nalishini kuzatadi, ular

unga shakl plastikasini “o‘qish”ga, uqib olishga yordam beradi. Lablarni chizayotganingizda lab burchaklari oldidagi burin-lab shakli plastikasini diqqat bilan kuzatib boring.

Lablarning yuqorigi va pastki yuzalari burchaklariga yaqinlashishiga qarab ichkariga tortiladi, yonoqlarning turtib chiqqan qismi esa (burun-lab taxlamasi) xuddi ularga yopishib turgandek bo‘ladi. Ko‘pchilik talabalar, aksincha, lab strelkalarini oldinga chiqarib chizishadi, natijada ular naqshga yoyilib qoladi, shuning uchun yuzning butun pastki qism plastikasi buziladi. Reflekslarni ehtiyotkorlik bilan chizing. Talabalar, odatda, reflekslarni juda yorqinlashtirib yuboradilar. Oqibatda shakl parchalanib, yaxlitligi yo‘qoladi. Refleks kuchini tekshirib ko‘rish uchun quyidagi usuldan foydalaning: naturaga qarab, refleksni ko‘rib turib ko‘zlaringizni biroz yuming – agar refleks yo‘qola borsa, u rasmda ham yo‘qolishi kerak. Agar refleks ju-

da yorqin bo'lsa, uni biroz tushlash (pasaytirish) kerak. Rasmda shakl yaxlitligini ko'rish uchun uni o'zingizdan uzoqlashtiring. O'quv materialini o'zlashtira borib, bir yo'la chizayotgan rasmingiz ifodali chiqayotganligini ham kuzating. Ana shu maqsadda klassik qo'llanma namunalaridan nuxsa ko'chiring, u yerda nafaqat shakl, balki materiallik xususiyatlari ham yaxshi berilgan. Nusxa ko'chirish qalamni boshqarish, grafika vositalari ifodaliligini ko'rishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu mashqlar tus va shakl ifodasini ochishga ko'maklashadi. Lablar shakli qurilishi qonuniyatlarini yaxshiroq o'zlashtirib olish uchun tirik naturadan bir qancha rasmlar chizish zarur (bunda natura sifatida ko'zgu oldidagi o'z qiyofangiz ham ish beradi). O'zingizni ko'zgu yordamida chizayotganingizda rasmda nafaqat lablarning plastik xarakteristikasini, balki o'zingizning hayajonli (emotsional) holatingizni ham ifodalashga harakat qiling (**89-rasm**).

Lablar juda ifodali bo'ladi, inson o'z lablari bilan ruhiy holatini ham namoyon eta oladi. Kishi yaxshi, sho'x kayfiyatda bo'lsa lab burchaklari ko'tariladi (ya'ni, u kuladi); mayus yoki yig'layotgan holatda u, aksincha, lab burchaklarini tushirib yuboradi, Siz o'z lab-



89-rasm

laringizni turli emotsional holatlarda yoritib, yuqori va pastki lablar chetki shakllarining xarakteri qanday o'zgarayotganligini, lablarning tutashish chizig'i holati qanday bo'lishini kuzating. Insonning turli ruhiy holatlarida lablar tasviri turlicha bo'ladi (lablar ko'rinishiga alohida e'tibor bering). Lablar shaklining ifodaliligi va xarakteri, shuningdek, lablarning qalinligiga ham bog'liq. Portret xarakteristikasini ochishda bunga e'tibor berish kerak. Bir kishining lablari ingichka (yupqa), cho'zilgan (cho'chchaygan) bo'ladi. Bunday lablar qat'iy xarakterga (felga) ega kishilarga xosdir; boshqa kishining lablari qalin va yumshoq xarakterga ega bo'ladi.

**Quloq.** Odamning qulog‘i, garchi uning shakli turli kishilarda turlicha bo‘lsada, doimo bir xil tuzilishda bo‘ladi. Har qanday kishida biz tashqi gajamani ko‘rishimiz mumkin. Ichki gajama quloq suprasining o‘rtasida bo‘ladi. Pastki qismi esa yumshoq joy bilan tugaydi. Quloq suprasining ichki qismini qarshi gajama qoplagan. Quloq suprasini tashqi tomondan bukri qism qoplagan. Quloq tasvirini chizishda quloq suprasining hamma qismlari rassom nazarida bo‘ishi kerak.



90-rasm

Klassik qo‘llanmalarda quloq rasmini chizish qoidalariga jiddiy ahamiyat berilgan. Unda rassomlar quloq shaklining qonuniyatlari va tasvir qurish uslubiyotini ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatishga harakat qilganlar (90-rasm). Dovud qulog‘ining ganch namunasi rasm chizuvchi uchun yaxshi qo‘llanma hisoblanadi (92-rasm). Unda shakl strukturasi va plastik xarakteristika yorqin ifoda etilgan. Shuning uchun ham rasm chizishni o‘rganishni shu namunadan boshlash kerak. Rasm chizishni, har galdagidek, umumiy shaklni ochishdan boshlaymiz, shundan so‘ng quloqning tarkibiy qismlarini joylashtirish

va shakl xarakteriga aniqlik kiritishga o‘tamiz.


Agar shakl to‘g‘ri belgilangan bo‘lsa, endi unga tus berish mumkin. Quloq rasmini chizayotganda yoritilishiga, shaklning alohida joylarining tus berilish nisbatlariga e‘tibor berish lozim. Ko‘pchilik, odatda, quloq suprasini ichidagi shakl harakatlarini namoyon etmaydi, gajama va qarshi gajamaning chiziqli rasmiga ko‘proq ahamiyat beradi, tus berish vazifasi esa hal qilinmay qoladi. Natijada rasm uzuyuluq bo‘lib qoladi. Quloq suprasining tuzilish xususiyatlarini yaxshi o‘rganib olish uchun




91-rasm

quloq rasmini har xil tomonda va vaziyatlarda chizib ko‘rish lozim. Quloq suprasining uchdan to‘rt burilishidagi holatiga alohida e‘tibor berish kerak. Bu o‘rinda, eng avvalo, quloq suprasi tasvirining asosini tashkil etadigan kenglikda ellips ko‘rinishdagi yo‘nalishini to‘g‘ri belgilab olish zarur. Shundan so‘ng gajama qalinligi va uning suprasi ichiga kirib borishdagi o‘zgarishini aniqlash lozim. Quloqning bukri va yumshoq joyini tasvirlash ham xuddi shunday. Ko‘pchilik ularni frontal holatda chizadi, shuning uchun ham quloq suprasi buzilgan holda chiqadi. Har xil odamlarning quloqlari shakli tuzilishining xarakterli xususiyatlarini ilg‘ab olish kerak. Buning uchun quyidagilarga e‘tibor berish lozim: birinchidan, muntazam ravishda chizgilar va xomaki lavhalar chizish; ikkinchidan, har xil odamlarda quloqlar shakli xarakterini diqqat bilan kuzatish va yumshoq joyi, gajama bukrilarining shakli qandayligiga e‘tibor qaratish, umuman, quloq qanday joylashganligiga qiziqish (shalpang quloq, yopishgan quloq va hokazolar). Bosh detallarining (burun, ko‘zlar, quloq va lablar) tasvirlarining xususiyat va qonuniyatlarini o‘rganishda tirik namunadan bosh detallari bo‘laklari rasmini chizish juda foydali. Tirik naturadan va gips namunadan bosh detallarini chizayotganda rasmda asosiy qonuniyatlar qanday uyg‘unlashayotganligini kuzating. Masalan, ko‘z rasmini chizar ekanmiz, yuqori qovoqlar ko‘z soqqasini qanday qoplaganligiga, qovoq qalinligi ko‘zning perspektivadagi holatiga qarab qanday o‘zgarayotganligiga e‘tibor bering. Lablar rasmini chizayotganingizda labning tashqi cheti, haqiqatan ham biz ganch namunasida ko‘rganimizdek, oldinga turtib chiqqanligini kuzating. Ta‘limning ushbu bosqichida yaxshi namunalardan nusxa ko‘chirish foydali, chunki bunda shakl tuzilishi qonuniyatlarini yana bir bor ko‘rish, shuningdek, uning materiallik xususiyatlarini ochib berishni o‘rganish mumkin. Masalan, A.Skino yuz terisi va sochlar fakturasini yaxshi ochib bergan. Bosh detallarini o‘rganishda naturani va qisqa xomaki rasmlar, chizgilarni davomli tahlil qilib borish zarur. Chizgilar shakl qurilishi bilan bog‘liq o‘quv-tahliliy xarakterida va insonning emotsional holatini ochish xarakterida ham bo‘lishi mumkin. Chizgilarning oxirgi ko‘rinishini ko‘zgu yordamida o‘zingizni chizib ham bajarish mumkin. Bu o‘rinda bo‘laklarni (burun, lablar, dahan, peshona, ko‘zlar va lablar) tasvirlash mumkin. Klassik

qo‘llanmalarda boshning alohida detallarini chizib bo‘lgandan so‘ng, ularni o‘zaro bog‘liq (burun, lablar va dahan, quloqni boshning unga tutashgan qismlari bilan) holda chizish taklif etilgan. Bunday chizish detallarning o‘zaro bog‘lanishini kuzatish, ularning umumiyligini anglashga yordam beradi.



92-rasm



93-rasm

## David haykalining ko‘z bo‘lagi qalamtasviri

**Ko‘z.** Qadimgi qo‘llanmalarda asosiy e‘tibor bosh shakli bo‘laklarini chizish qonuniyatlariga qaratilgan. Talabalarga bosh bo‘laklarini turli holat va ko‘rinishlarda chizdirish ularning tasvirlash malakasini oshiradi. Bosh shakli bo‘laklari rasmlarini biz Jyulen, Skino, Pukirev va Savrasov, Kardovskiy, Barshch, Xitrov, Solovev va boshqa mashhur rassom va metodist olimlarning qo‘llanmalarida ko‘rishimiz mumkin. Ularda ko‘z tuzilishiga katta e‘tibor berilgan. Ularda rasm chizuvchining diqqat-e‘tibori tasvir qurish metodik jihatlariga qaratilgan. Oliy o‘quv yurtlari uchun tuzilgan hozirgi zamon o‘quv




94-rasm

dasturlarida Mikelanjelo Buanorrotti haykaltaryoshlik ishidan Dovud bosh bo‘lagining gips namunasini chizish ko‘zda tutilgan (94-rasm). Buning asosiy sababi – bu haykal tasviriy san’atda nisbatlarining aniqligi va mukammal ishlanganligi bilan namuna hisoblanadi.

Quyida ko‘z shakli qurilishining asosiy qonuniyatlarini tahlil qilamiz. Avval aytib o‘tganimizdek, ko‘z sharsimon shaklga ega bo‘ladi va ko‘z chuqurligidan to‘rtidan bir qismi chiqib turadi. Tasviriy san’atda rassom uchun oqsil parda bilan qoplangan ko‘z soqqasining tashqi qismi va rangdor parda bilan qoplangan ko‘z qorachig‘ining bo‘rtib chiqqan qismi, ko‘z gavhari muhimdir. Ko‘z olmasini qoplab turgan yuqori qovoqning bukilishi ko‘z qorachig‘ining turtib chiqqanligiga bog‘liq, ya’ni yuqori qovoqning eng bukilgan joyi qorachiq o‘rnashgan joy bo‘ladi: rasmda u nigoh yo‘nalishini ko‘rsatadi. Ko‘z qorachig‘i va rangdor pardalar turli nuqtalardan aniq ko‘rsatilgan. Lekin ko‘z shakli plastik xarakteristikasini yoritish talaba uchun ancha qiyin. Ma’lum bo‘lishicha, ko‘zning katta o‘lchamlari, qovoq qalinligining keng yuzalari ko‘z soqqasining katta hajmini ko‘rish va uni ifodalashga xalaqit beradi. Yuqorigi va pastki qovoqlarga tus berishda rasm chizuvchilar ularning kengligi va pastki

qovoq yuzasining qalinligi farqini ilgʻab ololmaydilar. Natijada koʻz shakli ifodasiz chiqadi. Rasmni namunaning umumiy shaklini (qoshlar va koʻz chuqurchasining turtib chiqqan qismlarini) tasvirlashdan boshlang. Shundan soʻng koʻz soqqasining turtib chiqqan qismini belgilab, keyingina uni qovoqlar bilan yoping.



95-rasm


Sizning namunangiz quti devoriga tegib turadi, deb tasavvur qiling. Ustki yuzasi quti qopqogʻining butun yuzasini, pastki yuza esa yarim yuzasini egallaydi. Binobarin, qosh ustki yoylari pastki chetidan asosigacha biroz ogʻma holda qoʻyilgan. Kuzatilgan tasavvurni perspektiva boʻyicha aniqlab olish kerak. Shundan soʻng qosh ustki yoylari va qansharning turtib chiquvchi qismlarining oʻlchamlarini, shuningdek, koʻz soqqasining ichkarida joylashgan qismini, koʻz kesmalarining chizigʻini belgilab olish kerak. Bu koʻz yoshi qopchigʻi va koʻz burchagini toʻgʻri belgilashga yordam beradi. Yordamchi chiziqlarga eʼtibor bermaydiganlar, garchi qovoqlar shaklini toʻgʻri chizsalar-da, qovoqlarni oʻz joyiga qoʻyaolmaydilar, yaʼni ular perspektivada qoʻpol xatoga yoʻl qoʻyadilar. Yordamchi chiziqlar yordamida tasvirni koʻrayotganingizda koʻz soqqalarini va qorachigʻini joylashtirishingiz oson boʻladi, keyin ularni qovoqlar bilan qoplash qiyin emas.

Koʻz qorachigi oʻqining yoʻnalishini diqqat bilan kuzating. Talabalar, odatda, toʻgʻri doira belgilab oladilar va uning ichiga koʻz qorachigʻining “yurakcha”sini chizadilar.



96-rasm

Qorachiq va qovoqlar og‘ma o‘q bo‘ylab joylashadi. Qorachiqning yuqori cheti esa oldinga turtib chiqadi va pastki cheti ichiga kirib ketadi (95–100-rasmlar). Buni doimo nazarda tutish kerak (ayniqsa, tirik naturadan chizayotganda). Ko‘z qurilishi xususiyatlarini yaxshi eslab qolish uchun uni turli tomondan chizib ko‘rish lozim. Aksariyat rasm chizuvchilar ko‘z shaklining plastik xarakteristikasini tushunmagani uchun ko‘z soqqasida qovoqlarning perspektiv joylashishini ilg‘ab ololmaydilar. Shu o‘rinda mo‘ljal sifatida qovoqlarning perspektivada joylashishi sxemasini taklif etish mumkin. Agar ko‘z frontal holatda bo‘lsa, u holda qovoqlar romb shaklida joylashadi (101–102-rasmlar). Agar ko‘z to‘rtidan uch burilish holatida yoki profilda bo‘lsa, u holda qovoqlar uchburchak shaklda joylashadi. Ko‘pchilik boshni to‘rtidan uch burilishi holatida, ko‘zlarni esa o‘zlariga qaratib chizadi.




97-rasm

Qovoqlarning ko‘z soqqasida joylashishi perspektiv holatini ko‘rsatayotganda yuqori qovoq shaklining ko‘zqorachig‘ining joylashish holatiga qarab o‘zgarishini hisobga olish zarur: yuqori qovoqning pastki chetini chizayotganda ehtiyot bo‘ling. Pastki qovoqlarni yengilgina chizing, qalamni qog‘ozga qattiq bosmang – pastki qovoq doim yoritilgan bo‘ladi. Rasm chizuvchi yuqori va pastki qovoqlarni bir xil tusda chizsa hajm va shakl ishonchligini yo‘qotadi.


O‘quv materialini mustahkamlash uchun natyuraning o‘ziga qarab tasvirlash har doim yuqori samara beradi.



98-rasm



*99-rasm*



*100-rasm*



*101-rasm*



*102-rasm*

## **ODAM BOSHINING ANATOMIK QURILISHI HAQIDA MA'LUMOT. KESIK BOSH HAYKALINING QALAMTASVIRI**



*103-rasm*

Antik bosh rasmi ustida ishlashning butun majmui tasviriy san'atining ustivor tamoyili – umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan yana umumiylikka usuli va uslubiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, naturaning butun qismlarini tahlil qilish orqali umumiy shakl obrazini ifoda etish qoidasiga rioya qilish kerak. Bu tamoyil rasm chizish bo'yicha chiqarilgan hamma o'quv dasturlarida o'z aksini topgan va maxsus badiiy maktab, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida yetakchi hisoblanadi. U barcha talabalarga (ularning davomli rasm chizish tayyorgarligi darajasidan qat'iy nazar)

taklif etiladi va bajarish talab qilinadi. Talabalar uni osonroq egallab olishlari va uning mazmunini yaxshiroq tushunib olishlari uchun

tasvir ustida ishlashning murakkab majmui alohida-alohida bosqichlarga bo‘lib o‘rgatiladi. Bundan tashqari, uslubiy izchillikka rioya qilgan holda tasvirlash talabaga har bir bosqichni alohida tushunib olishga va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglashga imkon yaratadi.

Davomli tarzda rasm chizish jarayoni juda murakkab bo‘lib, bunda yetarli ish tajribasiga ega bolmagan talaba ko‘pincha qiynalib qoladi. U, eng avvalo, nimalarga e‘tibor berish, o‘z imkoniyatlaridan qanday qilib oqilona foydalanish kerakligini bilmaydi va ishni lozim darajada tashkil qila olmaydi. Bunday talaba, odatda, nimani ko‘rsa shundayligicha ko‘chirib qo‘ya qoladi.



*104-rasm*



*105-rasm*

Tashqi shakl ko‘rinishidan diqqat bilan nusxa ko‘chiradi. Kerak-nokerak qismlarni ajratmay, birdek tasvirleyveradi. Detallarga berilib ketib, ular naturaga juda o‘xshayapti, degan fikrda chizaveradi. Ko‘pchilik talabalar odam boshi rasmini chizar ekanlar, ishda uslubiy ketma-ketlikka rioya qilmaydilar, darhol murakkab vazifalarni bajarishga kirishadilar va tez orada muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Va-

holanki, bosh rasmi ustida ishlashning uslubiy bosqichlari ham o'ziga xos xususiyatlarga egaki, ularni rasm chizuvchi, albatta, bilishi kerak.



106-rasm

O'quv materialini yaxshi o'zlashtirib olish uchun chizuvchi ushbu ish bosqichida qaysi vazifani amalga oshirishi, tasvir qurishning qaysi jihatlariga alohida e'tibor qaratishi kerakligini bilishi zarur. Talaba naturani kuzatish va tahlil etish hamda rasmni konstruktiv chizish-qurish jarayonida aniq tizimga rioya qilishi kerak. Rasm ishlashning uslubiy izchilligidagi barcha nozik tараflarni Antinoyning gipsdan yasalgan haykali boshini chizish misolida ko'rib chiqamiz. Biz rasm ustida ishlashning uslubiy ketma-ketligini bayon eta borib, bir yo'la tirik odam boshi shakli qurilishining asosiy qonuniyatlari va tasvirlash usullarini (jumladan, ishning texnik usullarini) o'rgana boramiz (104–105-rasmlar). *Birinchi bosqich* – kompozitsiyaviy joy lashtirish. Ish qog'oz yuzasida rasm kompozitsiyasini topib, ifoda etishdan boshlanadi.

Tasvirni yuzada qanday joylashtirish qulayroq bo'lishini, qaysi nuqtadan turib qaralganda shakllarning qurilish xususiyatlari ifodalibroq ko'rinishini bilish niyatida naturani oldindan har tomonlama o'rganib, ko'rib chiqish lozim. Talaba rasm kompozitsiyasini qog'oz yuzasida har taraflama to'g'ri va chiroyli joylashtirishni o'rganishi kerak. Shuning uchun tasvirlanajak gips bosh eng ifodali ko'rinadigan nuqtani tanlash unga kompozitsiya masalasini yaxshiroq, talab darajasida hal qilishga yordam beradi.

Lekin kompozitsiyani topishda qandaydir alohida bir qoidani mahkam ushlab olishning hojati yo'q. Masalan, ba'zilar to'rtidan uch qism burilishda yoki profildagi (yon tomon) bosh shaklini chiza turib, yuz qismi oldida, albatta, katta maydon qoldirish kerak, deb

hisoblaydilar. Lekin, hattoki, buyuk rassom – ustalar asarlarida ham bunday qilinmaganini ko‘ramiz.


Ko‘pchilik portretlar qog‘oz yuzasining o‘rtasida jamlanadi. Uyg‘onish davri rassomlari merosida qator portretlar mavjudki, ularda boshning yuz qismi rasm chetiga juda yaqinlashtirilgan. O‘quv akademik rasmida kompozitsiya o‘quv vazifasini hal qilish bilan birga uni murakkablashtirmasligi kerak. Masalan, talaba old tomondan yoritilgan boshni xolis fonda chizishi kerak, deylik. Yuqorida aytilganidek,



107-rasm

boshning yuz qismi oldida katta maydon qoladi. Shaklni tushlashga kirishar ekan, u boshdagi soyalar kompozitsiyani buzganini va tus muvozanati yo‘qolganini ko‘radi. Shuning uchun u rasm chizishdan oldin qator xomaki chizgilar bajarib ko‘rishi zarurki, ularda kompozitsiya masalasi hal etilsin. Talaba eng qulay nuqtani tanlab olishi kerak, ya‘ni u duch kelgan joyga o‘tirib olaverishi maqsadga muvofiq emas. Vaholanki, ko‘plab talabalarda ana shunday qusur bor.

Bundan tashqari, shogird o‘zi chizayotgan rasm oxir oqibatda qanday ko‘rinishga ega bo‘lishini, xayolan bo‘lsada, yaqqol tasavvur qilishi lozim. Faqat shundan keyingina qalamni qo‘lga olishi va rasmni qog‘oz sathiga dadil joylashtirib, ifodalashni boshlashi mumkin. *Ikkinchi bosqich* – bosh shaklining xarakterli xususiyatlari, o‘lcham munosabatlarini, ya‘ni nisbatlarini va boshning kenglikdagi holatini ochib berish. Bosh shaklining o‘ziga xos xususiyatini ochib berishga kirishishdan oldin talaba haykal-naturani diqqat bilan o‘rganib chiqishi, shakl qurilishining eng muhim xususiyatlarini aniqlab olishi lozim.



108-rasm

Bu o‘rinda natura nihoyatda obyektiv, to‘g‘ri idrok etilishi kerak. U subyektiv taassurotlar asosida emas, balki jiddiy ilmiy bilimga tayangan holda idrok etishi va tasvirlashga kirishishi kerak. Ma‘lumki, naturani o‘rganish uni bevosita diqqat bilan kuzatishdan boshlanadi. Rassom, eng avvalo, shaklning umumiy xususiyatini, boshning fazoviy holatini ilg‘ab oladi, shundan keyingina alohida qismlar va yaxlitliklar, o‘lchamlararo farqlar, nisbatlarini chamalab aniqlay boshlaydi (108-rasm). Natura bilan oldindan bunday batafsil tanishib chiqish obyektiv tahlil qilishga o‘tish uchun asos xizmatini o‘taydi. Bosh shakli tasviri qog‘ozda qalam bilan juda yengil belgilanib, nozik, umumiy va chiziqli konstruktiv tarzda aks ettiriladi. Natura katta shakli umumiy tuzilishining asosiy xususiyati ochiladi. Ko‘pchilik talabalar rasmda chiziqlardan qanday foydalanish kerak, bosh shaklini birdaniga aniq chiziq bilan ifodalash kerakmi yoki faqat yengilgina chizish kerakmi, deb so‘raydilar. Bu masalada fikr bildirgan P.Chistyakov shunday yozgan edi: “Bu o‘rinda har xil usullar bo‘ladi: bir kishi qo‘lida qalam bilan uzoq vaqt qarab turadi va so‘ng shaklni tasvirlaydi, boshqasi esa qalamni qog‘oz ustida tez-


tez yurgiza boshlaydi va shu bilan birga bir yo‘la belgilar chizadi, ya’ni ham joy, ham harakat ustida ishlaydi. Xo‘sh, qaysi biri durust? Har ikkisi ham yaxshi. Eng asosiysi – bosib chizmaslik. Chunki qora chiziqlar xatolarni ko‘rishni qiyinlashtiradi.



*109-rasm*

Bu xatolarni tuzatish esa, undan-da, qiyin”. Rassom bosh shaklini tahlil qilar va uni ifoda etar ekan. U avvalo, shaklning umumiy massasi, xususiyati, mutanosiblik, o‘lchamlararo nisbatlarni belgilab topib, yuzaga chiqarishi lozim. Ya’ni yengil chiziqlar bilan boshning umumiy ko‘rinishini ifoda qila olishi kerak. Bosh shakli va uning umumlashirilgan ko‘rinishdagi o‘ziga xos qiyofasini ochishda boshqa qismlar bilan taqqoslash usulidan foydalanish lozim. Talaba o‘z qarshisida turgan bosh shaklining umumiy xususiyatini osonroq ilg‘ab olishi uchun ko‘zlarini salgina qisib qarashi kerak, shunda shaklning hamma detallari yo‘qoladi hamda hajmning umumiy massasi ko‘rish maydonida qoladi. Yaxlit holda idroklanadi. Antinoy bosh shaklini ko‘rib chizar ekanmiz, biz uning chakka qismi ancha keng ekanligini va dahani torayib borganini ko‘ramiz. Agar bosh shaklining old qismiga qaraydigan bo‘lsak, u uchburchak shakliga o‘xshashini sezish mumkin: ya’ni, boshning yuqori qismi (sochlar) jag‘ qismidan kengroq, jag‘ qismi esa dahandan keng ekanligi namoyon bo‘ladi. Boshning umumiy ko‘rinishini belgilab olib, uning har bir qismiga ko‘z yugurtirib chiqish kerak. Ular 5 ta asosiy yuzadan

iborat: peshona, yonoqlar, koʻz kosalari va ulardan boʻrtib chiqqan koʻzning sharsimon shakllari, shuningdek, burunning prizmatik shakli. Rasmda lablar, dahan va yonoqlarni belgilab beradigan yuza yoʻnalishlarini aniqlab olamiz.




110-rasm

Lekin ularni hozircha chizib chiqmaymiz, balki joylashgan yerini bilib olamiz va ular boshning umumiy xususiyatiga qanday taʼsir etishini tekshirib chiqamiz. Asosiy yuzalar, boshning umumiy massasini aniqlash bilan bir paytda, shu yerning oʻzida boshning egilganligi va burilib turish holatini aniqlaymiz: yaʼni bosh vaziyatini tomoshabinga toʻgʻri koʻrsatishga harakat qilamiz. Boshning egilganlik holatini toʻgʻri topish uchun qanshar va dahan oʻrtasini xayolan toʻgʻri chiziq bilan tutashtirish kerak va bu chiziq

tasvirdagi vertikal oʻrtasida qanday burchak hosil qilishini bilishga yordam beradi. Keyin profil chizigʻi bilan vertikal oraligʻidagi egilish burchagini aniqlab olib, boshning egilganlik holatini ham toʻgʻri belgilab olish mumkin boʻladi. Boshning fazo kengligidagi holatini aniqlash bilan bir qatorda, bosh va boʻyinning oʻzaro mutanosibligini tekshirib olish kerak. Boshning boʻyin bilan bogʻlanishini koʻrar ekanmiz, konstruktiv anatomik qonuniyatlar haqida ham toʻxtalib oʻtishimizga toʻgʻri keladi. Bosh kamdan-kam hollarda boʻyin va yelka kengligisiz tasvirlanadi. Uning yelka kengligi bilan uzviy tarzda bogʻlanmagan holati kamdan-kam boʻladi. Bunday holat portretning fazodagi koʻrinishini ishonchli tarzda ochib berolmaydi. Buni biz, hatto, boʻyin va yelka kengligi toʻla chizilmagan va ushbu misolimizda keltirilgandek, u faqat kontur chiziq bilan belgilab qoʻyilgan taqdirda ham yaqqol sezamiz. Oddiy geometrik shakllarga qiyoslab boshni tuxumsimon, boʻyinni silindr, yelka kengligining yuqori qismini esa romb shaklida oʻzaro bogʻliq holda koʻramiz (111-rasm). Bu oʻrinda

bo‘yin gavda va bosh o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘in hisoblanadi. Yelka kengligining yuqori qismi romb ko‘rinishida bo‘lib, uning tomonlari ko‘krak va o‘mrovlardir.

Bu romblarning diagonallari akromial o‘simtalari uchlarini tutashtiruvchi va yettinchi bo‘yin umurtqasida bo‘yinturiq chuqurchasidan pastga ketuvchi chiziqlardir. Bo‘yinning silindirsimon shakli old tomondan yaxshi ko‘rinadigan ko‘krak so‘rgtich – o‘mrov mushaklari, orqa tomondan esa bo‘yin umurtqasining ikki tomonda joylashgan “kapyushon” mushaklaridan iboratdir. Bu mushaklar kalla suyagi qutisini yelka kengligi bilan tutashtirib turadi. Boshning kengligini holati ishonchli bo‘lishi bo‘yin harakati



*III-rasm*

xususiyatini ochib beradi va, shuningdek, bo‘yin harakati ham boshning kenglikdagi holatiga bogliqdir. Buni kesik bosh namunasini chizish orqali yanada chuqurroq o‘zlashtirib olish mumkin.

Rasmlarda inson portretini kesik shakllar orqali ishlash namunasi ko‘rsatilgan bo‘lib, bu vazifa talabaning inson qiyofasini tasvirlashini ancha osonlashtiradi. Bu usulga Uyg‘onish davri rangtasvir, qalamtasvir ustalari Albrex Dyurer va Shonlar asos solganliklari to‘g‘risida ma’lumot bergan edik.

Dastlab boshning old qismini ikki teng va simmetrik qismlarga ajratuvchi profil chizig‘ini belgilab olamiz. Bosh to‘rt dan uch burilishda joylashgani uchun yuz qismi perspektiv qisqarishda bo‘ladi. Shu sababli profil chizig‘i perspektiva qonuniyatiga ko‘ra, uzoqdagi qismni kichik (qisqarishda), yaqindagisini esa katta qismlarga ajratishi kerak. Lekin bunda juda ehtiyot bo‘lish, o‘zgarishlarga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Rasmda biz perspektiv hodisalarni to‘g‘ri


ilgʻashimiz va profil chizigʻi boshning old qismini teng ikki boʻlakka ajratishini koʻrsatishimiz kerak. Talabalar koʻpincha profil chizigʻi bir tarafga surilishiga yoʻl qoʻyadilar, bu esa bosh shaklining butunlay oʻzgarishiga olib keladi. Chunki profil chizigʻi rasm chizuvchi uchun asosiy moʻljal hisoblanadi. Profil chizigʻini belgilab olganimizdan soʻng, uni uchta teng qismga boʻlish kerak. Bunda oʻlchamlar mutanosibligining klassik qonuniyatidan unumli foydalanish darkor. Boshning old qismlari uchta teng qismga ajraydi: soch qoplamasi chizigʻidan qosh usti yoylarigacha, qosh usti yoylaridan burun asosigacha va burun asosidan dahan tagigacha. Qosh usti yoylaridan burun asosigacha boʻlgan kesim ham oʻz navbatida uchta teng qismga ajraydi: birinchi (qosh usti yoylaridan) va ikkinchi qism oʻrtasidan koʻz qismlari chizigʻi oʻtadi, u jagʻ suyagi, koʻz burchaklari va koʻz yoshi qopchigʻi chokklarini kesib oʻtadi. Burun asosi oʻrtasidagi kesim ham uchta teng qismga ajraydi: birinchi va ikkinchi qismlar oʻrtasidan ogʻizning oʻrta chizigʻi oʻtadi, u **lablar kesim chizigʻi** deb ataladi. Koʻzlar orasidagi masofa koʻz kattaligiga teng. Boshning baʼzi boʻlaklari shaklini tasvirlashga hozircha eʼtibor bermaymiz. Bu bosqichda faqat ularning joylashgan oʻrnini aniqlaymiz, qismlar va yaxlitlik nisbatlarining toʻgʻriligini tekshiramiz. Koʻzlar, burun teshiklari, lablar oʻlchamlarini ham hozircha chiziqchalar yoki nuqtalar bilan belgilab qoʻyamiz, shuning oʻzi ularning joylashuvi va kattaligini aniqlash uchun yetarlidir. Inson boshining tuzilishi konstruktiv sxemasi bilan siz birinchi bosqichda tanishib chiqqansiz. Endi uni ushbu vazifada toʻrt dan uch qism burilishda, ufq chizigʻi darajasidan balandroqda turgan holatda belgilab olishga harakat qilamiz.

Profil chizigʻi peshona oʻrtasi, qanshar, burun, lab bantlari va dahan oʻrtasidan oʻtadi. Qosh usti yoylari, koʻzlar kesimi, burun asosi, lab va dahan kesimlari tuxumsimon bosh shakliga asosan biroz egilgan va yuqoriga qaratilgan. Bu chiziqchlarning hammasi parallel boʻlishi kerak. Agar bu qonuniyatga rioya qilmasak, perspektivada katta xatoga yoʻl qoʻyishimiz mumkin. Bunday holni bosh rasmini chizishda yaxshigina tajribaga ega boʻlgan rassomlarda

ham kuzatishimiz mumkin. Yo‘l qo‘yilgan xato shundan iborat bo‘ladiki, boshning old qismi tomoshabindan uzoqlashishiga qarab kichraymaydi, balki, aksincha, kattalashadi, ya‘ni tomoshabinga yaqin qosh usti yoylari va dahan (jag‘) asos chiziqlari o‘rtasidagi masofa kichik, uzoqlashgani esa katta bo‘lib qoladi. Boshning to‘rtidan uch burilishdagi gorizontal yuqori holatida, bizning misolimizdagidek, bizga yaqin bo‘lgan ko‘z uzoqlashsa – balandroq, qosh usti yoylari, ko‘z kesmalari, burun va og‘iz asoslarining chizig‘i uzoqlashishiga qarab pastroq bo‘ladi. Boshning asosiy bo‘laklarini tasvirlashga (ko‘zlar, burunlar, soch tolalari va hokazolarga) kirishilar ekan, albatta, shakl asosi – mazmunidan kelib chiqish kerak, ya‘ni: burun – bu prizma, ko‘z esa shar ekanligini yodingizdan chiqarmang va ushbu bo‘laklarni turli nuqta va holatlardan alohida tasvirlashga harakat qiling. Zero, ular orqali siz bosh bo‘laklari, ularning tuzilishi haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lasiz. Uzoq muddat davom etadigan rasm ustida ishlashda chizuvchining qarash nuqtasi butun rasm chizish jarayonida o‘zgarmay qolishi kerak. Dam olib, tanaffus qilib kelingandan so‘ng avvalgi nuqtani toppish uchun quyidagi usullarni tavsiya qilish mumkin: rasm chizuvchi e‘tiborini qanshargaga va uning ko‘zidan uzoqroqda turgan ko‘z yoshi qopchig‘iga (agar bosh to‘rtidan uch qism burilishda turgan bo‘lsa) qaratsin. Boshning to‘rtidan uch qismi burilish holatida burun uchi uzoqroqdagi ko‘zni yopib qo‘yadi, shunda ko‘z qanchalik to‘silib qolganligini, ya‘ni ko‘z yoshi qopchig‘i qay darajada ko‘rinayotganligini yoki u qanshar ortida qanday yopilib qolganligini bilib olish kerak. Yana boshqa usul – tasvirlangan obyekt bilan naturani solishtirish juda katta tezlikda amalga oshiriladi va uning xato va kamchiliklarini aniqlash imkoni tug‘iladi. Talaba bosh rasmini chizish jarayonida juft va simmetrik shakllarning to‘g‘ri taqsimlanganligiga alohida e‘tibor berishi kerak. Buning uchun quyidagilarni tavsiya qilish mumkin: birinchidan – juft va simmetrik shakllarni bir vaqtning o‘zida chizish lozim, ikkinchidan – har bir juft va simmetrik shakllar chetidan boshqasiga qarata parallel chiziqlar tortish kerak. Masalan, ko‘z qorachig‘i (olmasi)ning yuqori cheti o‘ng va chapdan bitta chiziqda turishi kerak,

bunda bitta ko‘z qovog‘ining kengligi va qalinligi belgilab olinib, darhol ikkinchisiga o‘tilishi lozim. Ko‘zlarning sharsimon shaklini ochib borib, ko‘z qovoqlarini darhol aniq chizmay, faqat ularning kengligi, qalinligi va har bir qovoqning yo‘nalishini belgilab oling. Sizga yaqinroq turgan ko‘zning yuqori qovoq qoqilishi ko‘z yoshi qopchig‘iga, uzoqroqdagi ko‘zniki esa ko‘z burchagiga yaqinroq bo‘ladi. Qovoqning pastrog‘ini esa, hatto, belgilamasa ham bo‘ladi. Burun prizmasini chiza turib profil chizig‘ini qanshar va burun asosi o‘rtasidan o‘tkazishga harakat qilamiz. Boshning old qismiga nisbatan ham shunday yo‘l tutamiz. Bosh shaklini tasvirlashning dastlabki bosqichlarida yordamchi chiziqlardan foydalanish usullari – rasmlarda ko‘rsatilgan. Lekin ular perspektiv qisqarishda bo‘lganligi uchun o‘rtani chamalab topamiz. Masalan: profil chizig‘i ikkita teng va simmetrik qismlarga ajratadigan boshning old qismini aniqlay borib, bir yonoq chetidan profil chizig‘igacha va profil chizig‘idan ikkinchi yonoqqacha bo‘lgan masofani qalam bilan o‘lchash mumkin emas; chunki profil chizig‘iga nisbatan yuzning chap qismi kichikroq, o‘ng qismi esa kattaroq bo‘ladi.

Bosh shaklini tasvirlashning dastlabki bosqichlarida yordamchi chiziqlardan foydalanish usullari rasmlarda ko‘rsatilgan. Shuningdek, talabalar uzoq muddatga mo‘ljallangan akademik vazifalarni bajarish davomida antik davrga mansub gips bosh niqoblarini ham qalamchizgi bilan chizishlari muhim.



*112-rasm*

Professional rassomning mahorati – uning rasmni yengil va erkin chizib ifoda eta olishidadir. Bunga muntazam ravishda, aniq maqsadni ko‘zlab faol ijod qilish orqali erishish mumkin. Tasvirlashning dastlabki bosqichlarida iloji boricha kam vaqt sarflab rasm chiza bilish mahoratdan dalolat beradi. Shuning uchun akademik mashg‘ulotlarda tasvirlashga ko‘p vaqt sarflayotgan bo‘lsangiz, u holda uyda yoki rasm chizish bo‘yicha qo‘shimcha mustaqil dars soatlarida maxsus mashqlar bajarib turishingiz shart. O‘quv akademik rasm chizish jarayoni professional mahoratning mustahkam poydevorini qurish va pedagog-rassomni tarbiyalashda muhim bosqich hisoblanadi. Shu munosabat bilan yosh rassomning diqqat-e’tiborini yana bir narsaga qaratish zarur. Ba’zi talabalar ishning alohida bosqichlarini tahlil qilib, rasm ustida ishlashning unchalik to‘g‘ri bo‘lmagan uslubiyotini “ixtiro” qiladilar. Ishning bitta bosqichini bajarib (chiziqli-konstruktiv tasvirini), undan keyin bu ishga qaytmaydilar va rasmga hech qanday tuzatish kiritmaydilar. Vaholanki, tasvirlashning butun davomli jarayoni tikomillashib borgani sari rasm aniq ifoda kasb eta borishi kerak. Mana shuning uchun ham biz dastlabki bosqichlarda rasmni yengilgina, qalamni qog‘ozga salgina tekkizib chizishni tavsiya etamiz.

*To‘rtinchi bosqich* – shaklni batafsil, barcha mayda-chuydalari-gacha ishlab, poyoniga yetkazish. Ishning bu bosqichida katta shaklni asta-sekin bo‘laklar bilan uyg‘unlashtirish jarayoni kechadi. Rasm chizuvchi katta shakl tahlilidan kichik shakllar tahliliga o‘tadi (umumiy shakl ko‘rinishiga moslab). Bitta bo‘lakning o‘rni va kattaligini aniqlay borib, uni boshqasi bilan uyg‘unlashtirish kerak. Masalan, burun rasmini chizayotganda uning ko‘z yoshi qopchig‘i, jag‘ suyaklari, quloqlar, lablar burchaklariga nisbatan qanday joylashayotganligini nazardan o‘tkazib borish kerak. Talaba quyidagi qoidaga qat’iy rioya qilishi, ya’ni: *bo‘laklar rasmini chizayotganda ular boshqalari bilan. umuman, katta shakl bilan qanday uyg‘unlashayotganligini doimo tekshirib borishi lozim.* Shaklni tus orqali modellashtirishda zarur bo‘lgan yerlarda reflekslar uchun qog‘ozda oq joy qoldirmang. Avval soyaning oddiy vositalari – yorug‘lik, yarim soya, soya yordamida

shakl hajmini chiqaring, shundan keyingina refleksga e'tiborni qarating, uni o'rab turgan yuzalar tusiga kuch bering, hech qachon to'liq tus berishga shoshilmang – uni qalamni qog'ozga bosmasdan, asta-sekin yuzaga chiqaring. Ma'lumki, boshlovchi rassomlar peshona, yonoqlar, dahan shakllarini modellashtirishda katta qiyinchilikka duch keladilar.

Yorug'likdan – yarim soyaga va soyaga tus berib, bir tekis o'tishda talaba chegaralarning o'rnini aniq ko'ra olmaydi va ko'rinayotgan hamma narsalarni passiv tarzda ko'chira boshlaydi. U bosh shaklining umumiy xususiyati haqida o'ylamaydi ham. Natijada katta shakl bo'laklarga bo'lina boshlaydi, yaxlitlik yo'qoladi. Boshning to'rtidan uch qismi burilishini tasvirlashda uzoqdagi yonoq cheti aniq chiziladi. Boshning old qismi simmetrik tarzda qurilishini hisobga olgan holda, profil chizig'ini (xuddi ko'zgudagi aks kabi) uzoqdagi yonoq rasmining bizga qaratilgan yuzasiga o'kazish mumkin.

Agar tomoshabinga qaratilgan yonoq yuzasi yoritilgan bo'lsa, u holda ushbu chiziq chegarasi bo'ylab eng yoritilgan qismi joylashadi, u shu'lalanishi ham mumkin, agar bizga qaratilgan yonoq yuzasi (bizning misolimizda) soya ostida bo'lsa, u holda bu chiziq nur va yarim soya o'rtasida chegara bo'lib xizmat qiladi. Peshona va dahanni tus bilan shakllantirishda ham ana shunday yo'l tutiladi. Ko'z shaklini modellashtirishda shuni yodda tutish kerakki, u, asosan, sharsimon shakl bo'lib, ko'z kosasi ichida joylashadi. Shuning uchun ham ko'z qovoqlarini chizayotganda yuqori qovoqning pastki chetiga (ichkarisiga) diqqat bilan qarang: qovoqning yuqori chetini ko'z olmasidan tashqari, yana ko'z yoshi qopchigini ham qoplagan. Agar biz ko'z shaklini vertikal yuza bilan kesadigan bo'lsak, u holda kesma izi ana shu shaklning plastik – tuzilishini, ya'ni uning uch o'lchamliligini yaqqol ifoda etadi.

Bundan tashqari, qovoq qalinligining qisqarishiga ham e'tibor qaratish zarur. Bu haqda bosh shakli detallarining rasmini chizish bobida alohida to'xtalib o'tilgan. Tasviriy san'atda shakl bo'laklarini batafsil ishlash nafaqat tasvirning to'g'ri chiqishini, balki uning ifodali bo'lishini ham nazarda tutadi. Talaba shakl hajmidan

tashqari yuza fakturasini ham oydinlashtirishga erishsa, tasvirning ifodaliligi yanada oshadi. Gips bosh shaklini tasvirlashda talaba – yosh rassomlar, odatda, rasmni juda qoraytirib yuboradilar. Bosh shaklining ayrim detallarini soyada ishlashda ular qalamni qog‘ozga qattiq bosadilar, natijada gips xususiyatini ochib bera olmaydilar. Bunday hollarda buyuk rassom va pedagog A.Deyneka (u bilan birga ishlagan o‘qituvchilarning xotiralariga qaraganda) o‘z talabalariga gips bosh yonida qora sochli va oftobda toblangan tirik inson turibdi, deb tasavvur qilish zarurligi haqida gapirgan. Ana shu ikki boshni siz qog‘ozda tasvirlashingiz kerak. Agar siz gipsdagi soyalarda qalamni bosib chizishga berilib ketgan bo‘lsangiz, endi siz qanday vositalar bilan qora sochlar tusini ochib bera olasiz? Axir, siz bu yerda oq gips shaklini chizayapsiz. Sizda esa cho‘yan quyma hosil bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham qalamni qog‘oz yuzasiga qattiq bosmaslik haqida takror va takror aytib o‘tish joizdir. Rasm chizish uchun 3,4, 5-raqamli yumshoq qalamlardan foydalaning. Bu o‘z qo‘lingizni mashq qildirib, uni qalamni boshqarishga o‘rgatishda, albatta, qo‘l keladi. Rassom o‘z mehnat qurollari bilan ishlash ko‘nikmasini egallashi kerak. U qalam bilan ishlaganda, kamon tortayotgan g‘ijjakchi kabi o‘z qurolini mohirona ishlata bilishi lozim. Kamonchi kerak yerda kamoni juda nozik tarzda, ohang maromiga mos, tortarga yengilgina tekkizgan holda tortadi. Rassom ham xuddi shunday. U qalamni o‘ynata bilishi. kerak yerda qattiqroq bosib, kerak yerda qog‘oz ustida yengil, nozik harakatlar qidira bilishi lozim.

*Beshinchi bosqich* – rasm ustida ishlash natijalariga yakun yasash. Qalamtasvir ustida ishlashning so‘nggi bosqichida, eng avvalo, rasmning umumiy holatini tekshirib olish kerak (detallarni umumiy shaklga bo‘ysundirish, rasmni tushlash, to‘q-ochlik nisbatlarini aniqlash, shu‘la bilan yorug‘lik, refleks bilan yarim soyani taqqoslash). Tasvirlangan narsaning ba‘zi bo‘laklari umumiy ko‘rinishdan ajralib, turtib chiqib turishi kerak emas. Shundan so‘ng hamma narsa o‘z o‘rnida yoki o‘rinda emasligini aniqlang. Shaklni har taraflama ishlashda siz rasmni joyidan siljitib yuborgan bo‘lishingiz mumkin. Xatolarni ko‘rish oson bo‘lishi uchun rasmni uzoqroq masofaga qo‘yib,

unga yaxshilab qarang. Leonardo da Vinchi o‘zining “Rangtasvir haqida kitob” asarida quyidagicha maslahat bergan edi: *Biz shuni aniq bilamizki, xatolar o‘z asaringdan ko‘ra begona kishilar asarida tezroq ko‘zga tashlanadi va ko‘pincha sen o‘zgalarning kichkinagina xatosini ko‘rasan u, o‘zingning katta xatoingni ko‘rmaysan. Shuni ta’kidlaymanki, rasm chizayotganingda senda katta ko‘zgu bo‘lishi kerak va sen unda o‘z asaringni tez-tez ko‘rib turishing lozim. Tayyor ko‘zga tashlanib turgan narsa esa, aksincha, boshqa usta qo‘li bilan bajarilgandek tuyulaveradi senga.*

*Shunda sen dastlabki holatga qaraganda o‘z xatolaring ustida yaxshiroq mulohaza yurita boshlaysan. Shuningdek, o‘rindan turib, biror-bir boshqa ish bilan mashg‘ul bo‘lib qaytish ham yaxshi. Chunki asaring tepasiga yana qaytganingda, u haqda yaxshiroq mulohaza yuritasan, agar sen doimo uning qarshisida o‘tirsang, qattiq aldanib qolasan. Shuningdek, undan uzoqlashish ham yaxshi, chunki shunday qilinganda asar kichikroq ko‘rinadi, bir nazar bilan butun asar hajmini osonroq ko‘rasan.*




*113-rasm*

Akademik mashg‘ulotlarda kasbiy bilim va malaka egallar ekan, oliy va o‘rta badiiy bilim yurti talabasi o‘z ijodiy faoliyatini doimiy ravishda faollashtirib, badiiy didini rivojlantirib borishi kerak. Bunga


obrazli ko‘rish, obrazli fikrlash, muntazam shug‘ullanish va buyuk ustalar asarlarini o‘rganish orqali erishish mumkin. Bosh rasmini chizishda uning old qismi rassomni ko‘proq jalb qiladi. Ko‘zlar, burun, lablar va quloqlar shaklini diqqat bilan ishlash talab etiladi. Lekin bu shakllarni detallashtirish, batafsillashtirish jarayoni shakl tuzishning ma’lum qonuniyatlariga bo‘ysunishi kerak. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash kerakki, oliy ta’lim talabalari tasviriy faoliyat bilan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishlari lozim.

Buyuk rassomlarning ishlarini ko‘rib tahlil etish, shuningdek, ulardan ko‘plab nusxalar olish ko‘zlangan maqsadga erishishda katta ahamiyat kasb etadi.



*114-rasm*

## NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN KROSSVORD




### Eniga

5. Natyurmort kompozitsiyasini formatga tog‘ri va chiroyli joylashtirish.
6. Tasvirlashda buyumlarning qisqarib ko‘rinishi fan tilida qanday ataladi.
9. Natyurmortdagi buyumlarning ichki ko‘rinishini chiziq turlari asosida tahlil qilib qurish fanda qanday ataladi.
10. Tasviriy san‘atning asosi bo‘lgan fan.
14. “Yoshlar o‘zlarini ilm-fan, tasviriy san‘atda sinamoqchi bo‘lsalar, avvalo rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir”. ushbu buyuk so‘z qaysi rassomga tegishli.
15. Bir jismdan boshqa bir jismga tushgan yorug‘likning qaytishi yoki sinishi.
17. Tekislikda yotgan markazidan teng uzoqlikdagi nuqtalar to‘plami... .
20. Inson ko‘zi balandligidan o‘tuvchi chiziq tasviriy san‘atda qanday nomlanadi.
21. Loyihalash yoki yasash uchun birinchi chizib olinadigan tasvirlar qanday nomlanadi.

## **Bo'yiga**

1. Kvadratning markazini topish uchun uning ... birlashtiriladi.
2. Qisqa vaqtda tasvir ishlash nima deb ataladi.
3. Natyurmortdagi buyumlarga tushgan tabiiy yoki suniy yorug'likdan xosil bo'lgan yaltirash fanda qanday ataladi.
4. Tasviriy san'at darslarida qo'llanladigan suniy yoritgich nomi.
7. Tasvirlashda zarur bo'lgan inson a'zolaridan biri.
8. Markazidan ikki tomoni teng bo'lgan buyum yoki tasvirlar qanday ataladi.
11. Gipsdan ishlangan me'morlik elementlari shakillari fan tilida bir nom bilan qanday ataladi.
12. Buyumlarni o'ziga nisbatan katta yoki kichik qilib formatga sig'dirish jarayoni fan tilida qanday ataladi
13. Qalamtasvir bajarish uslubiga ko'ra asl nusxa (original) va .... turlarga bo'linadi.
16. Tasvirlashda ishlatiladigan molbert o'zbek tilida qanday ataladi.
18. Buyumlarning bir-biriga taqqoslanishi qanday ataladi.
19. Bitta uchga va bitta asosga ega aylanish sirti.



## Eniga

4. Tabiatdan olingan murakkab shaklni soddalashtirib ifoda etish
6. Taniqli fransuz rassomi tomonidan ishlangan “Shar ustidagi qizcha” nomli asarning muallifi kim?
7. Jonsiz tabiat ma’nosini beruvchi tasviriy san’at janri
9. Gretsiya me’morchilik san’atida Afina xudosiga bag’ishlangan eng buyuk obida
10. Ma’lum bir kishi qiyofasini aks ettiruvchi surat, asar. Tasviriy san’at janrlaridan biri
13. Narsaning shaxsiy va tushuvchi soyasidagi aks shu’lasi
16. Rasm chizishga mo’ljallangan yumshoq material bo’lib, tarkibi loy, bo’r, yelim va rangli kukunlardan iborat rassom ish quroli
17. Qalamtasvirda buyumlarning och-to’qlik darajasini bildiruvchi tushuncha
18. Bo’yoq kukuniga yelim aralashtirib tayyorlangan rangli qalam
19. Abu Rayxon Beruniy portretining muallifi kim?

## Bo'yiga

1. Inson boshi uzunligi gavda o'lchov birligi etib tavsiya etgan rassom?
2. Barcha san'at turlarning asosi
3. "Diskobol" haykali muallifi
5. Tasviriy san'atda tasvirlanayotgan obyektning qog'ozga to'g'ri joylashtirilganligi nima deb nomlanadi?
8. Klassik Gretsiya san'atini "Ellinizm" darajasiga ko'targan buyuk sarkarda
11. Bir mavzudagi uch bo'lakdan iborat san'at asari
12. Ko'zimiz to'g'risidan o'tadigan gorizonttal chiziq
14. Badiiy asar g'oyasini belgilovchi dastlabki chizma.
15. Rasm chizishga mo'ljallangan qalamcha shaklidagi yumshoq material bo'lib, tarkibi kaolina va temir oksidlaridan iborat rassom ish quroli
20. Tasvirlanayotgan narsadagi eng yorug' shu'la, qismi


## NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN INTERAKTIV TEST




## MASTER-KLASS VIDEO DARSLARI




# ILOVALAR




*115-rasm*




*116-rasm*





*117-rasm*




*118-rasm*




*119-rasm*




*120-rasm*



*121-rasm*



*122-rasm*



*123-rasm*



*124-rasm*



125-rasm




*126-rasm*



*127-rasm*



*128-rasm*



*129-rasm*



*130-rasm*



*131-rasm*




*132-rasm*




*133-rasm*




*134-rasm*




*135-rasm*



*136-rasm*




*137-rasm*



*138-rasm*




*139-rasm*



*140-rasm*



*141-rasm*



*142-rasm*

## Glossary

№	O‘zbekcha	Inglizcha	Izoh
1	<b>Assimetriya</b>	Asymmetry	qar. Simmetriya
2	<b>Blik</b>	Glare	(nemis. – nigoh) soya va yorug‘lik elementi. Buyumdagi eng yorug‘ nur tushgan, asosan jilolanib va yaltirab turgan qismi. Odatda, bu dog‘ yorqinligiga ko‘rabuyumning umumiy ko‘rinishidan yaqqol farqlanib turadi.
3	<b>Vatman</b>	Whatman	(angl whatman) – qalin qattiq qog‘oz. Juda sifatli, yuzasi ga‘dir – budur, mustahkam va yaxshi moylangan qog‘oz. Qog‘oz nomi ingliz qog‘oz korxonasi egasi J.Vatman sharafiga qo‘yilgan.
4	<b>Uyg‘onish davri</b>	Renaissance	(Renesans) XIV – XVI asrlarda Yevropa madaniyatida san‘at davri. Oqsuyaklarga hos fe‘l-atvor, gumanistik dunyoqarash, tarixga murojaat. O‘rta asrlardan so‘ng uning diniy yo‘nalishi va madaniy ko‘rinishi – go‘zallik va uyg‘unlikka intilish, hissiyotlarning boyligi va dunyoning turli-tumanliklariga, inson qiyofasiga tabiat toji deb qaralgan.
5	<b>Uyg‘unlik</b>	Harmony	(grek – birdamlik, o‘zaro kelishuv, uyg‘unlik) tasviriy san‘atda: rang va shakllarning o‘zaro uyg‘unligi, mos kelishi, tasvirdagi qismlarning o‘zaro aloqasi va shu bilan birga tomosha qilish uchun maroqli xususiyatga ega.
6	<b>Grafika</b>	Graphics	(grek.graphike, grapho yozaman, chizaman) 1. Tasviriy san‘at turi bo‘lib, asosiy tasviriy vositalar: qog‘ozga tushirilgan chiziqlar, shtrixlar, dog‘ va nuqtalar bilan rasm chiziladi. Grafika ikki turga bo‘linadi: tasviriy (rasm), muallif tomonidan chizilgan rasm va nashr qilingan: o‘yma naqsh, toshbosma. 2. Asosi shunday rasmdan iborat bo‘lgan nashr qilingan badiiy tasvirlar (o‘yma naqsh, toshbosma). Ranglar grafikada yordamchi vazifasini bajaradi.

7	<b>Grafit</b>	Graphite	(grek.grapho – yozaman). 1. To‘q kulrang yoki qora rangdagi mineral, uglerodning tabiiy turi. Qalam o‘zagini tayyorlashda qo‘llaniladi. Grafit matodan yoki boshqa materialdan qilingan qog‘ozga tushganda kumush iz qoldiradi. Grafit qalam XVIII asr oxirlaridan qo‘llanila boshladi, ilk marotaba u qattiq bo‘lishi uchun grafit va loyni kuydirish yo‘li bilan tayyorlandi. 2. Toshqalam, o‘zak qalamning ichida joylashgan.
8	<b>Yakunlanish</b>	Completeness	asar ustidagi ishning shunday bosqichiki, unda ijodiy fikrlarning eng yuqori bisqichiga erishiladi yoki, qisqa ma’noda, belgilangan tasviriy vazifa bajariladi
9	<b>Tasviriy san’at</b>	Art.	badiiy ijodning bir turi, badiiy obrazlarni tekislik va makonda namoyon etadi. Bu tushunchalar tasviriy san’at, grafika va me’morchilik, shuningdek arxitekturaning har xil turlarini birlashtiradi.
10	<b>Tasvir</b>	Item image	belgilangan obyektни tasvirlovchi buyum, obraz, rasm. Tasviriy san’atda yaratilayotgan asarlar (rasmda, kompozitsiyada va b.) haqiqiy dunyoning subyektiv tasviri hisoblanadi.
11	<b>Rasm</b>	Illustration	(lot.illustratio – yoritish, tasvir), matnni to‘ldiruvchi (rasm, gravyuralar, foto suratlar, xarita, chizmalar va b.) tasvir. Adabiyot va ilmiy asarlarning tasviriy yoritilishi.
12	<b>San’at</b>	Art	1. Ijodiy tasvir, butun borliqni badiiy obrazlarda yetkazib berish. San’at – jamoat fikri shakllaridan biri va ham bir insonning, ham butun odamzod madaniyatining bir qismi, barcha avlodlarning ijodiy faoliyatining turli natijalari. Tasviriy san’at, dekorativ san’at. 2. Mohirlik, ustalik, ishni chuqur bilish. 3. Shunday mohirlik talab qiluvchi ish

13	<b>Qalam</b>	Pencil	chizish, bo'yash va chizmachilikka mo'ljallangan buyum yoki yozuv quroli, ichi loyga o'xshash grafitli moddadan iborat bo'lgan yog'och tayoq, ichi ko'mir, qo'rg'oshin, grafit yoki quruq presslangan bo'yoqlardan (rangli qalamlar) iborat bo'lishi mumkin, odatda, ustki qismi yog'och yoki metallardan bo'ladi.
14	<b>Rasm</b>	Picture	tugallangan (eskiz va etyuddan farqli) va mustaqil badiiy ma'noga ega tasviriy san'at asari. Freska va kitob miniaturasidan farqli rasm belgilangan interer yoki belgilangan bezak tizimi bilan bog'lanishi shart emas.
15	<b>Karton</b>	Cardboard	(fran.carton, ital.cartone, carta – qog'oz). 1. Qalin, qattiq va juda pishiq qog'oz, oddiy qog'ozdan qalin. Qog'ozga tushirilgan rasm, eskiz, keyin u o'zakka tushiriladi (mato, devor, yog'och yoki metall tekislik).
16	<b>Konstruksiya</b>	Construction	(lot.) – tasviriy san'atda: mohiyat, natura va rasmda har qanday shakl yaratishning o'ziga xos xususiyatlari, qismlarni bir butunga bog'lash va ular munosabatini ko'rsatadi.
17	<b>Kontrast</b>	Contrast	(fran. – keskin farq, qarama-qarshilik) – tasviriy san'atda keng tarqalgan badiiy uslub, qarama-qarshi sifatlarni taqqoslash va ularni kuchaytirishga qaratilgan.
18	<b>Chiziq</b>	Line	(lot. Linea – zig'ir ip). Tasviriy san'at va rassomchilikda ifodali tasviriy vosita. Chiziq, grafik yoki bo'yoq vositalari bilan tasviriy yuzaga chizish orqali yuzaga keladi. Chiziq doim qalinlik, farqlilik va uslubga ega bo'ladi. Tasviriy san'atda chegara, biror-bir yuza va o'rab turuvchi muhit konturi hisoblanadi
19	<b>Molbert</b>	Easel	(nem.malbrecht – rassomlik san'ati uchun tokcha) – rassomlik san'ati uchun taxta yoki metall uskuna, turli balandlikda va turli nishablikda mato, karton yoki taxta bilan romlar qotiriladi.

20	<b>Mulyaj</b>	Dummy	natura yoki biron-bir haykaltaroshlik asaridan olingan aniq nusxa. Mum bilan bo'yalgan (yelim – gips va bo'r aralashtirilgan massa) meva, sabzavot va boshqa predmet mulyajlari ba'zida yordamchi ko'rish vositalari sifatida qo'llaniladi.
21	<b>Xomaki reja</b>	Sketch	rassom tomonidan tez bajarilgan, katta bo'lmagan o'lchamdagi rassomlik, grafika va haykaltaryoshlik san'ati asari.
22	<b>Natura</b>	Nature	tasviriy san'atda rassom chizayotganda kuzatadigan butun borliq obyektlari (predmet, odam, manzara). Naturani va uning ta'rifini tanlashda rassom dunyoni, o'z ijodiy vazifasini sezadi.
23	<b>Natyurmort</b>	Still	san'at janri, insonni o'rab turgan muhitni tasvirlaydi, qoidaga ko'ra, kompozitsion tashkil etilgan (o'rnatilgan). Jonsiz narsalar, jonli tabiat obyektlari, buyumga qaratilgan. Ramziy mazmunga va ijtimoiy o'xshashlikka ega.
24	<b>Asos</b>	Base	grunt yoki bo'yoq qatlami surtiladigan mato, taxta, faner, karton, qog'oz, shoyi va boshqalar.
25	<b>Asl</b>	Original	(lot. – asl nusxa) – 1. Tasviriy san'atda: rassomning ijodiy ishi; 2. Nusxasi olingan har qanday san'at asari.
26	<b>Pastel</b>	Pastel	(fran.pastel, lot.pastello, pasta – xamir), gardishsiz quruq, yumshoq, rangli qalamlarda rassomlik san'ati, kukun holatiga keltirilgan pigmentlarga kamed, sut, ba'zida bo'r, gips va boshqalarni qo'shib presslangan; shuningdek, shu texnikada ishlangan asar.
27	<b>Perspektiva</b>	Perspective	(fran.perspective, lot.perspicio – aniq ko'raman), tekislikdagi katta tanalar tasviri, ularning o'z joy tuzilishi va joylashgan o'rni, shuningdek kuzatuvchidan uzoqligi yetkazib beriladi.

28	<b>Plakat</b>	Poster	grafika turi, tashviqot, reklama va o'qish maqsadlarida bajarilgan san'at asari. Rassom tomonidan yaratilgan asl nusxaning nashriyotda qayta ishlab chiqarilishi. Uzoq masofada ham ko'rinishi kerak.
29	<b>Mutanosiblik</b>	Plasticity	har xil san'at asarlarida: o'ziga xos go'zallik, butunlik, noziklik va ta'sirchanlik, ranglarga boyligi, shuningdek, kompozitsiyada chiziq-lar, massa va shakllar mutanosibligi.
30	<b>Yarim soya</b>	The penumbra	yorug'lik va soya elementi; yorug'lik va chuqur soya orasidagi joyni egallovchi, predmet ustidagi yorug'lik va soya siyqallashishi.
31	<b>Nisbat</b>	Ratio	bo'laklar o'lchami, bo'laklarning bir biriga va bir butunning o'lchamlariga mosligi. Tasviriy san'atda nisbatning ko'plab turlari mavjud. Rassom nisbatning barcha turlari bilan ishlaydi. Ular nafaqat shakl va predmetlarning tuzilishini, balki asarning kompozitsion tuzilishini ham belgilaydi.
32	<b>Rasm tush, sepiya, siyoh. Asosi: pergament, qog'oz</b>	Figure	grafik vositalar – chiziq-lar, shtrix, dog'lar yordamida qo'lda chizilgan tasvir. Ularning uyg'unligi plastik shakl, rang va nur uyg'unligini beradi. Qoidasiga ko'ra, bitta rangda yoki chegaralangan miqdordagi ranglardan foydalaniladi. Texnologiyasi: quruq va suyuq bo'yoq vositalari. Quruqlari: ko'mir, grafit qalam, sangina (qizil bo'r). Suyuqlari:
33	<b>Refleks</b>	Reflex	grafikada kamdam-kam, tasviriy san'atda: o'rab turgan obyektlardan biror-bir predmetga rang va nurning tushgan aksi. Bir butun qismlarining qiyin o'zaro aloqasi.
34	<b>Realizm</b>	Realism	san'atda: butun borliqning obyektiv tasviri. Ko'pgina san'at yo'nalishi va oqimlariga xos bo'lgan haqiqatga moyillikning namoyon bo'lishi. Ular aniq yoki noaniq namoyon bo'ladi, yoki umuman mavjud bo'lmaydi.
35	<b>Retush</b>	Retouch	(frans. Retouche – , to'g'irlab qo'yish) – tasvir xatolarini to'g'irlash.

36	<b>Ritm</b>	Rhythm	tasvirdagi kompozitsion qurilish, o'z navbatida ketma ketlik yoki qaytarilish qismlarini anglatadi. Ritm rassomlik obrazining ifodaviyligini oshiradi, kuchaytiradi.
37	<b>Sangina</b>	Sanguine	– (frans. Sanguine, lot. Sanguinelis to'q (qonli) qizil) – qizil va jigar rangli qalamlarning turli xil tonalari.
38	<b>Yorug'lik</b>	Light	tasviriy san'atda soya yorug' elementi. Naturada bo'lgani kabi, tasvirda ham bu atama eng yorug' qismlarini ko'rsatib berishda qo'llaniladi.
39	<b>Kuchli yorug'</b>	Luminosity	tasviriy san'atda rangning yorug'lik bilan yanada ko'proq boyitilishi; oldidagi boshqa buyumlarning rangidan ajratib olishi; grafikada esa bir-biriga qo'shni turgan predmet tonlarning bir-biridan ajralib chiqishi.
40	<b>Soya-yorug'</b>	Chiaroscuro	yorug' va to'q ranglar aralashmasi, buyumning hajmi va formasini chiqarishda katta ahamiyatga ega. Uning asosini: Soya va yorug', yarim yorug', reflex, shu'li tashkil etadi. Soya va yorug' kompozitsion tuzilish va asar mazmunini ta'riflash vositalaridan biri hisoblanadi
41	<b>Tarkib va tuzilish</b>	The content and form	san'atdagi o'zaro moslashadigan kategoriyalar. Tarkib – tasvirlangan va ifodalangan san'at asariga yo'naltiriladi. Tuzilish esa – qanday usullar bilan shu maqsadga erishish. San'at asarida tarkib obrazli tuzilishsiz ifodalana olmaydi.
42	<b>Ijod jarayoni</b>	The creative process	chiziladigan tasvirning mavzu mazmuni ijodkor rassomning hayoliga kelishidan boshlab, shu tasvirning chizib tugatilishiga qadar bo'lgan ijodiy jarayon.
43	<b>Ton</b>	Tone	tasvirning barcha ranglarini o'zida mujassamlashtirgan asosiy ranglar tusi.
44	<b>Ko'mir</b>	Coal	dastlabki paytlarni kuydirilgan daraxt shoxlaridan, keyinchalik esa yelimning ko'mir kul bilan aralashmasidan tayyorlanadigan chizish uchun mo'ljallangan ish quroli.

45	<b>Faktura</b>	Texture	(lot. Facture – qayta ko‘rib chiqish, qurish) – badiiy asarni his qilish xossalari, butun borliqning haqqoniy tasviri vositasi sifatida qo‘llanilgan.
46	<b>Fon</b>	Background	(frans. – chuqurlik, tub) tasviriy san’atda natura, manzara, obyektning orqadagi ko‘rinishi, orqa plani tushuniladi. Bunda fon odatda neytral holda, yoki ba’zi bir hollarda oddiy tasvirga ega bo‘lgan holda joylashadi.
47	<b>Forma</b>	Form	tashqi ko‘rinish. Tasviriy san’atda forma hajmi, konstruksiyani hamda mutanosiblikni anglatadi.
48	<b>Format</b>	Format	tasvir ishlanadigan yassi tekislik. Bo‘yi va eni hisoblab chiqilgan, tasvir ishlashga moslangan bo‘ladi. Format tanlash bajariladigan ishning umumiy ko‘rinishi va kayfiyatdan kelib chiqiladi. Rasm formati doim kompozitsiyaga mos kelishi kerak.
49	<b>Shtrix</b>	Stroke	(nem. strich), qo‘lning bir harakati bilan chiziladigan chiziq, chegara. Shtrix orqali buyumning konturi va hajmini belgilash mumkin. Shtrix chizishning belgilangan tizimi, shtrixlash yorug‘lik va soyaning siyqallashishini ta‘minlaydi, bu esa hajmi va shakl mutanosibligini ko‘rsatadi.
50	<b>Eskiz</b>	Sketch	(frans. esquisse)–rassom ishlamochi bo‘lgan asari yoki tasvirning oldindan qilingan taxminiy ishi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. B. Boymetov, Qalamtasvir. Darslik “Musiqqa” nashriyoti – 2006.
2. P.Халилов, Рисунок, “Навруз” Т., – 2013.
3. B. Tojjiyev, Maxkamova “Qalamtasvir” TDPU-2015 yil
4. B. Tojjiyev, X. Sultonov “Qalamtasvir” TDPU-2009
5. P. Thomas, A. Taylor, Drawing, London-2011.
6. B. Boymetov “Qalamtasvir” Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Iqtisod-Moliya”-2010.
7. B. Barber “Full course of the drawing”, Barselona-2014.
8. N. Tolipov, Sh. Dilshodbekova. “Tasviriy san’atdan izohli lug’at” TDPU-2014.
9. X. Хариссон, “Энсклопедии. Техник рисунка” Москва-2005.
10. M. Кирсер, “Рисунок и живопись” Москва-2003.
11. Н. Ли, Основы учебного академического рисунка. Москва-2003

## **Elektron resurslar**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [tdpu.library.uz](http://tdpu.library.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
5. [www.pinterest.com](http://www.pinterest.com)

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
Qalamtasvirning rivojlanish tarixi .....	5
Qalamtasvir mashg‘ulotida zarur qurollar va jiozlar .....	10
Xomaki rasmlar va ularni bajarish usullari .....	22
Qalamtasvir tasviriy san‘atning asosi sifatida .....	25
Qalamtasvirda tasvir ishlash qonun koidalari .....	27
Turli shakldagi ikki-uch geometrik sirtlardan tuzilgan natyurmortni tasvirlash ..	35
Sharning qalamtasviri .....	40
Murakkab bo‘lmagan shakldagi gips naqshli rozetkaning qalamtasviri .....	44
Matoning qalamtasviri .....	48
Uy-ro‘zg‘or buyumlarining konstruktiv qoramalari .....	50
Kapitel va san‘at ashyolari bilan tuzilgan natyurmortning qalamtasviri .....	60
Turli shakl va fakturali uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tashkil topgan murakkab bo‘lmagan natyurmortning qalamtasviri .....	68
David haykalining bosh bo‘laklari qalamtasviri (burun, lab,quloq) .....	79
David haykalining ko‘z bo‘lagi qalamtasviri .....	92
Odam boshining anatomik qurilishi haqida ma’lumot. kesik bosh haykalining qalamtasviri .....	98
Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun krossvord .....	114
Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun interaktiv test .....	117
Master-klass video darslari .....	117
Ilovalar .....	118
Glossary .....	145
Foydalanilgan adabiyotlar. Elektron resurslar .....	152

X.X. Muratov

# QALAMTASVIR


*daralik*

Muharrir: I. Tursunova  
Badiiy muharrir: B. Haydarov  
Kompyuter sahifalovchi: N. Fayziyeva  
Korrektor: Sh. Hikmatova


Nashr. lits. AI № 276 15.06.2015.  
Bosishga ruxsat etildi. 29.05.2023.  
Bichimi 60x84 1/16 Offset qog'ozi.  
Times New Roman garniturasida.  
Shartli bosma tabog'i 9,75. Nashr hisob tabog'i 9,3.  
Adadi 100 nusxada. Buyurtma № 22-06.

“LESSON PRESS” MCHJ nashriyoti.  
100071. Toshkent, Komolon ko'chasi 13.

«ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy.



ISBN 978-9910-9660-1-9



9 789910 966019